



F.U.Qodirova,X.Sh.Yunusova

Inklyuziv va maxsus ta'limning filologik asoslari



CHIRCHIQ 2022

UO'K: 373:159.9

KBK: 74.00

F-48

F.U. Qodirova, X.Sh. Yunusova

Inklyuziv va maxsus ta'larning filologik asoslari: – Toshkent:
«Zebot print» 2022. – 136.

Taqrizebilar:

Sh.Samarova- TVCHDPI Psixologiya kafedrasи mudiri,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

U.Fayziyeva- O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va
psixologik pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta'lim
laborotoriyasi bo'limi boshlig'i p.f.n dotsent

Ushbu o'quv qo'llanmada inklyuziv ta'limga va maxsus ta'limga
ona-tilining o'mni, tilshunoslik bo'limlari, nutq madaniyati qonuniyatlarini
bayon etilgan. Qo'llanma bo'lajak logopedlar, surdopedagoglar
va oligofrenopedagoglar, defektologlar, tarbiyachilar, alohida
ehtiyojga ega bo'lgan bolalar va ularning ota-onalari bilan korreksion
va rivojlantirish ishlarida foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-8463-6-4

Kirish

Mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlash hamda O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirishda ta'lif tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, yoshlarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Yangi jamiyat uchun mustaqil fikr yuritadigan, maqsad va vazifalarga erishishga qodir, ma'naviy – axloqiy dunyosi boy, barkamol shaxsni shakllantirish davr talabi bo'lib qoldi. Mazkur vazifa avvalo har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashni taqozo etsa, bu holda birinchi navbatda ularning jismonan va ruhan sog'lomliklarini talab etadi. Mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlash hamda O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirishda ta'lif tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, yoshlarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Zero taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy tikrifyaydigan, muayyan kasb-hunarga ega bo'lgan yuksak salohiyatlari kishilar hal etadi. Shu o'rinda alohida qayd etish zarurki, yurtimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash voyaga yelkazish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmogda.

Ta'lif-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo'nda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, mакtab ta'lifi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchchi yo'naliishida¹ maktabgacha ta'lif muassasalarini qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta, o'rta

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni

maxsus va oliv ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora tadbirlari turadi.

2017-yilda amalga oshiriladigan tadbirlar tufayli O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi davlat test markazi zimmasiga aholining ijtimoiy nochor qatlamlarining sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora tadbirlar ishlab chiqarish topshirildi.

Davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonning rivojlanish istiqbollari haqida so'z yuritar ekan, har kim o'z huquqlarini bilishi, ulardan foydalana olishi, o'z huquq va erkinliklarini bilishi uchun aholining huquqiy madaniyatini oshirish nechog'liq muhim ekanligini har doim eslatib o'tadilar.

Jumladan, Konstitutsiya ma'rurasida bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkinligini ta'kidladi.

Asosiy qonunimiz negizida yaratilgan "Harakatlar strategiyasi" bugungi kunda jonajon vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o'rin egallamoqda.²

Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallahini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak

²Bilimli avlod - buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi, 2018-yil 8-dekabr.

dunajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz deb ta'kidlaydi prezidentimiz.³

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach, munlikatimizda alohida yordamga muhtoj bolalarga moddiy, tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy yordam ko'rsatish masalalariga e'tibor kuchaydi.

Barkamol inson, uning mehnati va turmushi, ma'naviy taraqqiyoti haqidagi amxo'rlik davlatimizning ustuvor masalalaridan biridir. Ayniqsa, yordamga muhtoj, ruhan va jismonan zaif bo'lgan shaxslarning turmush tarzi, ularga maxsus ta'llim-tarbiya berish, kasbga yo'naltirish va ish bilan ta'minlash masalalariga hukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilgan.

³Shavkat Mirziyoyev "ERKIN VA FAROVON, DEMOKRATIK O'ZBEKISTON DAVLATINI BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi TOSHKENT - «O'ZBEKISTON»
- 2016

I BOB INKLYUZIV VA MAXSUS TA'LIMNING FILOLOGIK ASOSLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1-MAVZU: INKLYUZIV VA MAXSUS TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

1. Inklyuziv ta'lim haqida tushuncha.
2. Inklyuziv va maxsus ta'larning maqsadi va vazifasi.
3. Inklyuziv ta'larning tamoyillari.
4. PQ-4860-son qarori

Tayanch tushunchalar: inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim, tamoyil, ehtiyoj, kompleks, diskriminatsiya

"Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha "inclusif" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'z ichiga oladi" deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'lig'i cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Bunday holda, ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'larning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. O'matish va asboblar maxsus bolalarga moslashtirilgan bo'lishi kerak va boshqa talabalar va o'qituvchilar har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini tushunishlari, qabul qilishlari kerak.

Maxsus ehtiyojga ega bo'lganlar toifasiga nogironlar yoki nogiron deb hisoblanmaydigan kasalliklarga ega shaxslar kiradi, lekin ularga maxsus uskunalar bilan ta'minlanmagan oddiy mакtabda umumiylar ma'lumot olishlariga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar audio kitoblar bilan ta'minlanishi kerak. Umumiylar o'rta mакtabda ta'lim talabalarning intellektual va jismoniy sog'lig'inining standart darajasiga mo'ljalangan. Standartlarga mos kelmaydiganlar

intisolashtirilgan maktablarda o'qishga majbur. Shu sababli, alohida ehtiyojga ega odamlar izolyatsiya qilingan, keyingi hayotda kam ruqobatdosh.



Inklyuziv ta'limning kamchiliklari bo'lsa-da, uning afzallikkleri aniq:

• Odamlarning keng doirasi, shu jumladan, sog'lig'i cheklanmagan odamlar, ya'ni oddiy odamlar bilan o'zaro munosabatlar. Inklyuziv ta'lim paydo bo'lishidan oldin, alohida ehtiyojga ega odamlar o'rtasida bunday muloqot qilish imkoniyati deyarli mavjud emas edi. Turli xil nogiron kishilarning aktsariyati uchun ijtimoiy doiralar reabilitatsiya markazlariga yaqin qurindoshlari va boshqa tashrif buyuruvchilar bilan cheklangan.

• Boshqa bolalar bilan teng ravishda jamiyatga qo'shilish qobiliyati. Maxsus ehtiyojga ega bo'lgan odamlar, shuningdek, ko'rgazmalar, muzeylar, teatr tomoshalari kabi madaniy tadbirdarga tashrif buyurishlari mumkin. Biroq, ular o'zlarining ehtiyojlariga moslashtirilgan, to'siqsiz muhit deb nomlangan muhit bilan jahozlangan bo'lishi kerak.

• O'qish va undan keyingi davrda tuzatish, psixologik, ijtimoiy yordum olish. Bunday ko'mak inklyuziv tarzda o'qitish uchun maxsus tayyorlangan o'qituvchilar tomonidan ta'minlanadi.

• Inklyuziv ta'limning ijobiy va salbiy tomonlarini tortib, ushbu turdagи ta'limning kamchiliklarini hisobga olish kerak. Kamchiliklarga quyidagilar kiradi:

• Maxsus ehtiyojli bolalarni kuzatib boorish uchun tayyorlangan malakali kadrlar - o'qituvchilar, o'qituvchilar, psixologlar, defektologlari, logopedlaryetishmasligi.

• O'qituvchilar tarkibi ko'pincha ehtiyojlari bo'lgan talabalarga nisbatan yumshoq munosabatda bo'lishadi, shuning uchun ularning bilmularini baholash ob'ektiv emas.

- Milliy o'quv dasturi ko'pincha ba'zi o'quvchilarni ma'lum bir bosqichda o'qishni davom ettirishga to'sqinlik qiladi.⁴
- Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarning ota-onalari ko'pincha ma'lumotlarga ega emaslar. Natijada, bolalar faqat o'rta ma'lumot olishadi va o'qishni davom ettira olmaydilar.
- Ta'lim sifatini yaxshilash uchun nafaqat inklyuziv, balki umumta'lim maktablari ham zarur.

UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyati cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lislari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy mакtabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday mакtabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa mакtabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari.

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- 1) Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
- 2) Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
- 3) Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
- 4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
- 5) Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
- 6) Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
- 7) Malakaviylik tamoyili.

Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990-yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqqiyosida dekloratsiyalar va qarorlar qabul qilindi.

⁴ "Inklyuziv ta'lim" O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent 2003

Ularni jahoning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lif borasida qonun yoki qororlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lif masalasi unga kirtilmaydi. Ammo inklyuziv ta'lifni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni nijratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'lifni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida turg'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galadagi masaladir.

Inklyuziv ta'lifning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.

O'tgan yigirma yil davamida maxsus ehtiyojli bolalarni umumita'lif muassasalarini tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar umalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'lifi tizimini joriy qilish asosan buhurlar miqyosida bo'lib, qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'lifdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'lifga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qurʼrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.

"Bog'lanish"-bu so'zning zamirida-ommaviy binolarning sifati, unniqsa nogiron bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi labilalar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab bojutxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak.

Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini tilborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Albatta nogiron bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonian bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'lifning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

A) Inklyuziv ta'lismiz qilingan qismi bo'lishi kerak.

B) Inklyuziv ta'lismiz vazifalar mahalliy ta'lismiz organlariga javobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslash-tirilishi lozim.

Inklyuziv ta'linda kompleks yondashishi tamoyili.

Nogiron bolalarga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lismiz masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi.⁵ Bundan tashqari, inklyuziv ta'linda nogiron boladagi mavjud nuqonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega bo'lish, kasb-hunarga o'rnatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta maxsus ta'limi olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etiladi. Chunki inklyuziv ta'lismiz vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

Inklyuziv ta'linda moslashuvchanlik tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsiliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan, o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.

⁵ "Inklyuziv ta'lismiz" O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent 2003

Malakaviylik tamoyili.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tushqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektologiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

1) **Izlab topish va jalb qilish bosqichi.** Nogiron odamlarning hayoti asosan yakkalab qo'yishlar bilan bog'liq. Ko'plab davlatlarda nogiron odamlarga past nazar bilan qaralib, ular hamjamiyatdan chetlashtirilmoqda. Buning oqibatida nogiron bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari yanada chegaralanib qolmoqda. Millatning etnopsixologik xususiyatlaridan biri bo'lmish nogiron farzandini boshqalardan berkitish hollari esa nogiron bolalar kelajak hayoti uchun juda fojeali holatdir. Mana shunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Oilaga, ya'ni asosan ota-onalarga nogiron bola ham mакtab ta'lim-tarbiyasini olishi shart ekanligini to'g'ri tushintirib bera olish kerak. Shunday usullar bilan ta'limdan chetda qolib ketgan nogiron bolalarni izlab topish imkoni yaratiladi. Ro'yxatga olingen bolalar o'z yuqin atrofidagi umumta'lim maktablariga jalb etiladi.

2) **Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'llanish bosqichi.** Bu bosqichda umumta'lim muassasalari tizimiga kiritilgan maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy, korreksion-tivojlantiruvchi vazifalar rejasini tuzib chiqiladi.

3) **Reabilitatsiya bosqichi.** Bu bosqichda bolalarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarini bajarish qobiliyatları va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish ishlari amalga oshiriladi. Shu sababali bu bosqichda nogiron odamlar nafaqat ta'lim-tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglar ham olib boriladi. Ular "ob'yekti" emas, balki "subyekt" vazifasini o'taydi. Natijada nogiron bolalarning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilishga qodir ekanligi diqqat markazda turadi.

4) **Integratsiya bosqichi.** Bu bosqich inklyuziv tarzida o'qitilgan, reabilitatsiya jarayoni amalga oshirilgan nogiron bolalarni ijtimoiy jamiyatga to'la kiritish bosqichidir. Integratsiya bosqichida nogiron bolalar to'laligicha ijtimoiy jamiyatga kiritiladi. Ya'ni bu bosqichda nogiron bolalarning ham o'zlarining teng imkoniyatlari va

huquqlaridan foydalangan holda kasb va ishlash joyini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish ularni o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarining yoshlari bir xil bo'lsada, lekin ular bir-birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning imkoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayoni muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni L.S.Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra "**Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi**" fikri bilan ham tasdiqlash mumkin .

Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi mакtab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiyl maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiyl ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. "Umum ta'lim" va "Maxsus ta'lim" o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilari, boshqaruв jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanilib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarining talablariga javob beruvchi "Inklyuziv mакtab"da bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi. Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarish mumkin, lekin ularning pedagogik amaliyotini to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo'lishi uchun islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilar hamda uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Inklyuziv ta'lif quyidagi shart-sharoitlarda tashkil etilishi mumkin: ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy o'rta ta'lif maktab sinflari (guruhlari)da umumiy va alohida yordam olish, logoped xonalarida korreksion pedagogik yordam olish, korreksion sinf (guruh)larda maxsus ta'lif olish shaklida.

Inklyuziv ta'lif tizimiga maxsus yordamga muhtoj bolalarni viloyat (shahar, tuman) xalq ta'lifi bo'limlari tomonidan tibbiy-psixologo-pedagogik komissiya faoliyatida "Respublika, viloyat, tuman tibbiy-psixologo-pedagogik komissiyalar to'g'risida"gi nizom usosida qabul qilinadi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lif tizimida o'qitish o'qituvchilardan ikki karra ma'suliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inklyuziv ta'lif pedagogik kvalifikatsiyasini olgan o'qituvchilargina inklyuziv sinf o'qituvchisi etib tayinlanishi mumkin. Inklyuziv sinf o'qituvchisi umumiy o'rta ta'lif muassasa ustavida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda:

- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me'yorga keltirish ishlarini olib boradi;

- bolalarni faolligini, ta'lif samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo'llaydi;

- diqqat-e'tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchikovlik va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalaydi;

- o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohibda ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi.

Hujjat bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- 2020-2025 yillarga xalq ta'lifi tizimida inklyuziv ta'lifni rivojlantirish konsepsiysi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi";

- alohibda ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lifini 2025-yilga-chi rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari).



Konsepsiya ikki bosqichda amalda oshiriladi.

2021/2022 o'quv yilida:

- tajriba-sinov tariqasida shaharlarda hamda Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan umumta'lim mакtablarida inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilinadi;
- Qoraqalpog'ston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan umumta'lim maktabida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochiladi;
- Qashqadaryo, Farg'on'a va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish bo'yicha ijobiy tajriba Respublikaning boshqa hududlariga bosqichma-bosqich tatbiq etiladi.⁶

Diskriminatsiya- (lotincha: diskriminatio — farqlash) — davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs huquqlarining (boshqa davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs huquqlariga nisbatan) cheklanishi. Huquqlarning to'g'ridan to'g'ri buzilishi, ayrim fuqorolarni boshqalarga qaraganda yomonroq ahvolga solib qo'yishi.

Integratsiya- (lot. integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha;

Nuqson - Jismoniy yoki ruhiy kamchilik, illat

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohibda ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qaror

Ehtiyoj- insонning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyat. Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.

Bilim- kishilarning jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma'lumotlari voqealikning inson tafakkurida aks etishi.

Ko'nikma- insонning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish.

Malaka- ma'lum bir ishni bajarish uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik, tajriba, bilim darajasi hisoblanadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Inklyuziv ta'lim tizimi haqida gapirib bering.
2. Inklyuziv ta'limning vazifalarini sanab bering.
3. Inklyuziv ta'lim tamoyillariga qaysi tamoyillar kiradi?
4. Inklyuziv ta'limning afzalliklari haqida so'zlab bering.
5. Inklyuziv ta'limni joriy qilish yuzasidan qaysi qaror huquqiy asos bo'lib hizmat qiladi?

2-MAVZU: UMUMIY TILSHUNOSLIK DAN MA'LUMOT

REJA:

1. Tilshunoslik haqida tushuncha
2. Til ijtimoiy hodisadir, tilning tuzilishi
3. Tillarning tasnifi

Tayanch tushunchalar: til, tasnif, tilshunoslik, nazariy, amaliy, fonetik, leksik, grammatic

Ma'lumki, hozirgi zamon fanlari tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlardan tarkib topgan:

1. Tabiiy fanlar.
2. Texnika fanlari.
3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar.
4. Matematika fanlari.⁷

Tilshunoslik fani kishilar tili haqidagi fan sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar guruhiiga kiradi.

1. "Tilshunoslik til haqidagi, uning ijtimoiy tabiatni, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi muayyan tillarning ish ko'rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan"⁸

2. Tilshunoslik fani hozirgi zamon fanining barcha asosiy turlari bilan bog'liq. Tilshunoslik – ko'p qirrali fan. U fan sifatida umumiyl va xususiy, nazariy va amaliy tilshunoslikka ajratiladi.⁹

⁷ A.Nurmonov, B. Yo`ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –T.: 2001, 11-bet.

⁸ A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2002, 107-bet.

⁹ M. Hamroev, D. Muhammedova, D. SHodmonqulova, X. G'ulomova, SH. Yo`ldasheva "Ona tili" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgazirligi oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'limgaz, defektologiya, pedagogika va psixologiya, muktabgacha tarbiya fakultetlari talabalari uchun darslik. Toshkent-2008

Umumiy tilshunoslik barcha tillar bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni umumlashtiradi va turli tillarga tatbiq etiladigan nazariyani yaratadi.

Umumiy tilshunoslikning maqsadi:

- 1) tilning tabiatini, mohiyatini aniqlash;
- 2) til haqidagi fanning sathlarini va ularni o'rganuvchi sohalarni belgilash;
- 3) tillarning tasnifini yaratish;
- 4) lingvistik tahlil metodikasini ishlab chiqish va boshqalar.

Xususiy tilshunoslik – alohida, ayrim til haqidagi fan; jumladan, o'zbek

tilshunosligi - o'zbek tili haqidagi fan, qozoq tilshunosligi - qozoq tili haqidagi fan, rus tilshunosligi – rus tili haqidagi fan va h.k. O'z-o'zidan ayonki, har bir xususiy tilshunoslik ma'lum bir konkret tilga xos bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Nazariy tilshunoslik til haqidagi nazariyani o'rgansa, amaliy tilshunoslik lingvistik bilimlarni amalda qo'llash bilan shug'ullanadi.

Til ijtimoiy hodisadir

Til kishilarning o'zaro muloqotga kirishuvi va fikr almashuviga bo'lgan ehtiyoj natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Til paydo bo'lgandan keyin (bu, olimlarning taxminicha, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yuz bergan) jamiyat tez rivojlanma boshlagan. Til jamiyat uchun, uning a'zolari bo'lmish insonlar uchun xizmat qiladi, shuning uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi, ya'ni til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo'lib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllantirilib, rivojlanib boradi.

Shu tufayli ham tilning taqdiri jamiyatning taqdiri bilan chambarchas bog'liq.

Til bo'lmasa, jamiyatning bo'lishi mumkin emas, ya'ni til odamlarni jamiyat sifatida jipslashtirib turuvchi buyuk ne'matdir. Jamiyatsiz tilning mavjud bo'lishi mumkin emas. Jamiyat a'zolari ham tilning yashashi, rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shadi. Shu munosabat bilan o'tgan asming 80-90-yillaridagi o'zbek tilining ahvolini eslash o'rinnlidir. Bu davrda o'zbek tilining faoliyat ko'rsatish doirasi juda torayib, uning yo'q bo'lib ketish **XAVF** payut **DB** idi. **Ana shurda** jamiyatimizning ilg'or vakillari ona tilining hujayra qishish uning taqdiri uchun qayg'urib, amaliy **TAQDORI RESURS MARKAZI**

natijasida 1989-yil 21-oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi qonun qabul qilindi. Aytish mumkinki, bu qonunning qabul qilinishi istiqlol tomon qo'yilgan dastlabki qadamlardan biridir. Til tafakkur bilan, kishining fikrlash faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Har qanday fikr til materiallari asosida shakllanadi.

Tilning tuzilishi

Til tuzilishiga ko'ra murakkab hodisa bo'lib, u bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi qismlardan iborat:

1. Tovushlar tizimi.
2. Lug'at boyligi yoki leksika.
3. Grammatik qurilishi.

Ma'lumki, inson tili tovush tilidir. Har bir tilning o'z tovushlar tizimi mavjud. Tovushlar so'zлами, iboralами, grammatic shakл va ko'rsatkichлarni shakllantiradi.

Tovushlardan iborat bo'lgan so'z va iboralar yig'indisi tilning **lug'at boyligini** tashkil qiladi. Lug'at boyligidagi so'z va iboralar fikri ifodalovchi gap uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Gap, uni qurish qonun-qoidalalarini tilning **grammatik qurilishi** belgilaydi. Demak, tilning tarkibiy qismlari sanalmish tovushlar tizimi, lug'at boyligi, grammatic qurilishi o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, biri ikkinchisining bo'lishini talab qiladi. Har bir konkret til o'zining ana shu uzvlari bilan bir butun tizimni, sistemanini, til tizimini tashkil etadi.

Til – taraqqiy qilib, o'zgarib boruvchi hodisa. Til to'xtovsiz ravishda o'zgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi ijtimoiy hodisadir. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Tilning taraqqiyoti birinchi navbatda uning lug'at boyligida o'z aksini topadi. Kishilar hayotidagi o'zgarishlar, ilм-fan va madaniyatning taraqqiyoti leksikani boyitib boradi. Tilning tovushlar tizimi va grammatic qurilishi esa juda sekinlik bilan o'zgaradi. Buni til tarixini o'rganish orqaligina sezish mumkin. O'zbek tili - o'zbek millatining tili, o'zbek tili -O'zbekiston Respublikasining davlat tili. Davlat tili sifatida o'zbek adabiy tilining mavqeyi beqiyos darajada o'sdi, xizmat doirasini kengaydi, lug'at tarkibi boyidi, fonetik tizimi, grammatic qurilishning takomillashuvida katta o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek milliy tili hozirgi o'zbek millatiga mansub bo'lgan barchakishilarning umumiy va yagona tilidir. U o'zbek millatining shakllanishi bilan bevosita bog'liq.

O'zbek millati shakllangunga qadar u urug' tili, qabila tili va xalq (elat) tili tarzida yashab, rivojlanib keldi. O'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasining kengayishi natijasida uning lug'at tarkibida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tilning leksikasi ichki imkoniyatlар bilanyangi yasalgan so'zlar va boshqa tillardan qabul qilingan so'zlar hisobiga boyib borishi ko'zga tashlanmoqda. Kishilar ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi, xalq xo'jaligidagi, madaniyat, fan-texnika sohasidagi ko'pgina o'zgarishlar yangi tushunchalarni, yangicha munosabatlarni keltirib chiqardi. Bularning hammasi o'zbek tili leksikasining ko'pgina yangi so'zlar hisobiga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar hisobiga boyib borishiga sabab bo'ldi. Masalan: *broker, diler, makler, kompyuter, menejer, fermer, biznes* va h.k. Ayrim o'zbekcha so'zlarning ma'nosida o'zgarishlar ro'y berib, ular boshqa ma'nolarda qo'llana boshlandi. Masalan: *ishbilarmon* va *tadbirkor* so'zлari ilgari sifat turkumiga mansub bo'lib, belgi ifodalagan bo'lsa, hozirgi paytda bu so'zlar ot turkumigao'tdi va shaxs ma'nosini ifodalaydigan bo'ldi. Bu jarayonlarning barchasi o'zbek tili lug'at boyligini yangi pog'onaga ko'tardi. O'zbek tilining fonetik tizimida, grammatik qurilishida ham ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, fonetik tizimda, o'zlashma so'zlarda o'zbek tiliga xos bo'lmagan bo'g'inning yangi turlari (so'z boshida va so'z oxirida ikki yoki undan ortiq undoshning qator kelishi) paydo bo'ldi: *sport, stol, traktor, shkaf, magistr, kongress* kabi. Shuningdek, o'zlashma so'zlarda ikki unlining o'zbek tili uchun xos bo'lmagan ketma-ket kelish holatlari kuzatiladi: *aeroport, bionika, geologiya, teatr, poema* kabi. Grammatik qurilishda kelishik shakllari, ayrim ko'makchilarning ma'nosi va vazifasi kengaydi, kelishikli boshqaruv va ko'makchili boshqaruv me'yorlari belgilandi. Ot boshqarvi asosida tuzilgan so'z birikmalarini ko'proq qo'llana boshlandi.

Milliy til va uning tarkibiy qismlari

Ma'lumki, o'zbek xalqi Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo'lib, uning tili XI-XII asrlarda ma'lum ijtimoiy-tarixiy haroitlarga ko'ra xalq tili sifatida shakllana boshladi va asta-sekinlik bilan rivojlanib keldi. Qayerda yashashidan qat'i nazar o'zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlataladigan til **milliy** (**umumxalq**) o'zbek tili deb yuritiladi. Milliy til o'z tarkibiga adabiy til, sheva, so'zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so'kish, qarg'ish

so'zlar), varvarizm (tildagi o'rinsiz ishlatalgan chet so'zlar) kabi guruh so'zlarni qamrab oladi. Jamiyatning muayyan tarixiy rivojlanish sharoitida xalqlar (elatlar) taraqqiyqilib, millatga, xalq tillari esa milliy tillarga aylandi. Demak, milliy til millatning paydo bo'lishi bilan birga yuzaga keladi. Milliy til millat uchun umumiy bo'lган tildir. Milliy til tushunchasi juda keng bo'lib, u mahalliy dialektlarni (lahja)larni va barcha shevalarni o'z ichiga oladi. Sheva bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatalidigan milliy til ko'rinishidir. Sheva adabiy tildan quyidagi xususiyatlariga ko'ra farq qiladi:

1. **Fonetik (ya'ni tovush)** jihatdan: *yo'q (ad.) – jo'q (sheva), keldi (ad.) – geldi (sheva), bahor(ad.) – bohor(sheva).*

2. **Leksik (ya'ni so'z)** jihatdan: *ota (ad.) - ada(sheva), chumchuq(ad.) – secha(sheva), sigir(ad.) – inak(sheva).*

3. **Grammatik (ya'ni, qo'shimchalar va gap qurilishi)** jihatdan: *kelyapti (ad.) – kevotti – kelopti – kelutti.*

Xalq shevalarining faqat og'zaki shakli mavjud. Shevalarning bir-biriga yaqin bo'lган guruhlari **lahja** deb ataladi (**dialektso'zi** sheva va lahja tushunchalarini **birgalikda** ifodalaydi.). Jumladan, o'zbek milliy tilining uchta lahjalar (**dialektlar**) guruhi mavjud:

1. Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).
2. Qipchoq lahjasi (janubiy-g'arbiy guruh).
3. O'g'uz lahjasi (shimoliy-g'arbiy guruh).

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini o'z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro). Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

1) so'z oxiridagi **k** tovushi **y** tarzida aytildi: *elak - elay, terak – teray*

2) **o** lashish yuz beradi: *aka - oka, nahor – nohor.*

3) bu lahjada qaratqich kelishigining qo'shimchasi yo'q bo'lib, uning o'rniga ham tushum kelishigi qo'shimchasi **-ni** ishlatalidi: *ukamni(ng) daftari.*

Qipchoq lahjasi shevalari O'zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari).

Belgilari quyidagilar:

1) y o'mida **j** ishlatalidi: *yo'l - jo'l, yo'q - jo'q.*

- 2) *g'o'mida v ishlatalidi: tog'-tov, sog'-sov* va b.
 3) *so'z oxirida k, q* tovushlari tushiriladi: *quru(q), sari(q)*.¹⁰
O'g'uz lahjası Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Huzorasp, Qo'shko'pir, Shovot tumanları) bir qancha shevalarni o'z ichiga oladi.

Belgilari:

- 1) unlilar qisqa va cho'ziq aytildi: *at (hayvon), aad (ism)*.
 2) *t* tovushi *d, k* esa *g* tarzida aytildi: *tog' - dog', keldi - galdi*.
 3) *-ning* qo'shimchasi *-ing* tarzida, *-ga* qo'shimchasi esa *-a, -na* tarzida aytildi: *yoringa - yorima, alina (qo'liga)*.

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg'ona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi **fonetik** jihatdan, Farg'ona shevasi **morfologik** jihatdan adabiy tilga asos bo'lgan. Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi. Milliy til va adabiy til tushunchalari bir xil emas. Milliy til millatning maydonga kelishi bilan paydo bo'lsa, adabiy til milliy tildan oldin, xalq tili mavjud bo'lganda ham yuzaga keladi. Milliy tilning ma'lum qoidalarga bo'yundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, san'atkorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqlashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lishi kerak. Umuman, millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo'lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo'lgan. Milliy o'zbek tilida shevalarning ko'pligi adabiy tilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam bo'lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo'q. Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko'radi. Adabiy tilning **og'zaki** va **yozma** shakllari mavjud. Adabiy tilning og'zaki shakli nisbatan qadimiy bo'lib, u nutq tovushlari, urg'u, ohang (ohang) kabi fonetik vositalarga asoslanadi. Talaffuzga oid qoida va

¹⁰ M. Hamroev, D. Muhammedova, D. SHodmonqulova, X. G'ulomova, SH. Yo'ldasheva "Ona tili" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi olyi o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim, defektologiya, pedagogika va psixologiya, maktabgacha tarbiya fakultetlari talabalari uchun darslik. Toshkent-2008

me'yirlarni orfoepiya belgilab beradi. Adabiy tilning yozma shakli grafik vositalarga asoslanadi. Yozuvga doir qoida va me'yirlarni orsfografiya (imlo) va punktuatsiya (ishorat) belgilaydi.

Tillarning tasnifi

Olimlarning taxmin qilishlaricha, yer yuzida 5000 dan ortiq til bor. Bu tillar tarqalishi va ijtimoiy vazifalariga ko'ra ham, fonetik, leksik va Grammatik xususiyatlariغا ko'ra ham o'zaro farq qiladi. Jahon tillarining ko'pchiligini milliy tillar va xalq tillari tashkil qiladi, tillarning ayrimlari esa qabila tillari, hatto urug' tillari hisoblanadi. Milliy tillar o'zining tarqalish hududi jihatidan hamda ulardan foydalanuvchi aholining miqdori, soni jihatdan bir xil emas: ayrim tillarda kichik hududdagi oz miqdorli aholi gaplashadi, ba'zi tillar esa juda katta hududlardagi ko'p sonli aholi orasida tarqalgan. Bunday tillarga ingliz, fransuz, nemis, ispan, xitoy, hind, arab, rus va shu kabi tillar kiradi. Jahon tillarini tasniflash, ularning psixologiyasini ishlab chiqish umumiy tilshunoslikning vazifasiga kiradi. Yer yuzidagi tillarni o'rghanish XVIII asrdan boshlandi. XIX asrning birinchi yarmida tillarni bir-biriga qiyoslab tekshirish keng tus oldi. Natijada tillarni tekshirishda qiyosiy usul vujudga keldi bunda tillarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari bir-biriga solishtiriladi. Bu usul bilan tillarning faqat hozirgi holatigina emas, balki ularning tarixiy holati ham o'rghaniladi. Shuning uchun ham o'rghanishning bu yo'lli qiyosiy-tarixiy usul deb yuritiladi. Tillarni shu yo'l bilan o'rgangan va o'zlarining ilmiy asostari bilan jahonga tanilgan tilshunoslar sifatida daniyalik Rasmus Rask (1787-1832), olmoniyalik Frans Bopp (1791-1967) va Yakob Grimm (1785-1863), rus olimi Aleksandr Vostokov (1781-1864) kabi buyuk tilshunoslarni ko'rsatish lozim.

Tilshunoslikda tillarning qator tasniflari mavjud:

- 1) tillarning geneologik tasnifi;
- 2) tillarning morfologik tasnifi;
- 3) tillarning areal (geografik) tasnifi;
- 4) tillarning funksional tasnifi.

Tillarning geneologik tasnifi

Geneologik tasnif tilshunoslikda tillarni tarixiy-qiyosiy usul bilan tekshirishning mahsuli bo'lib maydonga keldi. Bu tasnifga ko'ra, tillar bir umumiy manbaadan kelib chiqqanligi, materiali (so'z, undagi

tovushlar, o'zak va qo'shimchalar) jihatidan yaqinligi, o'xshashligiga moslanib guruhlarga ajratiladi. Bir umumiy manbaadan kelib chiqqan tillar qarindosh tillar oilasini tashkil qiladi.

Tillar oilasi qarindosh tillarning juda yirik guruhi hisoblanadi.
Tilshunoslik

tomonidan tekshirib aniqlangan til oilalari quyidagilardan iborat:

- 1) hind-yevropa tillari;
- 2) semit tillar;
- 3) xamit tillar;
- 4) dravid tillari;
- 5) ugor-fin tillari;
- 6) xitoy tibet tillari;
- 7) iberiy-kavkaz tillari;
- 8) oltoy tillari;
- 9) avstroneziya tillari;
- 10) yapon tili;
- 11) koreys tili va boshqalar.

Bular o'z navbatida yana shoxobchalarga bo'linadi. Masalan, eng yirik tillar oilasi sanalmish **hind-yevropa** tillar oilasi quyidagitillar turuhlariga ajratiladi:

1. Hind tillari.
2. Eron tillari.
3. German tillari.
4. Roman tillari.
5. Slavyan tillari.
6. Kelt tillari.
7. Boltiq tillari.
8. Grek tili.
9. Alban tili.
10. Arman tili.

1. Hind tillariga qadimiy hind yoki sanskrit tili (o'lik til), o'rta hind tili, bozirgi hind tillari (panjob tili, gujarat tili, bengal tili) kiradi.

2. Eron tillariga tojik tili, afg'on (yoki pushtu) tili, osetin tili, kurd tili, so'g'd tili (o'lik til), qadimgi fors tili, o'rta fors (yoki pahlaviy) tili, yungi fors tili kiradi.

3. German tillariga got tili (o'lik til), shved, daniya, norveg, island tillari (shimoliy german tillari), ingliz, nemis, golland, flamand, friz tillari.

4. Roman tillariga italyan, frantsuz, ispan, portugal, rumin, moldavan, provansal, katalan, sardiniya tillari kiradi. Roman tillari tarixan lotin tilidan kelib chiqqan. Bundan ikki ming yilcha oldin jonli til bo'lgan lotin tili hozir o'lik tilga aylangan.

5. Slavyan tillariga rus, belorus, ukrain tillari (sharqiy slavyan tillari), polyak, slovak, chech, lujik tillari (g'arbiy slavyan tillari), bolgar, makedon, serb, xorvat, sloven tillari (janubiy slavyan tillari) kiradi.

6. Kelt tillariga irland, shotland, uels, breton tillari kiradi.

7. Boltiq tillariga qadimgi prus tili (o'lik til), litva tili, latish tili, latgal tili kiradi.

O'zbek tili oltoy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning turkiy tillar guruhiga kiradi. Oltoy tillar oilasi quyidagi tillar guruhlariga bo'linadi:

1. Turkiy tillar
2. Mo'g'ul tillari
3. Tungus-manchjur

Turkiy tillar oltoy tillar oilasining ko'p sonli va rang-barang guruhidir. Turkiy tillar ikki guruhga ajratiladi:

- 1) g'arbiy turkiy tillari;
- 2) sharqiy turkiy tillari.¹¹

Grammatika – Tilning ichki qurilishini o'rghanadi.

Morfologiya – so'z turkumlari , grammatic ma'no , grammatic shakl haqidagi bo'lim

Sintaktis – so'z birikmasi , gap va uning turlari haqidagi bo'lim

Orsografiya – to'g'ri yozishni va imlo qoidalarini o'rghanadi

Orfoepiya – adabiy tilning to'g'ri talaffuz qoidalari haqidagi bo'lim

Frazeologiya – iboralarni o'rghanadi

Fonetika – nutq tovushlari , bo'g'in va urg'u haqidagi bo'lim

¹¹ M. Hamroev, D. Muhammedova, D. SHodmonqulova, X. G'ulomova, SII. Yo'ldasheva "Ona tili" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim, defektologiya, pedagogika va psixologiya, maktabgacha tarbiya fakultetlari talabalari uchun darslik. Toshkent-2008

Leksikologiya – so‘z va uning lug‘aviy ma’nosini o‘rganadi

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tilshunoslik qanday fanlar qatoriga kiradi?
2. Milliy til va uning tarkibiy qismlari haqida gapirib bering.
3. Tillar qanday tasniflangan?
4. Tillarning geneologik tasnifi haqida gapirib bering.

3-MAVZU: TIL VA NUTQ

REJA:

1. Nutq madaniyati haqida tushuncha.
2. Nutq madaniyatida adabiy tilning o‘rni.
3. Til madaniyati haqida tushuncha
4. Nutq madaniyatining rivojlanishiga hissa qo‘sghan olimlar.

Tayanch tushunchalar: nutq, adabiy til, me’yor, tilshunoslik, notiq, notiqlik, til madaniyati, nutq madaniyati

Nutq madaniyati nima, uni yetarli darajada egallash uchun qanday vazifalarni amalga oshirish lozim va bunda adabiy til me’yorlarining o‘rni qanday bo‘ladi? Bu savolga javoblarni, avvalo taniqli tilshunos olimlarning asarlaridan topamiz. S.I.Ojegov shunday degan edi : “ Yuqori nutq madaniyati nima? Yuqori nutq madaniyati- bu o‘z fikrlarini til vositalari bilan to‘g‘ri, aniq va ta’sirchan qilib bera olishdir. To‘g‘ri nutq deb esa hozirgi adabiy til me’yorlariga rioya qilib tuzilgan nutqqa aytildi. Ammo yuqori nutq madaniyati faqtgina me’yorga rioya qilishdan iborat emas. U yana fikrni ifodalashning aniq vositasini topishdangina iborat bo‘lib qolmasdan, birmuncha ta’sirchan va maqsadga muvofiq vositalarni topish uquvini ham o‘z ichiga oladi”¹².

L.I. Skvorsov : “Nutq madaniyati tushunchasi bir tomondan nutqning adabiy til me’yorlariga mos kelish darajasini bildirsa, ikkinchi tomondan tilshunoslik fanining madaniyat quroli bo‘lgan adabiy tilni mukammallashtirish maqsadida me’yorashtirish muammolari bilan shug‘ullanuvchi sohadir”. Ma’lum bo‘ladiki, nutq madaniyati, agar masalaga til nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, bu dastlab nutqning grammatick to‘g‘riligi demakdir. Ikkinchidan esa, u uslubiy jihatdan ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak, ya’ni yaxshi nutqda noaniqlikka, ikki ma’nolilikka, uzundan-uzoqlikka yo‘l qo‘yilmasligi, qisqalik, aniqlik va soddalik uning o‘lchovi bo‘lishi lozim. Keng ma’noda esa nutq

¹² R.Rasulov, N.Husanov, Q.Mo‘ydinov “Nutq madaniyati” O‘quv qo‘llanma. T-2006

madaniyati nutqiy ta'sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o'tkirlik va obrazlilikni ifoda etadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, nutq madaniyati muammolari bilan olimlar hamma zamonalarda ham shu ullanib kelishgan. Bu sohada Praga lingvistik to'garagi, rus tilshunosligi katta yutuqlarga erishganligini ta'kidlab o'tish lozim. Keyingi 40-50 yil ichida bu sohada o'zbek tilshunosligida ham ma'lum iqlar amalga oshirildi va bu ishlar davom ettirilmoqda. O'zbek tilshunosligi erishgan yutuqlardan biri shu bo'ldiki, nutq madaniyati alohida o'rghanish obyekti qilib olindi va u alohida fan sifatida nazariy qo'yildi, ilmiy o'rghanish metodlari ishlab chiqildi, u bilan aloqador tushunchalarning chegaralari belgilandi. Bu borada O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida tashkil tulpi Nutq madaniyati sektorining, ayniqsa, unda uzoq yillar adabiyot sektor mudiri bo'lib ishlagan professor E.A. Begmatovning xizmatlari tatta bo'ldi. Olimning qalamiga mansub "Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi" (1973), "Tilshunoslikning muhim sohasi" (1973), "Nutq madaniyati mühümchasi haqida" (1975), "Nutq madaniyati mezonlari" (1976), "O'zbek nutqi madaniyati masalalari" (1980), "Notiqning nodir boyligi" (1980), "Adabiy norma va nutq madaniyati", "O'zbek nutq madaniyati ocherklari" (1989), "O'zbek nutqi madaniyati asoslari" (1991), "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" (1992), "Adabiy norma nazariyasi" (1997,1998,1999) singari asarlarida nutq madaniyatiga oid ko'plab ilmiy-nazariy fikrlar bayon etilgan.

Nutq madaniyatini yuksaltirish muammolarini aniq ko'ra bilgan olim bundan 30 yil muqaddam quyidagilarni yozgan edi: "Bizning tikrimizcha, nutq madaniyati sohasi o'z o'mi va fandagi mavqeini to'la qallishi uchun u nazariy jihatdan asoslangan bo'lishi lozim. Birinchidan, bu tushunchaning til hodisasi va ilmiy problema sifatida tarixi yoritilmog'i kerak. Ikkinchidan, nutq madaniyati sohasini o'rjinniuchchi asosiy obyekt bo'lgan til hodisasi aniqlanishi kerak. Uchinchidan, nutq madaniyatining ilmiy-tadqiqiy obyekti bilan bog'liq muammolar belgilanishi lozim. To'rtinchidan esa, nutq madaniyatining o'rghanish aspektlari (lingvistik va ekstralolingvistik) cheguralamishi zarur".

XXI asrga kelib bu masalalarning ko'plari hal bo'ldi. Bu borada I. Begmatovning xizmatlari katta ekanligini ta'kidlashimiz zarur. Birgina "til madaniyati" va "nutq madaniyati" tushunchalarini

chegaralash masalalarini olib qaraylik. Olimning fikrlarini keltiramiz: "...nutq madaniyati tushunchasi bu, avvalo to'g'ri, shu bilan birga, yaxshi so'zlash, ya'ni madaniy nutqiy protsess demakdir. Ammo madaniy gapirish uchun nutqda xizmat qiluvchi madaniy vositalar, ya'ni aniqrog'i madaniy til vositalari lozim bo'ladi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, madaniy nutq ikki faktor asosidagina yuzaga chiqa oladi.¹³

Til va nutq o'zaro aloqador, bir-biri bilan bog'liq, biri ikkinchisiz mayjud bo'lmaydigan, ammo bir-biridan farqli bo'lgan ijtimoiy hodisalardir. Til mavhumdir, nutq esa aniqdir, ya'ni nutqni eshitamiz, akustik qabul qilamiz va ko'ramiz (matnda). Nutq doimo aniq bo'lib, muayyan o'rinda (joyda) va muayyan vaqtida yuz beradi. Nutq so'zlovchining, tinglovchining va predmetning – fikr yuritilayotgan predmetning mavjud bo'lishini talab qiladi. Nutq - alohida shaxsga, individga bog'liq. Til esa alohida shaxsga, individga bog'liq emas. Tilning ijodkori, yaratuvchisi xalq. A.A.Potebnya aytganidek til xalqning mahsulidir. Nutqning esa ijodkori individdir, insondir.

Nutq baland va past, tez yoki sekin, uzun yoki qisqa, mimikali yoki mimikasiz, qo'l harakati bilan (jest) yoki qo'l harakatsiz, aniq yoki noaniq bo'lishi mumkin, tilga bunday ta'rif-tavsiif to'g'ri kelmaydi. Nutq ham monologik ham dialogik bo'la oladi. Til esa monologik ham, dialogik ham bo'la olmaydi. Til – aloqa vositasi, nutq – aloqa usuli. Til – imkoniyat, nutq – voqelik ta'sirchanlik. Til – umumiylilik, nutq – xususiylik va alohidalik. Nutq kelib chiqishiga ko'ra birlamchi, ya'ni oldin nutq tovushlari paydo bo'lgan, til esa ikkilamchi, nutq asosida shakllangan, tashkil topgan. Til tahlil qilish yo'li orqali, nutq esa qabul qilish va tushunish orqali bilinadi. Tilning hayoti uzoq, xalqning hayoti bilan bog'liq, nutqning hayoti esa qisqa, ya'ni aytilgan vaqtdagina mavjud.

Tilning alohida vazifasi bo'lgan nutq-psixologiya, tilshunoslik (uslubshunoslik nutq madaniyati va b.), fiziologiya (nutq apparatining tuzilishini o'rGANADI), informatsiya nazariyasi va boshqa fanlar tomonidan tekshiriladi.

¹³ R.Rasulov, N.Husanov, Q.Mo'ydinov "Nutq madaniyati" O'quv qo'llanma. T-2006

Til - tilshunoslik falsafa, mantiq, tarix va boshqa fanlar tomonidan o'rjaniladi.

Til va nutq orasidagi dialektik munosabat shundaki, nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi. Nutq esa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi. Til birliklari yana nutq faoliyati - faolligi uchun xizmat qiladi. Ma'lumki, «Til madaniyati, deganda, ana shu tilning ifoda vositalarining ongli aralashish natijasida, hamma tushunadigan va qo'llay oladigan darajaga keltirilganligi, ma'lum davr ochni mosligi, ishlatilish qonun-qoidalari va me'yorlarining qaydajinda aniq va mukammal ishlanganligi, sayqal topganligi tushuniladi. Boshqacha aytganda, til madaniyati deganda, til birliklari imdadolar tomonidan ishlatishga to'la yaroqli holga keltirib qo'yilgan ifoda vositalari: tovushlar, so'zlar, qo'shimchalar, qoliplar kabilalar) va ular imkoniyatlari taraqqiyotining, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlari hunda shu munosabatlarni ta'minlovchi qoidalarning ishlanish darajasi tushuniladi». «Qaysi tilda bu qonun-qoidalar past darajada ishlangan bo'lsin, o'sha tilni madaniy til sifatida baholab bo'lmaydi. Til madaniyati-ning pastligi esa, oxir-oqibatda shu til vakillari nutq madaniyatining ham past bo'lishi uchun sabab bo'ladi».

Me'yor - jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish bolati va imkoniyatidir. Me'yor - tilning yashash shaklidir. Til va nutq fiziymida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorlashtirish jomiyyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan. Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda bo'zlarining o'rinali va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. O'langan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'chovga asoslanamiz. Mana shu o'chov tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi. Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek nutqning alohida bo'rnishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususiy me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi:

1. Dialektal me'yor.
2. So'zlashuv nutqi me'yori.
3. Argolar, jargonlar me'yori.
4. Adabiy til me'yori.

Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlari singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'limgan. Demak me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir. Til me'yorini belgilash muammojarini hal qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uзвиy qismiga aylanadi

Keltirilgan ikki omil asosida nutq madaniyati hodisasi ham bizningcha, ikki xil talqin qilinishi va nomlanishi lozim bo'ladi:

1. Til madaniyati.

2. Nutq madaniyati yoki so'zlashuv madaniyati.

Tilshunoslikda nutq madaniyati tushunchasini til madaniyati va so'zlash madaniyati tushunchasiga ajratish izchillikka ega emas. Umuman, bu ikki tushuncha, asosan, birga yoki qorishtirilgan holda nutq madaniyati yoki til madaniyati termini bilan yuritilmogda. Demak, bu holda til madaniyati termini nutq madaniyati terminiga ekvivalent bo'lib kelmoqda. Shu sababli ham, biz nutq madaniyati nomi bilan umumiy tarzda yuritilayotgan tushuncha (hodisa) dagi ikki holatni til madaniyati va nutq, ya'ni so'zlash madaniyatini farqlash tarafdomiz. Nutq madaniyati tushunchasi va termini keltirilgan ikki hodisa uchun umumiy tasavvur va umumiy nom tarzida tushunilishi mumkin. Ho'sh, til madaniyati tushunchasi nima? Til madaniyati tushunchasi nutq madaniyati sohasida til sistemasining o'zini, masalan, o'zbek adabiy tilining vosita va imkoniyatlarini, "madaniylashtirishni" ko'zda tutadi. Demak, til madaniyati termini bilan ataluvchi tushuncha til sistemasining madaniylik darajasini, ya'ni uning qanchalik ishlanganligi, normalanganligini ko'rsatadi".¹⁴

Ko'rindiki, garchi "til madaniyati" va "nutq madaniyati" tushunchalarini tilga oid atama sifatida bir-biridan farqlansa ham, aslida

¹⁴ R.Rasulov, N.Husanov, Q.Mo'ydinov "Nutq madaniyati" O'quv qo'llanma. T-2006

ularning birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydigan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan tushunchalardir. "Nutq madaniyati" aniq ma'noda til birliklarini nutq jarayonida qo'llashning me'yori, maqsadga muvosifligini anglatса ham, umumiy ma'noda ma'lum millatning umumtil doirasida qaraladi. To'g'ri, nutq til va tildan tashqaridagi (lingvistik va ekstralengvistik) omillarni o'z ichiga oladigan murakkab jarayon bo'lib, u mantiq, ruhshunoslik, pedagogika, etika, estetika masalalari bilan ham bog'liq. Ammo nutq uchun tilning birinchi darajada turishini hech kim inkor eta olmaydi. Ma'lum bo'ladiki, til birliklarini me'yorashtirish, hamma uchun umumiy va tushunarli bo'lgan bir qolipga keltirish umuman tilshunoslikning vazifasi sanalsa ham, u nutq madaniyati sohasining xizmatlarini inkor etmaydi. Binobarin, me'yor muammolari hamisha ushbu sohaning tadqiqot obyekti bo'lib qolaveradi. Nutq madaniyati tilda ma'lum me'yorda keltirilgan til birliklarining nutqda qo'llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me'yorga amal qilishni ma'lum ma'noda nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, kamchiliklarni tugatishning eng ma'qul yo'llari ko'rsatib turiladi. "Nutq madaniyati keng miqyosdagи til tarbiyasini va ommaviy stilistik savodlilikni, boshqacha aytganda, o'zlovchi va yozuvchi omma orasida til haqidagi fanning hozirgi zamon yutuqlarini tatbiq etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi". Til elementlarining me'yorlashishidek uzlusiz jarayonda eskilik bilan yangilik o'rtasida kurash hamisha davom etadi. Tilda yashab turgan o'z va iboralar ularning o'miga kelayotgan yangilariga osonlikcha o'mini bo'shatib bermaydi. Ma'lum muddat ular teng darajada, parallel qo'llanishi va vaqtlar o'tishi bilangina o'mini bo'shatib berishi mumkin. Ba'zan buning aksi ham kuzatiladi. Bunday birliklar orasida til tizimiga to'g'ri kelmaydigan, tasodifylari uchrab qolishi, omma o'tasida me'yorlashmasdan, adabiy til doirasining tashqarisida qolib ketishi ham mumkin. Shu tariqa amaldagi me'yor va yangilik o'rtasida doumij kurash davom etadi. "Biz yangi me'yorlarning grammatika va lug'atlarda qoidalashtirilishi (kodifikatsiya) va joylashish vaqtini qayd qilishimiz mumkin, — deb yozadi V.A. Iskovich.

Ammo eski me'yorning yangisini siqib chiqarishi uzoq va ko'p bosqichli jarayondir. Yangi birlik adabiy qo'llanishning tashqarisida Jonli so'zlashuvda, kasb-hunarga oid va kundalik maishiy nutqda paydo bo'lib, faqat asta-sekinlik bilangina adabiy tildan o'rinn oladi".

Huddi mana shu eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurash va bu kurashda tildagi me'yoriy ko'rinishlarning tanlana borishi jarayonida adabiy til shakllanib boradi. O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqgan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lган dialektlar va shevalardan, jargonlardan, oddiy so'zlashuv tilidan, umuman xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek millati uchun tushunarli bo'lган va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarini tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi.

Garchi umumxalq tilining hamma ko'rinishlarida, barcha til jamoalarida o'ziga xos tarzda amal qiladigan me'yorlar mavjud bo'lsa ham kodifikatsiyalashtirilgan, ya'ni ma'lum qoidalarga kiritilgan me'yorlar faqat adabiy tilga xos xususiyatdir. "Faqat adabiy tildagina, — deydi V.A. Iskovich, — qanday gapirish va qanday gapirmaslik; me'yoriy grammaticalarda, lug'atlarda, ma'lumotnomalarda qayd etilgan; maktablarda o'rganiladigan qoida va ko'rsatmalar amal qiladi".

Shuning uchun ham adabiy tilning umumxalq tilidan farq qiluvchi tomoni unda yagona me'yorning qat'iy amal qilishi hisoblanadi. Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarining, pedagoglar va matbuot hodimlarining, kino, teatr san'ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jurnalistlarimizning xizmatlari katta bo'ldi. Ularning samarali mehnatlari tufayli tilshunoslikning ko'pgina yo'naliislari bo'yicha qat'iy me'yorlar belgilandi, ona tilimiz rivojiga oid yangi qoidalari va qarorlar inobatga olingan holda til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namunaviy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko'pgina munozarali masalalar o'zining nazariy asosiga qo'yildi. Ammo adabiy til muntazam taraqqiyot va takomillashuv jarayonini boshidan kechirar ekan, bu jarayonni faqatgina so'z ustalarining xizmatlariga bog'lab qo'yish ham to'g'ri bo'lmaydi. Shu o'rinda A.I.Yefimovning "Agar adabiy til tarixan taraqqiy etgan, o'zaro hamkorlikda bo'lган va bo'lib kelayotgan uslublarning murakkab tizimi hisoblanar ekan, unda alohida bir kishining rolini ular orasidagi ma'lum bir uslubning ishlanushi doirasida e'tirof etish mumkin" degan fikrini esga olishimiz lozim. Olimning

ta'kullashicha, adabiy qayta ishslash (binobarin, me'yorlashtirish mualliflar) umumxalq tilining juda katta zahirasidan nisbatan yorqin, hayotiy va tipik nutqiy vositalarni tanlab olish va ijodiy boyitishdan iboratdir. So'z ustalari, ijodkorlar adabiy tilning boyishiga, undagi ifoda imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilsa, tanlangan ushbu til boyliklarining adabiy nutqda mustahkamlanishida jamiyatdagi yana bir tattu kuch—ziyolilar, ayniqsa, o'qituvchilar yordamga keladi. "Aynan bu məktab,—deydi T.A.Degtereva,— so'z ustalari tomonidan ko'proq umumiy, kamroq individual nutqiy vositalarni tilda mustahkamlaydi, ularni adabiy nutq me'yorlariga aylantiradi, avloddan-avlodga o'tishini ni'minlaydi. Bironta yozuvchi, bironta siyosiy va ilmiy asarlar muallifi, bironta notiqlik san'atining dahosi u yoki bu ma'noda nutqiy madhimiyat tayyorgarligining məktab bosqichini chetlab o'tgan emas".

Lil birliklarining adabiy shaklda me'yorlashuvida shoir va yozuvchilar ijodi namunalari ko'rinishidagi badiiy adabiyotning o'mi ham alohida. Ayni paytda, badiiy adabiyot tilidagi me'yorni belgilashning o'zi murakkab vazifa ekanligini ta'kidlash lozim. Chunki badiiy matnda ijodkor niyati, o'y-hayoliga bog'liq ravishda adabiy me'yor doirasidan tashqarida bo'lgan til shakllari ishlatalishi ham mumkin. Ammo gap shundaki, bu me'yordan tashqarida bo'lgan bolatlar badiiy-estetik jihatdan o'zini oqlaydigan, kitobxon tomonidan inshunarli va qabul qilinadigan bo'lishi lozim. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o'z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan, favqulorra original ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo'lda ular yangi so'z va iboralar yaratadilar. Yaratilgan birliklar o'sha matnning o'zida qolib ketaverishi, ommalashmasligi, adabiy tildan o'rın olmasligi, bir so'z bilan aytganda, tilda me'yorlashmasligi mumkin. Ularning me'yorlashishini sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi. Ammo bir narsa ravshanki, bu birliklar o'zi qo'llangan matnda badiiyat uchun, obrazli tasvir va ifoda uchun xizmat qiladi. Shunday ekan ularni, bir uslub doirasida me'yoriy deb hisoblashga mo'limiz bo'ladi. Adabiy asarlardan namunalar keltiramiz:

Shovillaydi tun bo'yи shamol.

Qaldirg'ochlar uchun larzakor

(A.Oripov. *Shovilladi tun.*)

Lekin, faqirga eng ulug' tuyulgan fazilatlari - Hazrat Mirning iste'dodshunosliklari-yu, zakovatparvarliklari edi (P.Qodirov. Yulduzli tunlar),

Ammo samo o'g'li yashinvor,
Tashlanmasdan ohuga yovqur,
Changalidan ketgandi mador,
Ko'zlarida so'ngan edi nur

(O. Matjon. Aks-sado)

kabi. Lekin badiiy adabiyot matnida ba'zan boshqa manzaraga ham duch kelib qolamiz. Olloyor Begaliyev "Yo'qolgan tabassum" hajviy hikoyasida (Sharq yulduzi, 1988) qo'llagan ayrim so'z va iboralarni til me'yori va mantiq me'yori nuqtai nazaridan qanday tushunish lozimligiga o'quvchi qiynaladi. Jumladan hikoyada shunday ibora va jumlalar bor: tabassumni tashlab kirmoq; tabassumini katta-kichik, qalin va yupqa, bo'yalgan va tabiiy, samimiylarini va g'arazli tabassumlarini tartibsiz qalashib yotgan kotibaning stoli ustiga tashlab ketmoq; tabassumlarini qabulxonada qoldirmoq; tabassumidan ayrilmоq; mo'jaz tabassum; tabassumini yechib-kiyib yurmoq; tabassumi bilan kirmoq; tabassumidan ayrilmay o'tirmoq; tabassumini uyiga tashlab kelmoq; tabassumini supurib, o'ranga tashlab kelmoq; tabassumlarini o'z joyiga qo'ndirmoq; o'z tabassumini olish uchun kotibaning stoliga engashmoq; tepkilangan tabassumini bukilib olmoq; tabassumining changini qoqmoq; tabassumini joyiga o'rnatmoq; elliqinchi razmer tabassum; yangi tabassum; barkashdek yuzidagi qovuning tilimini eslatuvchi tabassum; baxtsiz tabassum; kichkina tabassumni kattalashtirmoq; o'z tabassumiga tikilmoq; tabassumli kulishni o'rganmoq kabilar. Bu iboralar va jumlalardan tabassumning nima ekanligini bila olmay qolasan kishi. Hikoyani kulgili chiqarish maqsadida tasvirni bu qadar bachkanalashtirib yuborish asarni badiiyatdan ancha olislashtirib yuboradi. L.V.Sherba me'yordan chekinmagan yozuvchining bo'lmasligi, chekinilmasa asarning zerikarli bo'lishi mumkinligi haqida yozib, "insonda me'yorni his qilish xususiyati tarbiyalangan bo'lsa, u yaxshi yozuvchilardagi asosli chekinishlarni butun go'zalligi bilan his qila boshlaydi", deb ta'kidlagan edi. Tildagi birliklar va hodisalarning reallashuvi, mustahkamlashuvi hamda me'yorlashuvida yozuvning xizmati katta bo'lib kelayotganligi shubhasiz. Nafaqat tilning me'yorlashuvi, balki dunyo xalqlari taraqqiyotida ham yozuvning o'mini chetlab o'tib

bo'lmaydi. Zero, har bir xalq, millat sivilizatsiyasi u yaratgan yoki foydalangan yozuvga ham bog'liq. O'zbek davlatchiligining shakllanishi hamda xalqimizning dunyo fani va madaniyatida, binobarin, til va nutq madaniyatida tutgan o'mni, egallagan mavqeい huqida so'z yuritganda bu xalqning necha ming yillar davomida foydalanib kelgan oromiy, yunon, karoshta, sug'd, xorazm, kushon, etlatit, pahlaviy, suriya, hind, urxun (runik), uyg'ur, arab, lotin, rus (kirillitsa) yozuvlarini va yana lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tayotganligimizni eslash kifoya. Shunday ekan, o'zbek adabiy tilining shakllanishi, shubhasiz, o'zbek xalqi asrlar davomida foydalanib kelgan yozuv madaniyatining takomili hamdir. Til tukqiqotchilarining tasdiqlashicha, davlatchilik darajasida, ya'ni rasmiy muomalada tildan foydalanish uning me'yorlashuvini, binobarin, adabiy tilning shakllanuvini tezlashtirgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, qayerda davlatchilik taraqqiy etgan, mustahkamlangan va bu davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan va rivojlangan bo'lsa, shu yerda tilning me'yorlashuvi va madaniylashuvi ham tezroq amalga oshgan. Xuddi ana shu fikrni dunyo sivilizatsiyasiga o'zlarining munosib hissasini qo'shgan xalqlarning badiiy va ilmiy tafakkuri haqida aytish mumkin. Durhaqiqat, davlat olib borgan ijtimoiy siyosatning til rivoji va uning me'yorlashuviga ta'siri sezilarli bo'lishi mumkin. Buni Sobiq Ittifoq hududida yashovchi xalqlar tillariga bo'lgan munosabatdan ham anglusak bo'ladi. "Rus tili — ikkinchi ona tilimiz" degan sun'iy shior bu asrga yaqin vaqt mobaynida asta-sekinlik bilan tilimizga rus yoki u orqali boshqa tillardan so'z qabul qilish va ularning me'yorlashib borishini ta'minladi. Biz hech ikkilanmasdan, xuddi shunday bo'lishi kerakdek, absolyut, avangard, avantuura, avariya, avtobiografiya, avtonom, avtor, agitator, aggressiv, aggressor, aktiv, aktual, alfavit, olyans, amnistiya, anonim, arbitr, aristokrat, aristokratiya, arsenal, orxak, ataka, attestat, auditoriya, aforizm singari so'zlarni qo'llayverdik va ularni shunday qo'llashga ko'nikdik. Ularning tilimizda muqobillari yo'qmikan deb o'ylab ko'rmadik. To'g'risi, bunga imkon ham, umumiyoqimidan chetga chiqishning iloji ham yo'q edi. Loqaydigimiz esa bunga ko'maklashdi. Rus tilining tazyiqi tuchayib borgan sari, asta-sekinlik bilan, o'zimiz sezmagan holda o'z o'zlarimiz va ifoda usullarimizdan voz kecha boshladik.

Nutq- (arabcha) fikrni so‘z orqali ifodalash

Nazm- (arabcha) she’riy asar: she’riyat janri, she’r o‘lchovi

Madaniyat- (arabcha) ta’lim-tarbiyalik va zillilik

O‘qituvchi- birorta fandan dars beruvchi shaxs¹⁵

Mustahkamlash uchun savol va topsbiriqlar

1. Nutq deganda nimani tushundingiz?
2. Nutq madaniyati til tarbiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
3. Til madaniyati deganda nimani tushunasiz?
4. Nutq madaniyati degandachi?

¹⁵ R.Rasulov, N.Husanov, Q.Mo‘ydinov “Nutq madaniyati” O‘quv qo‘llanma. T-2006

4-MAVZU: FONETIKA

REJA:

1. Fonetika va fonologiya haqida umumiy ma'lumot
2. Tovush va fonema
3. Fonetik akustika
4. Nutq tovushlarining akustikasi

Tayanch tushunchalar: fonetika, tovush, fonema, tovush, akustika, fonologiya, tovush tembri, artikulyatsiya

Fikr gap orqali ifoda qilinadi. Gap, odatda so'zlardan tashkil topadi. Gap tarkibida so'zlar va shu so'zlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi Grammatik vositalar (qo'shimchalar, yordamchi so'zlar) ma'lum nutq tovushlari orqali shakllanadi. Masalan: *Biz ulug' ayyomni mana shu cho'lda kutib olyapmiz* (Y. Shamsharov). Bu gapni tuzishda *biz*, *ulug'*, *ayyom*, *mana*, *shu*, *cho'l*, *kutib*, *olmoq* so'zlari, ularning o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi *-ni* (tushum kelishigi qo'shimchasi), *-yop* (zamon ma'nosini ifodalovchi qo'shimcha), *-miz* (shaxs-son qo'shimchasi) qo'shimchalari qatnashgan; har bir so'z va qo'shimcha esa nutq tovushlari vositasida (masalan, *biz - b*, *i*, *z*; *ulug' - u*, *l*, *u*, *g'*; *-ni - n*, *i*; *-da - d*, *a* kabi) shakllandidi.

Ko'rindiki, nutq tovushlari so'z va gaplarni tuzishda moddiy baza hisoblanadi, chunki inson tili tovush tilidir.

Fonetika tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, unda nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, turlari, o'zgarishi, urg'u, bo'g'in, ohang kabilalar o'rGANILADI.

Fonetika grekcha *phone* so'zidan olingan bo'lib lug'aviy ma'nosi *tovush* demakdir.

Fonologiya so'zi tarjima qilinganda "tovush haqidagi ta'limot" dejan ma'noni bildiradi (*phone* – tovush, *logos* - ta'limot). Bu bo'limda tovushlarning so'z va morfemalar ma'nolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar fonetika bo'limida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada ta'bir joiz bo'lsa, tovushning ijtimoiy mohiyati o'rGANILADI.

Tovush va fonema

Tovush bilan fonemani o'zaro farqlash zarur. **Tovush** nutqning fonetik

jihatdan bo'linmaydigan eng kichik birligidir, u ma'no ifodalamaydi, lekin har qanday so'z tovushlar vositasida shakllanadi. Masalan, *a*, *d*, *m*, *o* tovushlarini ma'lum bir tartibda talaffuz qilish orqali *odam*, *omad*, *moda* singari boshqa-boshqa ma'nodagi so'zlar hosil qilinadi. So'zlar tovush tarkibiga ko'ra turlicha bo'ladidi:

1. Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlar: *ot* – *ol*, *ol* – *oq*, *oq* – *osh*, *osh* – *ov*, *ov* – *oz*, *oz* *on*, *on* – *or*, *or* – *os*, *os* – *och*, *och* – *og'*, *og'* – *ox*; *oz* – *iz*, *iz* – *uz*, *uz* – *ez*, *davlat* *savlat*.

2. Tovushlarning joylashish tartibiga ko'ra farq qiladigan so'zlar. Masalan: *qo'y* – *yo'q* (birinchi so'z tarkibidagi birinchi tovush ikkinchi so'zning oxirida *qo'llanadi*.)

3. Biror tovushning ortiqligi bilan farq qiladigan so'zlar: *o'ika* – *yo'ika*, *et-bet*, *sava* – *savat*, *tana* – *tashna*, *taxt* – *taxta*, *o'roq* – *so'roq* kabi. Demak, so'zlar tovushlardan tuziladi, ular bir, ikki, uch, to'rt va hokazo miqdordagi tovushlarning hosil bo'ladidi.

Fonema so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush turidir. Masalan: *bal* – *bel* – *bil* – *bol* – *bo'l* so'zлari tarkibidagi *a*, *e*, *i*, *o*, *o'* tovushlari so'z ma'nolarini belgilash (ajratish)ga xizmat qiluvchi fonemalardir: *bor*, *dor*, *zor*, *kor*, *nor*, *tor*, *xor*, *chor*, *qor* so'zлari tarkibidagi birinchi tovushlar (*b*, *d*, *z*, *k*, *n*, *t*, *x*, *ch*, *q*).

Fonemalarning uch belgisi bor:

1. Akustikasi (eshitilishi).
2. Artikulyatsiyasi (aytilishi yoki talaffuzi).
3. Ma'no farqlashi (ba'zi darsliklarda "lingvistik tomoni" deyildi).¹⁶ Bular ichida fonemaning ma'no ajratish belgisi muhim hisoblanadi.

Fonetik akustika nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini tekshiradigan sohadir. Akustik jihatdan har qanday tovush havo oqimining tebranishi va bu tebranishning qulqoqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari esa o'pkadan kelayotgan havo oqimining un paychalari tebranishidan hosil bo'ladigan ovoz va nutq organlarida hosil bo'ladigan shovqinning qulqoqqa eshitilishidir.

¹⁶ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 1992, 15-bet.

1. Nutq tovushlarining balandligi yoki pastligi ma'lum vaqt ichida un psychalarining tebranish miqdoriga ko'ra har xil chiqishidir: un psychalari ko'p tebransa, tovush baland bo'ladi, aksincha, un psychalari kam tebransa, tovush past chiqadi.

2. Nutq tovushlarining kuchi ma'lum kenglikdagi maydondan ma'lum vaqtida o'tadigan energiya miqdoridir. Bu haqda tilshunos olim H. Jamolxonov shunday yozadi: "Tovushning kuchi (intensivligi) - 1 m maydondan 1 sekundda o'tadigan energiya miqdoridir".¹⁷ Demak, nutq tovushlarining kuchi un psychalari tebranishi kengligiga bog'liq: tebranish kengligi katta bo'lsa, tovush kuchli chiqadi, bu kenglik kichik bo'lsa, tovush ham kuchsiz chiqadi.

3. Nutq tovushlarining tembri (sifati) – asosiy ton bilan hosil bo'ladi. Tovushlarning tembri og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'inining hujmi, shakliga, tovush psychalarida shovqinning qanday hosil bo'lishiga bog'liq.

4. Tovushning cho'ziqlik darajasi un psychalarining tebranishi davom etgan vaqt bilan o'chanadi. Tebranish uzoq davom etsa, tovush cho'ziq; tebranish qisqa davom etsa tovush qisqa bo'ladi.

Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan organlar **nutq a'zolarini** deb yuritiladi.

Artikulyatsiya deganda esa nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi faoliyati anglashiladi.

Nutq a'zolariga quyidagilar kiradi:

- 1. Nafas apparati:** o'pka, bronxlar (bir juft), nafas yo'li (traxeya).
- 2. Bo'g'iz bo'shlig'ida** halqasimon, piramidasimon, qalqonsimon (og'nalilar hamda un psychalari joylashgan).
- 3. Og'iz bo'shlig'ida** til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar joylashgan.
- 4. Burun bo'shlig'i.**
- 5. Markaziy nerv sistemasi.**

Nutq a'zolarining jami **nutq apparati** deyiladi. Endi har bir nutq a'zosining vazifasi xususida to'xtalib o'tamiz. O'pka inson organizmini kislorod bilan ta'minlovchi a'zo ekanligi hammaga

Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 25-bet.

ma'lum. Nutq a'zosi sifatida esa o'pka nutq tovushlarining hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan havo oqimini yetkazib beradi, ya'ni inson nafas olganida o'pka va undagi bronxlar havoga to'ladi va bu havo oqimi tashqariga qaytib chiqish jarayonida tovush hosil qiluvchilik vazifasini ham bajaradi. Havo oqimi **nafas** yo'li orqali **bo'g'izga** tomon harakatlanadi. Bo'g'izdagи **cho'michsimon**, **uzuksimon**, **shoxsimon**, **halqasimon**, **piramidasimon**, **qalqonsimon** tog'aylar un psychalarini ushlab turuvchi a'zolardir. Un psychalari esa ovoz manbai hisoblanadi, chunki ular dutor yoki soz torlariga o'xshab havo urilishi natijasida ovoz chiqaradi (simyog'ochga tortilgan simlarning shamol kelib urilishi natijasida chiyillab ovoz chiqarishini ko'z oldingizga keltiring). **Og'iz** bo'shlig'i tovushni kuchaytirib berishga yordam beradigan a'zodir. Til juda ko'p tovushlarni hosil qilishda ishtirok etadigan a'zodir. Tilning turlicha harakati va holati natijasida unli va undosh tovushlar hosil bo'ladi. **Kichik til** ham ayrim tovushlarning (*q*, *g'*, *x*) hosil bo'lishida qatnashadi. **Lablarning** keng ochilishi, **cho'chchayishi**, jipslashishi yoki pastki labning ustki tishlarga tegishi natijasida turli tovushlar hosil bo'ladi. Ayrim tovushlar havo oqimining **tishlar** orasidan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladi. **M**, **n**, **ng** tovushlari hosil bo'lishida havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'i orqali o'tib, tashqariga chiqadi. **Markaziy nerv sistemasi** nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi, bu harakatni bevosita boshqarib turadi. Ana shu tariqa har bir nutq a'zosining tovushlarni hosil qilishda o'z vazifikasi bor. So'z ma'nolarini ajratish, chegaralash uchun xizmat qiladigan vositalar **fonetik vositalar** sanaladi. Bunday vositalar qatoriga **nutq tovushlari**, **urg'u**, **ohang (ohang)** kiradi. So'z ma'nolarini farqlashga xizmat qiladigan fonemalar xususida yuqorida fikr yuritildi. Lug'at tarkibidagi barcha so'zlar, Grammatik shakllar ana shu fonemalarining ma'lum tartibda ketma-ket joylashishi orqali shakllanadi. Ayrim hollarda o'xshash bo'lgan (omonim) so'zlarning ma'no va grammatik shakllarini farqlashda **urg'u** (leksik urg'u) fonetik vosita bo'lishi mumkin. Masalan: **olma** (predmet, mevaning bir turi), **olma** (harakat, *olmoq* fe'lining bo'lishsiz shakli, -ma qo'shimchasini ajratish mumkin); akademik (predmet, ot), akademik (belgi, sifat); **gullar** (ot, "ko'p gul" ma'nosida), **gullar** (fe'l, "gullamoq"). Gapning maqsadga ko'ra turini ajratishda esa **ohang** (ohang) fonetik vosita bo'lishi mumkin. Masalan: **Dars boshlandi.** (*darak gap*) **Dars boshlandi?** (*so'roqgap*).

Fonetika – grekcha phone so‘zidan olingan bo‘lib lug‘aviy munosabi tovush demakdir.

Fonologiya – tovush haqidagi ta’limot.

Akustik – (eshitiish) jihatdan tovush biror jismning boshqa bir jismiga urushi tebranishi va bu tebranishining qulqoqla eshitilishidir.

Umumiy fonetika – nutq tovushlarining nazariy masalalari, ohang urg‘uning tabiatini, bo‘g‘in tuzilishi tilning tovush tomonining Grammatik tizimiga munosabati kabi masalalarini o‘rganiladi.

Xususiy fonetika – aniq bir tilni (masalan, o‘zbek tili) ning nutq tovushlari, urg‘usi bo‘g‘in tuzilishi, ohang tomoni kabi masalalar o‘rganiladi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Fonetika nimani o‘rganadi?
2. Tovush va fonemaning farqini aytинг.
3. Fonologiya haqida nimalarni bilasiz?
4. Fonema qanday belgilarga ega?
5. Fonetik akustika haqida qanday ma'lumotga egasiz?

5-MAVZU: O'ZBEK ADABIY TILI ME'YORLARI

REJA:

1. O'zbek adabiy tili tarixidan
2. Nutq haqida olimlarning qarashlari
3. Adabiy tilning so'zlashuv nutqidagi farqi

Tayanch tushunchalar: adabiy til, nutq, grammatick takror, badiiy takror

Hozirgi zamon o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatick, orfoepik hamda orfografik, imloviy normalarining nisbatan mukammal shakllanganligi o'zbek tili madaniyatining ulkan yutug' idir.

Hech shubhasiz aytish mumkinki, o'zbek tili eng boy, eng taraqqiy etgan tillardan biri bo'lib, o'z shakillanish, rivojlanish tarixiga ega.

O'zbek adabiy tili olimlar, ziyorolar, adiblarning, og'zaki va yozma adabiyotning asosiy ijodkorlari bo'lgan xalqimizning asrlar osha mashaqqatli mehnati, tilga sayqal berishi, uni chuqur o'rghanish iborasidagi xizmatlari evaziga turkiy tillar oilasida o'ziga xos mavqega ega bo'ldi. Bu tilda juda ko'p o'lmas badiiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu ham o'zbek tilining madaniy tillar qatoridan o'rinishini ta'minlaydi.

Qadimdan ma'lumki, til eng muhim aloqa-aratashuv, fikr almashuv qurolidir. Bu qurol qator boshqa vazifalarni ham bajaradi: u yoki bu xalq tarixi yoki umuman voqelik haqida xabar beradi, ularni avloddan-avlodga yetkazadi, kishilar ongiga ta'sir etadi, estetik zavq bag'ishlaydi. Shuningdek, u bilim berish yoki bilim olish quroli hamdir.

Ana shunday qator vazifalarni bajaruvchi hamda funksional imkoniyati yanada ortib borayotgan bu qurolning - o'zbek adabiy tilining ishlatalishi, uning qay darajada sayqal topganligi, o'tkirligi, muayyan vazifani bajarishga xoslanganligi, tuzilishi, mohiyati bilan shaklining mutanosibligi, go'zal va ixchamliligi kabilar uning qudratli, madaniy qurol ekanligini ko'rsatadi. Qurolni yaratish va

umga mayqal berish esa shu tilga mansub bo'lgan xalq vakillarining, qayoldar, adiblar, shu qurolni ishlatishga ehtiyoji bor bo'lgan barcha bi'lular va, nihoyat, shu ish bilan maxsus shug'ullanuvchi mutosassislarning ishidir.

Navoiy aytganidek: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidin...».

Durhaqiqat, nutq - bu til deb atalmish noyob quroldan foydalanish jarayoni. Demak nutqiy jarayon-tilning o'z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma'lum ma'noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir.

«Qobusnom» da Kaykovus hamma hunarlar ichida so'z hunari – notiqligini a'llo deb bilgan: «Bilgil kim, hamma hunardan so'z hunari yashishi». ¹⁹

Nutq xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin, go'zal yoki quruq-qo'pol bo'lishi mumkin.

O'tkir teshani qo'lliga olgan usta u bilan ajoyib bir quticha yasashi mumkin. Shu teshani qo'lga olgan chala bir havaskor usta bir zumda qo'sini chopishi yoki yaxshi narsani ishdan chiqarishi mumkin.

Adabiyotshunos olim Izzat Sulton «Adabiy asarning mazmuni, undagi g'oyaning oliyanobligi, tasvir qilingan odamlar va hechidarning go'zalligi yoki hunukligi hammasi o'quvchiga asarning qo'shiyatuning eng yorqin alomatidir», - degan eng avvalo, til quroldan foydalanish mahorati haqida fikr yuritilgan.

Demak, hamma uchun baravar xizmat qiladigan til-aloqa-sida huv quroli vositasida go'zal, yaxshi, namunali nutq tuzish ham, qo'pol, yoqimsiz, nojo'ya, tuturuqsiz, quruq nutq tuzish ham mumkin. Hulaming birinchisi madaniy nutq, ikkinchisi esa nomadaniy, «simuk» nutqdir.

Tilshunos S.I.Ojegov yaxshi nutq haqida gapirar ekan, «Yuqori darajadagi nutq, yuqori nutq madaniyat -bu o'z fikrini til vositalari orqali to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib ifodalay bilish qobiliyatidir», - deydi.

Bunday qobiliyatga o'z ona tilini chuqr sevish va hurmat qilish, uni mukammal bilish orqali erishiladi. Shuning uchun ham har bir

Mishet Navoiy. "Mahbub ul-qulub", T.1983. 72-bet
"Qobusnom" T. 1968. 29-bet

kishining madaniylik darajasi, o'qib qanchalik tarbiya ko'rganligi uning yozma va og'zaki nutqidan bilinadi, nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz notiqdangina emas, balki har bir jamiyat a'zosidan talab qilinadi.

Tilda so'z miqdori qancha ko'p bo'lsa, o'sha tilni boy til deb talqin qilish keng tarqalgan. Bu fikr ma'lum ma'nodagina to'g'ridir. Chunki tildagi so'z miqdori til lboyligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lsa ham, til boyligi shu bilangina cheklanmaydi. Bu o'rinda, albatta, o'zbek tilining sinonimlarga, frazeologizmlarga, parafrazalarga nihoyatda boy ekanligi, ular ma'nolarining, shuningdek, umuman o'zbek tilidagi so'zlarning ko'p ma'noliligi nihoyatda yuqori darajada ekanligi hisobga otinadi.

Shunday bo'lsa-da, ana shular bilan bir qatorda, u yoki bu tilni boy til deb belgilaganda, shu tilning turli-tuman ifoda vositalariga egaligini ko'zda tutamiz. O'zbek tilida so'zdagi unli tovushni cho'zish yoki undosh tovushni ikkilantirish **geminatsiya** hodisasi ham ifoda vositasi hisoblanadi: To'yga mashhur xonanda kelgan shekilli, odam!; Mazam yo'qroq, ertaga ishga borolmayman; Mazza qilib dam oling, yaxshilab sog'ayib keting, keyin gaplashamiz. Bu misollardagi «odam» so'zi alohida urg'u bilan aytildi, shuningdek, so'zdagi o tovushi ba'zan esa, keying bo'g'indagi a tovushi cho'zib talaffuz qilinadi.

Ana shu cho'ziqlik, kuchli ohang bilan aytish alohida ma'no kasb etadi, ya'ni ushbu tarzda aytiganda, ayni so'zdan odamning ko'pligi, tasirchanlik, his-hayajon kabilar ifodalananadi. Keyingi gapdag'i «mazza» so'zida «z» undoshining ikkilantirilishi ham ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

O'zbek tili ana shunday imkoniyatlarga nihoyatda boydir. O'zbek tilida takrorning ikkituri mavjud:

- a) Grammatik takror;
- b) Badiiy takror.

Takrorning birinchi turi grammatik takrorda ma'no odatda ko'plik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi: mashina-mashina qovun tushirdik; qop-qop un yopishadi; gapirib-gapirib uxbab qoldi; yugurib-yugurib charchadi; yaxshi-yaxshi gapiring kabi.

O'zbek tilida so'zlar tarkibidagi turli xil tovush o'zgarishlari, masalan: qora-qaro, ora-aro, ko'ngil-kangul...; oshino-oshno, oshiyon-

o'liyon, sen bilan-senila-senla, ustiga-ustina, bog'in-bog'ini, ko'ksin-ko'ksini kubilar ham o'ziga xos vositalardir.

Hozirgi o'zbek tilida 30 ga yaqin ko'makchi fe'llar mavjud bo'lib, bu ko'makchi fe'llar yetakchi fe'l bilan ravishdosh bo'lib, lechlar -b, -(ib) orqali bog'lanib keladi va turli xil nozik ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi: ketdi-ketib qoldi; yozdi-yozib tushladi; tashlab ketdi-tashlab ketib qoldi; qochdi-qochibqoldi; usulshu-shu usulshib berdi; qo'lladi-qo'llab yubordi; kuldikulib qo'ydi kabi.

O'zbek tilida bulardan tashqari alohida badiiy tasvir ko'rinishlari, o'sitalari ham bo'lib, ularga metafora, metonimiya, sinekdoxa, so'lash, o'xshatish, kesatish (ironiya), istehzo (sarkazm), mubolag'a, fuchnuytirish, jonlantirish, zidlash (tazod), zinapoyalash, ketma-ket keltirish, ritorik so'roq, bog'lovchisizlik yoki ko'p bog'lovchilik; usulshib qoldirish (ellipsis), badiiy takror, badiiy o'rinn almashtirish (inversiya) kubilar kiradi.²⁰

O'zbek tilida hozirgi kun nuqtai nazaridan eskirgan tarixiy deb bo'libolamiyotgan so'zlar va turli xil grammatik ko'rsatkichlar ham bo'ki, ular ham tasviriy vosita vazifasini o'taydi. Masalan: ulus, Erom, kishvar, kushod, kulba, kutvol, mavlono, majnunvor, may'lant, mahvash kabi so'zlar va -ur(-ar), -mak(-moq), -din(-dan), -lay (-u-di) kabi vositalar.

Ko'rniib turibdiki, o'zbek tilidagi har bir til birligi, jumladan, novushlar, qo'shimchalar, so'zlar va iboralar, gaplar ko'rinishlari bo'libolarning ichki imkoniyatlari rang-barangdir. Til birliklaridagi ana bu imkoniyatlarning ko'pligi va rang- barangligi ifoda vositalarining moli-tumanligi tilning boyligini belgilaydi. O'zbek tili ana shunday imkoniyatlarga boy tildir. Bu imkoniyatlар shu xalq vakillarining hammasiga barobar xizmat qiladi. Biroq, shunga qaramay, ayrimlarning nutqlari boy, ayrimlarning nutqlari esa kambag'al, qurug', ta'sirsiz, ya'ni qashshoq bo'lishi mumkin. Til boyliklaridan bahimmund bo'lgan holda, undan nutq jarayonida mohirlik bilan bo'libolishi ham kerak. Shundagina til boyliklari, tilning barcha imkoniyatlari nutqda o'z ifodasini topadi, o'z imkoniyatlarini namoyish etadi.

20 Tojiev, N.Hasanova, H.Tojmatov, O.Yo'ldosheva "O'zbek nutqi imkoniyatlari va uslubiyat asoslari". T-1994

Me'vor- jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, maqullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Vulgarizm-bu qo'pol, dag'al yoki uyat so'zlardir. Vulgarizmlar tilda mavjud bo'lgan so'kish va qarg'ish so'zlardir: haromi, qiztalooq, yer yutkur, oqpadar va boshqalar.

Varvarizmlar-(yun. barbaros — aynan ajnabi) — ma'lum bir tilga chet tillardan kirib kelgan, tilda to'la o'zlashmay, yotligi bilinib turadigan so'z va iboralar. V. asosan so'zlashuv uslubiga xos, tilning adabiy me'yорini buzadi va uning asosiy lug'at tarkibiga kirmaydi. Varvarizmdan ba'zan badiiy adabiyotda mahalliy muhitni berish, obrazlarni xoslashtirishda foydalaniлади.

Jargon-(frans. jargon. — safsata) — biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos leksikasi, fonetikasi va grammatikasi bilan umum so'zlashuv tili va mahalliy dialektlardan farq qiladigan tili.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Adabiy til deb nimaga aytildi?
2. Adabiy tilning so'zlashuv nutqidan qanday farqi bor?
3. Tilning boyligi nimada namoyon bo'ladi?
4. Tarixiy so'zlar deb qandan so'zlarga aytildi?

6-MAVZU: GRAFIKA VA ORFOGRAFIYA

REJA:

1. Grafika haqida umumiy ma'lumot
2. Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalar
3. Orfografiya (imlo)

Tuyunneh tushunchalar: grafika, yozuv, imlo, grammatik takror, baduy takror,

Tilshunoslik lug'atlarida grafika tushunchasiga ikki xil ta'rif berildi:

1. Nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan ilzimi.

2. Tilshunoslikning alifbodagi harflar tarkibini, shaklini, harf va nutq tovushlari orasidagi munosabatni belgilash bilan shug'ullanuvchi umaloti sohasi".²¹

Grafika grekcha *grafikos* so'zidan olingan bo'lib, *yozuv* degan ma'nomi bildiradi. Grafika og'zaki nutqni turli shakllar, belgililar, oqamilar va chiziqlar yordamida aks ettiruvchi tilshunoslik sohasi bu obidaladi. Grafik vositalarga harflar, belgililar va tinish belgilari kiradi. Harf – tovush ifoda etuvchi shakl.

Til va yozuv

Til va yozuv o'zaro uzviy bog'liq va aloqador hodisadir. Til jamiyat bilan bir vaqtida yuzaga kelgan. U jamiyatning bo'lishida muhim omillardan biridir. Tilsiz jamiyat bo'lmaydi. Yozuv – jamiyatning madaniy yutuqlaridan biri. U jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida hayotiy zarurat natijasi sifatida yuzaga keldi, yaratildi.

Yozuv ham til kabi jamiyat a'zolarining aloqa-aratashuvida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ko'p hollarda yozuv tilning o'mini beradi. Lekin til va yozuvning o'ziga xos ahamiyatli tomonlari bor. Yozuv fikri yetkazishda masofa jihatidan chegara bilmaydi. Til esa

A. Hophiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston Milliy Enciklopediyusi" davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 33-bet.

vaqt va makon jihatdan chegaralangan. U yaqin masofada turgan suhbatdoshiga eshitiladi. Yozuv madaniy, ma'rifiy va adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga meros sifatida qoldirish imkoniyatiga ega. Og'zaki nutq esa aytيلayotgan paytdagina qabul qilinadi. Biroq yozuv maxsus yozuv qurollari, sharoit, vaqt va shartli belgi shakllarni talab etadi. U tilni barcha nozikliklari bilan aks ettira olmaydi. Shunga qaramay, jamiyatda yozuvning o'z o'mni bor yozuv masofa bilan ajralgan odamlar orasida aloqa munosabatini ta'minlashda, barcha uchun tushunarli bo'lgan adabiy tilning yuzaga kelishida, madaniy-adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga yetkazishda katta imkoniyatlarga ega.

Tarixchilarining aniqlashicha, yozuv dastlab Messopotamiya degan joyda paydo bo'lgan va bu yozuv tarixga **mixxat** nomi bilan kirgan. Bu xat eramizdan oldingi V-IV asrlarda O'rta Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida ishlataligancha. Hozirgi eramizdan boshlab taxminan VI asrgacha **so'g'd** yozushi ishlataligancha. V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar **runik** yozuvidan foydalanishgan. Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari dastlab Janubiy Sibirning Enasoy daryosi havzalarida va Mo'g'ulistonning O'rxun vodiysida topilgan. Shunga nisbatan qadimgi turkiy yozuv O'rxun-Enasoy obidalarining yozushi deb ham yuritiladi. 1893-yili daniyalik olim N.Tomsen va rus olimi V. V. Radlov qadimgi turkiy yozuvni o'qishga muvaffaq bo'ldilar. O'rxun-enasoy yozuvlari Rim yozuvlariga o'xshab ketganligi uchun **run** (**runik**) yozuvlari yoki **dulbarchin** deb ham yuritiladi.

O'rta Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi mahalliy xalqi sak va massaget urug'lari bo'lib, ularning ham o'z yozuvlari mavjud edi. Ana shu yozuvdan qadimiy **xorazmiy** va **so'g'd** yozuvlari yaratilgan. **Xorazmiy** yozushi ham o'zbek xalqi ajdodlari tomonidan qo'llanilgan yozuv bo'lib, bu yozuv II asrning oxiri III asrning boshlarida xorazmshoh chiqargan pullarda uchraydi. 1970-yillargacha turkiy yozuv eramizning VI-VII asrlarida shakllangan degan fikr yetakchi edi. Keyingi topilmalar turkiy yozuvning ildizlarini ikki yarim ming yillik o'tmishtadan izlamoq kerak, degan xulosani chiqarishga asos bo'ldi. 1988-yilda Andijon viloyatinining Marhamat tumanidagi Lo'mbitepa yodgorligidan ko'za topildi.

VI-VII asrlardan to XV asrlargacha turkiylar va mo'g'ullar uyg'ur yozuvidan foydalanishgan. Bu yozuvda bitilgan yodgorliklarning eng qadimgisi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Vena

botubxonmisidagi nusxasidir. Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul-haqoyiq” (Haqiqillar armug‘oni”), Xorazmiyning “Muhabbatnama”, Lutfiy va Bo‘lib shoirlarning ayrim she’rlari **uyg‘ur** yozuvida yozilgan. Uyg‘ur yozuvni X-XV asrlarda mavjud bo‘lib, arab yozuvni bilan ma’lum qayernachu baravar ishlatalgan. 720-yildan boshlab **arab** yozuvini tarqala boshlab. Arab yozuvida bitilgan eng qadimgi turkiy yodgorliklar XI asrda imluqlidir. Bular Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” nomining Namangan va Qohira nusxalaridir. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” nomli asari ham arab yozuvida yozilgan. Shohlarimiz taxminan 1200 yildan ko‘proq vaqt davomida arab alifbosidan foydalangan. 1929-yildan **lotin** alifbosi asosidagi yangi yozuvga o’tilgan edi. 1940- yildan boshlab esa **rus (kirill)** grafikasi bo‘ndagi yangi o‘zbek alifbosiga o’tildi.

Buning davrimizda jahondagi xalqlar 220 xil yozuvdan foydalindilar. Shu yozuvlardan juda keng tarqalgani **lotin** yozuvini bo‘lib jinbon xalqlarining 30 foizidan ziyodi shu yozuvni qo’llaydilar. 1991-yil 2-3 sentyabrda bo‘lib o’tgan Oliy Kengash yig‘ilishida o‘zbek yozuvini lotin alifbosiga o’tkazish to‘g‘risida qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-maydaggi Oliy Majlis sessiyasida bu alifboga ayrim o‘sorishilar kiritildi va bu yozuviga to‘liq o‘tish muddati 2005-yil sentabr oyi deb belgilandi. 2004-yilda chiqarilgan qonunga ko‘ra esa lotin yozuviga to‘liq o‘tish muddati 2010-yil sentabriga qadar bo‘libdi. Isloh qilingan yangi o‘zbek alifbosida 29 ta harf bor. Shohardon 3 tasi harfiy birikma: sh, ch, ng:

Aa(1) Bb(2) Dd(3) Ee(4) Ff(5) Gg(6) Hh(7) Ii(8) Jj(9) Kk(10)
Ll(11) Mm(12) Nn(13) Oo(14) Pp(15) Qq(16) Rr(17) Ss(18) Tt(19)
Uu(20) Vv(21) Xx(22) Yy(23) Zz(24) O‘o‘ (25) G‘g‘ (26) Sh sh(27)
Ch ch(28) Ngng(29).

Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalar

1996-yildan boshlab lotin alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvini joriy etadi. Bu alifboda 29 ta shakl bo‘lib, ular 30 ta tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Hozirgi o‘zbek yozuvidagi undosh harflar bir tovushni ifoda etadi.
(*J* harfi bundan mustasno).

Bundan tovushni ifodalash uchun **Jj** ishlataladi:

- 1) qorishiq, portlovchi **j** (**d+j**) tovushini (*jo 'ja, jayron, avj* kabi)
- 2) sirg'aluvcchi **j** tovushini (*jurnal, jirafa*) bildiradi.

Mazkur yozuvda uchta harf birikmasi mavjud: *ng, sh, ch*. Ular so'z tarkibida ajratilmaydi va bo'linmas bir tovushni ifoda etadi: *ng* sayoz til orqa, portlovchi, sirg'aluvcchi, sonor undosh tovushini (*tong, ohang, chang, manglay*), *ch* til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovushni (*charos, tinch, sinch, choynak*), *sh*til oldi, sirg'aluvcchi, jarangsiz undoshni (*shabada, shar, shahar, toshqin, bosh*) ifodalaydi.

Tovushlar ikki turga bo'linadi:

1) unli tovushlar

2) undosh tovushlar

Ular unli va undosh harflar bilan belgilanadi. Hozirgi o'zbek alifbosida 6 unli tovush va 6 ta unli harf bor (*a, o, u, i, o', e*). 24 ta undosh tovush 23 ta undosh harf bilan belgilab ko'rsatiladi (*b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, r, s, t, v, x, y, z, sh, ch, ng*). Har bir harfning bosh va kichik, bosma va yozma shakkiali bor. Harflarning alifbo taritibini bilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki turli lug'atlar, davlat idora organlarida, arxivlarda saqlanadigan hujjatlar, ro'yxatlar alifbo tartibida tuziladi. Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilar: (.) (,) (?) (!) (:) (;) (...) («») (-) (‘) ham qo'llanadi.

Urg'u (‘) belgisi so'z bo'g'inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilish uchun unli harf ustiga qo'yiladi. Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilarning ham roli katta. Tinish belgilari yordamida fikr yozuvda aniq, ravshan va tushunarli qilib beriladi. Og'zaki nutqning fikrini to'liq ifodalash uchun xizmat qiladigan ohang va pauzalari yozuvda tinish belgilari orqali ifoda etiladi. Tutuq belgisi (‘) ham grafik vositalardan biri sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) so'zda unli tovushdan keyin kelib, uning cho'ziq aytishini (*a 'lo, e 'tibor, iste 'mol*);
- 2) so'zda undoshdan keyin kelib, oldingi bo'g'in bilan keyingi bo'g'inning ajratib aytishini bildiradi;
- 3) so'z ma'nolarini farqlab beradi (*ta 'na — malomat, tana — organism*);
- 4) s va h tovushlarini sh tovushidan farqlaydi: *Is 'hoq.*

Orfografiya (imlo)

Orfografiya grekcha **orphos** (to'g'ri) va **grapho** (yozaman) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, «to'g'ri yozaman» degan ma'noni bildiradi. Jamiyatning har bir a'zosidan to'g'ri so'zlay olish va savodli yozma bilish talab etiladi. O'quv muassasalari oldida turgan asosiy vazifu ham shu talab asosida kelib chiqadi. Adabiy tilning ikki shakli bo'lib, ularidan biri yozma nutqdir. Bu nutq orfografiya qonun-qoidalariiga asoslanadi. Demak, **orfografiya** adabiy tilning yozma shakligi xos bo'lib, u tildagi o'zak-negiz va qo'shimchalarni yagona urda to'g'ri yozish haqidagi qoidalari yig'indisidir. Kirill grafikasi uchidagi imlo qoidalari 1956-yilda tasdiqlangan. Bu imlo qoidalari quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olgan:

Oldingi imlo qoidalari bilan hozirgi imlo qoidalari o'rtasida quyidagi ayrim o'zgarishlar mavjud:

1) juft so'zlar orasida bog'lovchi bo'lib kelgan yuklamalar o'zi bog'langan so'zdan chiziqcha bilan ajratiladi: *do'st-u dushman, kecha-i u kunduz*;

2) yil, oyni ko'rsatuvchi raqamlardan keyin ham chiziqcha qo'yiladi: *1995-yil 24-avgust*;

3) kirilchadagi ү harfi so'z boshida va oxirida s harfi bilan beriladi: түрк—*sirk*, абзац—*abzas*. So'z o'rtasida unlidan keyin ts harfiy lori'masi, undoshdan keyin esa s harfi bilan beriladi: лицей—*litsey*, акционер—*aksiya*.

4) -ga qo'shimchasi g' tovushi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda morfologik yozuv bo'yicha asliga muvofiq yoziladi: *bog' + ga = bog'ga, tog'+ga=tog'ga*.

5) oldin shakliy yozuv qoidasiga muvofiq yozib kelingan juda ko'p cheq tili so'zlarini endilikda fonetik yozuv bo'yicha yoziladigan bo'ldi (bu o'zgarish asosan tarkibida ё, ю, я harflari qatnashgan so'zlarga tegishlidir): *sentabr* (сентябрь), *oktabr* (октябрь), *budjet* (бюджет), режиссер—*reziss'er*, *likor* (ликёр).

6) ayrim so'zlar esa oldin fonetik yozuv bo'yicha yozilgan bo'lsa, yangi tilboda morfologik yozuvga ko'ra yoziladigan bo'ldi: *ertalabki* emas *ertalabgi*. Imlo qoidalari orfografiyaning fonetik, morfologik, shakliy, an'anaviy va differensiatsiya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan.

Grafika – grekcha grafikos so'zidan olingen bo'lib , yozuv degan ma'noni bildiradi.

Harf – tovushning yozuvdagagi ifodasidir .

Unli tovush – og'iz va bo'g'iz bo'shlig'idan chiqayotganda hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladi , tarkibi ovozdan iborat tovushlar.

Fonetik tamoyil – bu tamoyilda so'zlar , so'z tarkibidagi qo'shimchalar qanday talaffuz qilinsa , shunday yoziladi .

Morfologik tamoyil – bu tamoyilga ko'ra so'zlarning tarkibiy qismlari : o'zak – negiz va qo'shimchalar qanday talaffuz etilishidan qat 'iy nazar aslidek yoziladi .

Shakliy an'anaviy tamoyil – unga ko'ra boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar hozir ham o'tmishdagi shakliga muvofiq yoziladi .

Differensiya tamoyili – bu tamoyilga ko'ra , shakli yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar yozuvda turli shartli belgilar bilan farqlanadi .

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Grafika haqida umumiylar ma'lumot bering
2. Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalarga nimalar kiradi?
3. Orfografiya deganda nimani tushundingiz?
4. Adabiy til deb nimaga aytildi?
5. Adabiy tilning so'zlashuv nutqidan qanday farqi bor?
6. Tilning boyligi nimada namoyon bo'ladi?
7. Tarixiy so'zlar deb qandan so'zlarga aytildi?

7-MAVZU: LEKSIKOLOGIYA

REJIA:

- 1 Leksikologiya haqida umumiylar ma'lumot
- 2 So'zning leksik va grammatik ma'nolari
- 3 Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar
- 4 O'zbek tilining lug'at tarkibi

Tayanch tushunchalar: leksika, grammatica, bir ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, lug'at

Leksikologiya²³ o'zbek tili kursining lug'at tarkibi (leksikasi)ni o'rjanadigan bo'limidir. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va so'zlar yig'indisi **leksika** deyiladi. Bu so'zlar shu tilning lug'at bo'libini tashkil etadi. Leksikologiya tilning lug'at tarkibini ikki tomonlarga: 1) **ichki** va 2) **tashqi** tomonidan tekshiradi. Tilning lug'at tarkibini ichki tomonidan o'rjanadigan sohasi **semasiologiya**²⁴ deb yuritiladi. Unda so'z va iboralarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati o'rjaniildi. Har qanday so'z tilda paydo bo'lishi bilan o'zining shakli va ma'nosiga ega bo'ladi, borliqdag'i predmet, hodisa, belgi, borjalarni ifodalaydi. So'zdagi ma'no turli ta'sir va talablar asosida tanqiqiy etib boradi. Demak, semasiologiya so'z hamda turg'un iboralarning ma'no xususiyatlarini tekshiradi. Leksikologiyaning yana bir sohasi **etimologiya**²⁵ deb yuritiladi. U tilning lug'at tarkibidagi so'z va iboralarning tarixan kelib chiqishini, yasama so'zlarining va boshqa illardan kirgan so'zlarining ma'noli qismlarini izohlaydi. Demak, etimologiya so'zning ikki tomonini ham, ya'ni ichki – ma'no tomonini bunda tashqi – tovush tomonini ham tahlil qiladi. Leksikologiya tashqi tomonidan lug'at tarkibining hozirgi ahvolini, tilning lug'at tarkibida

Leksikologiya – grekcha – *lexikos* – «lug'atga (so'zga) oid», *logos* – «ta'lifot», «fikr» elementlaridan tuzilgan.

Semasiologiya – grekcha *semasio* – «belgi», «tamg'a» va *logos* – «ta'lifot» ma'nolarini bildiradi.

Etimologiyu – grekcha *etymon* – «haqiqat», *logos* – «ta'minot» ma'nolarini ifodalaydi.

sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarni: so'zlarning qo'llanish darajasini, ba'zi so'zlarning eskirib iste'moldan chiqib ketishini (*sekretar, oblastkabi*), fan, madaniyat va texnikaning uzlusiz rivojlanishi bilan tilning yangi so'zlar hisobiga boyishini, ba'zi so'zlar ma'nosida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni (ma'no ko'chish hodisasini) o'rghanadi. Leksikologiyaning yana bir sohasi **leksikografiya**²⁶ deb yuritiladi.

Leksikografiyaning vazifasi tildagi so'zлами yozma ravishda to'plashdir. Leksikografiya so'z va iboralarни ma'lum bir sohalar bo'yicha to'plab, muayyan tartibda keltiradi (alifbo tartibiga soladi) va lug'at kitoblari shaklida nashr etadi. Leksikologiya tilning fonetika va grammatika bo'limlari bilan bevosita bog'liq. Fonetika nutq tovushlarini o'rghanadi. Leksika shu tovushlar asosida shakllanadigan so'zni, grammatika o'z qonun-qoidalari asosida so'zлами o'zaro bog'laydi va tilni fikr ifodalash uchun tayyorlaydi. Demak, tovush bo'lmasa, so'z bo'lmaydi, so'z bo'lmasa grammatikaning ham bo'lishi mumkin emas. Ma'lumki, so'zlovchi tilning lug'at tarkibidan maqsadiga muvofiq tarzda foydalanadi. Bu leksikologiyaning uslubiyat bilan o'zaro bog'liq ekanini bildiradi. Lug'at tarkibi shu tilda so'zlashuvchi xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyat tarixi bilan bog'liq. Shuning uchun leksikologiya tarix, arxeologiya, adabiyot, falsafa kabi ijtimoiy fanlar bilan ham yaqindan aloqadadir.

So'zning leksik va grammatik ma'nolari

So'z nutq tovushlarining muayyan tartibda birikishidan hosil bo'lib, ma'no anglatuvchi til birligidir. So'zning tovush tomoni fonetikada, grammatik tomoni grammatikada, ma'no tomoni leksikologiyada o'rghaniladi. So'zning barcha tomonlari nazarda tutilsa, u til va nutqning eng muhim elementlaridan biri ekanligi anglashiladi. So'z til birligi sifatida ma'no ifodalash xususiyatiga ega. So'zning ma'nosi narsa-hodisalar bilan bog'lanishidan kelib chiqadi, bu bevosita bog'lanish bo'lmay, borliqning inson ongida aks etishi orqali yuzaga keladi. Insonning borliqni anglashi, ongida aks ettirishi so'z ma'nosida o'z aksini topadi. Borliqni bilish narsa-hodisa haqida tushunchaga ega bo'lishdir. Tushunchada so'zning umumiylari va muhim belgilari mujassamlashadi. Bu belgililar uni boshqa predmetlardan ajratib

²⁶ Leksikografiya – grekcha *lexikos* – «lug'at» va *grapho* – «yozaman» degan ma'noni bildiradi.

taradi. Inson ma'lum bir predmet, belgi, harakat, holat kabilarning umumiyligi va o'ziga xos muhim xususiyati asosida ularni boshqa shu kabi predmet, belgi, harakatlardan ajratadi. Demak, so'z tushunchaning nomi, tushunchaga ega so'z ma'nosining asosini tashkil etadi. So'z asosida yotgan tushuncha so'zning leksik ma'nosini sanaladi. Demak, so'zning leksik ma'nosini uning material ma'nosini bo'lib, so'z ifoda etgan uniq bit predmet belgi, harakat, miqdor kabilardan iborat bo'ladi: *anor*, *chirchiq* – predmet tushunchasini, *ekdi* – harakat, *qizil* – belgi, *o'nta*, *ko'p* – miqdorga ko'ra belgi, *men*, *sen* – shaxs tushunchasini ifodalaydi. Demak, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish so'z turkumlari lug'aviy ma'no bildiradi. So'zlarining lug'aviy ma'nodan tashqari, grammatik ma'nolarga ham ega bo'ladi. So'zning lug'aviy ma'nosini lexicologiyada o'rjaniladi. Grammatik ma'no grammatikada o'rjaniladi. Yordamchi so'z turkumlari lug'aviy ma'no ifodalamaydi, ular grammatick ma'no ifodalashga xizmat qiladi. So'z lug'aviy ma'no tushunchadan tashqari, insonning narsa va hodisaga bo'lgan ijobjiy yoki salbiy munosabatini ham bildiradi. Insonning ijobjiy va salbiy munosabati so'z hissiy-ta'siriyl bo'yog'i deb yuritiladi. Masalan, *yuz*, *aft*, *bashara*, *turq*, *chehra*, *oraz*, *chiroy* kabi sinonimlar qatorida *yuz* (*o'zi*) odam a'zosining biri haqidagi tushunchani anglatadi, bu ijobjiy yoki salbiy ma'no ottenkasiga ega bo'limgan betaraf so'z. *Aft*, *bashara*, *turq* so'zlarida so'zlovchining asosiy-bosh tushunchaga qo'llanicha salbiy munosabatini ifoda etuvchi ma'no ham mavjud. *Chiroy*, *chehra*, *oraz*, *ruxsor* so'zlariga so'zlovchining ijobjiy thayriroxligi, yoqimli, go'zal kabi ma'no) munosabati ham yuqilatilgan. Bunday qo'shimcha ma'no ottenkalar kishilarning hissuyotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. So'zdagi salbiy hissiy-ta'siriyl bo'yog muayyan matn tarkibida oydinlashadi. Bet so'zi «*Beti qursin*» gapida salbiy ma'no, «*Beti-betiga tushsa nima deydi*» gapida bu salbiy ma'no kuchsizlanadi. *Kitobning beti* birikmasidagi beti so'zida salbiy ma'no umuman yo'q. Hissiy-ta'siriyl bo'yog tildagi hamma so'zlarda bo'lavermaydi. Masalan, ilm-fan, texnikaga oid atarmalarda hissiy-ta'siriyl bo'yog bo'lmaydi. So'zlar og'zaki va yozma nutqda qo'llanishiga ko'ra ham farq qiladi. *Aft*, *bashara*, *turq* so'zlar ko'proq og'zaki nutqda, *chiroy*, *oraz*, *ruxsor* ko'proq yozma nutqda, yani so'zi har ikkala nutqda qo'llanadi. Ko'rinish turibdiki, so'zlar biror nutq ustubida qo'llanishga moslashgan bo'ladi, bu idaradagi uslubiy belgi deb yuritiladi. Uslubiy belgi-so'zning ma'lum

uslubga mansubligini ko'rsatuvchi belgi. Masalan, *metro* – so'zlashuv uslubida *metropoliten* kitobiy uslubda qo'llaniladi. Leksik ma'no deganda so'z ifoda etadigan tushuncha, hissiy-ta'siriy bo'yoq va uslubiy belgilar yig'indisi tushuniladi. Demak, tushuncha, hissiy-ta'siriy bo'yoq, uslubiy belgi leksik ma'no komponentlari deyiladi.

Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar

Tildagi so'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir ma'noni ifoda etuvchi so'zlar bir **ma'noli so'zlar²⁷** deyiladi. Masalan, *kompas*, *marmar*, *morfologiya*, *taassurot*, *xulosa*, *gigiyena*, *g'oya*, *mimika*, *qobiliyat*, *fonema* va b. So'zlar ba'zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma'noni, gap tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda boshqa bir ma'no anglatishi mumkin. Masalan, *pasaymoq* so'zi gapdan tashqarida olinganda erga tomon yaqinlashmoq ma'nosini bildiradi. Gap tarkibida esa *bilimi pasaydi*, *ko'rish sezgisi pasaydi* kabi boshqa ma'nolarni bildiradi. Bu so'zlar birdan ortiq leksik ma'no ifodalayotgani uchun **ko'p ma'noli so'z sanaladi**. Demak, nutqdan tashqarida bir ma'no, nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda yana boshqa ma'no ifodalovchi so'zlar **ko'p ma'noli so'zlar²⁸** deyiladi. Ko'p ma'nolilik til taraqqiyoti davomida kelib chiqadi. Tildagi har qanday so'z, avvalo biror narsa yoki hodisani atash tufayli paydo bo'ladi, ya'ni bir ma'nonigina ifodalaydi. Keyinchalik esa shu so'z taraqqiyoti ma'no tufayli **ko'p ma'noli so'zga aylanishi mumkin**. Ko'p ma'noli so'zlarda 2 xil ma'no farqlanadi:

- 1) bosh (asl, o'z) ma'no;
- 2) yasama (ko'chma) ma'no.

Bosh ma'no so'zning nutqdan tashqarida ifodalagan ma'nosini bo'lib, u boshqa ma'nolarning kelib chiqishiga asos bo'ladi. Yasama ma'no bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga keladi. Masalan, *og'iz* so'zining bosh ma'nosini insonning tana a'zosi, *g'orning og'zi*, *qopning og'zi* yasama ma'no. So'zning yasama ma'nosini gapdagagi boshqa so'zlar bilan bog'liq holda anglashiladi. Ma'no taraqqiyoti qonunlariga ma'no ko'chishi, ma'no kengayishi, ma'no torayishi hodisalarini kiradi.

²⁷ Bir ma'nolilik – monosemantizm (gr. monos – «bir», sementikos – «belgi», «ma'no») deb yuritiladi.

²⁸ Ko'p ma'nolilik – «polisemantizm» (gr. poli – «ko'p», sementikos – «belgi», «ma'no») deb yuritiladi.

So'z ma'nosining ko'chishi besh xil bo'lib, ular quyidagilar:

- 1) metafora;
- 2) metonimiya;
- 3) sinekdoxa;
- 4) kinoya;
- 5) vazifadoshlik yo'li bilan ko'chish.

Metafora (grekcha *metaphora* – «ko'chirma») narsa va hodisalar orindagi o'xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo'lgan so'zni ikkinchisini ifodalash uchun qo'llashdir, metaforada shakliy o'xshashlik: belgi-xususiyat, harakat-holat nazarda tutiladi. Shu tufayli o'sifat va fe'l turkumlarida metafora yo'li bilan ko'chish hodisasi mavjud. Masalan, tish, engil, pasaydi so'zlarining ma'nosini kuzating:

Tish: 1) odamning tishi (bosh ma'no);
2) arraning tishi (yasama ma'no).

Yengil: 1) yengil eshik (bosh ma'no);
2) *yengil ta'zim* (yasama ma'no).

Pasaydi: 1) samolyot pasaydi (bosh ma'no);
2) bilimi pasaydi (yasama ma'no).

Metaloraga quyidagilar asos bo'ladi:

- 1) o'dolumning tana a'zolari nomlari: bet, yuz, burun, qulqoq, ko'z, lab, tish, elka, oyoq, og'iz kabi;
- 2) kiyimlar va ularning biror qismini nomlari: etak, yoqa kabi;
- 3) hayvon, parranda va hasharotlarning biror a'zosining nomi: qanot, dum, tumbashiq;
- 4) o'simlik va uning bir qismi nomi: tomir, ildiz;
- 5) qurol nomi: nayza, pichoq;
- 6) turli belgi, harakat nomlari bo'lgan so'zlar: baland, past, olmoq, chiqmoq kabi.

Metonimiya – narsa, belgi va harakatlar o'rtaqidagi aloqadorlik nomi ma'no ko'chish hodisasi. Bu aloqadorlik o'rinni va vaqt jihatdan bo'ldi. Metonimiyyada bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida doimiy real aloqa mavjud bo'ladi. Quyidagi gaplardagi so'zlarining ma'no munosabatini kuzating:

Sinekdoxa- Narsa yoki shaxs qismati nomini aytish bilan o'zini (cholmoni) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga asoslangan ma'no ko'chish hodisasiadir. Masalan: Besh qo'l barobar

emas (butun nomi bilan qismni anglash). Dunyoda o'zimizdan qoladigan tuyog'imiz... (A.Qodiriy) Sinekdoxa qism nomini butunni ifodalash uchun (oqsoqol, oqsoch, jigar, tirnoq, tomir), kiyim nomini odam yoki boshqa biror tirik mavjudotni ifodalash uchun (qizilishton), qurol nomini shu qurolni ishlatadigan kishini ifodalash uchun (nayza, qilich, tig', ketmon – «jangchi» ma'nosida), hayvonlarning biror a'zosini o'sha hayvonni ifodalash uchun (bosh, tuyoq), meva nomini shu mevani beradigan daraxtni anglatish uchun (yong'oq, olma, nok, uzum) qo'llash yoki, aksincha, butun nomini qismni anglatish uchun (qo'l so'zini «barmoq» ma'nosida) qo'llash kabi miqdor munosabatlariiga asoslanadi.

Kinoya – so'zlarning aks ma'noda qo'llash hodisasi. Bunday ko'chishlar yozuvda qo'shtirmoqqa olinadi. Masalan: *Shunaqa «do'star»ning kamroq bo'lganima'qul*.

Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi – narsalarning bajaradigan vazifasining o'xshashligi asosida ma'no ko'chish hodisasidir. Ma'noning bunday ko'chishi metaforadagi kabi o'xshashlikka asoslanadi. Leksik metaforada predmetning sezgi organlariga ta'sir qiladigan material tomoniga – rangi, shakli, harakati kabi belgilariga asoslaniladi. Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishida predmetning hayotda bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi. Masalan, o'q, siyoh, qalam kabi so'zlarning ma'nolaridagi ko'chish ular dastlab ifodalagan tushunchalar bilan hozirgilarini orasida bajaradigan vazifa jihatdan o'xshashlikka asoslangan. Ilgari parranda patidan yoki qamishdan yasalgan yozuv qurolini qalam deb ataganlar. Grafitli yozuv quroli paydo bo'lgandan so'ng, uni karandash qalam deb, keyin esa to'g'ridan to'g'ri *qalam* deb atay bergenlar. O'q - yoy o'qi; o'q - miltiq o'qi (bular shakl jihatdan emas, balki vazifasi jihatdan o'xshashdir. Siyoh so'zi tojik tilida «qora» degan ma'noni bildiradi. Yozuv quroli sifatida ishlataligan suyuqlik qora rangda bo'lgani uchun siyoh deb nomlangan.

Hozirgi kunda yozuv uchun qo'llanadigan turli rangdagi suyuqliklar (qizil, ko'k, yashil) ham vazifasining o'xshashligi asosida siyoh deb atalmoqda: qizil siyoh (asl ma'nosini qizil qora), ko'k siyoh (asl ma'nosini ko'k qora). Metafora va metonimiya mahsuldor ko'chish yo'li, sinekdoxa, kinoya, vazifadosh asosida ma'no ko'chishi kam mahsul hodisalardir.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari

Tildagi so'zlar shakl va ma'no xususiyatlariga ko'ra o'zaro turli munosabatda bo'ladi. So'zlarning ayrimlari shakl jihatdan, ayrimlari ma'no jihatdan, ba'zilari esa talaffuzi jihatidan o'xshash bo'ladi.

1.Omonim so'zlar. Shakli (yozilishi va aytilishi) bir xil, ma'nosi har xil so'zlar omonimlar deyiladi. Omonim so'zi grekcha «bir xil» degan ma'noni ifodalaydi. Masalan: ot - hayvon, ot - uloqtirmoq, ot - im, og'iz - insonning tana a'zosi, og'iz - yangi tuqqan sigir sutidan tuy vorlamadigan taom; chang - to'zon, gard, g'ubor, chang - tyriburchak, yassi qut'i shaklidagi torlar tortilgan qo'sh cho'p bilan chalimadigan musiqa asbobi; qovoq - insonning tana a'zosi, ot, qovoq - poliz ekini, ot. Omonim so'zlar turkumiga (yuz – insonning tana a'zosi, ol yuz – miqdor bildiruvchi son) oid bo'ladi.

Omonimlar 2 turga ajratiladi:

- 1) lug'aviy omonimlar;
- 2) grammatikomonimlar.

Lug'aviy omonimlar:

- 1) so'zlar doirasida;
- 2) iboralar doirasida bo'ladi.

1. Omonimlik hodisasi so'z bilan so'z doirasida bo'lsa, leksik omonim deyiladi. Masalan: kul (ot) - biror narsaning yonishi natijasida horil bo'ladiqan kukun. U oshxonada turgan kul chelakni olishga buyurdi (P.Tursun). Kul (fe'l) - zavq shovqini, hursandchilik bildiruvchi tovushlar chiqarmoq. Nega Aziz bu qadar shod: Yuzi buladi, ko'zlar yonadi? (H.G'ulom).

2. Omonimlik hodisasi ibora bilan ibora doirasida bo'lsa, frazeologik omonim deyiladi. Masalan: bosh ko'tarmoq - qarshi qo'shmoq olon ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq - tuzalmoq, sog'aya boshiamoq. Grammatik omonimlar qo'shimchalar doirasidagi shakli tenglikdir. Shakli bir xil, ma'nosi har xil qo'shimchalarga grammatik omonimlar deyiladi. Masalan: -im qo'shimchası bilim – ot yasovchi qo'shimcha, fe'lidan ot yasaydi. Kitobim – I shaxs, birlik qo'shimchasi; -ki (tepki) – ot yasovchi qo'shimcha, -ki (kechki) – sifat yasovchi qo'shimcha. Ba'zi omonim so'zlar qo'shimchalar olganda ham omonimlik shaklini saqlab qoladi. Masalan, ter+im, ter+im. Birinchi so'z – ter ot turkumiga oid bo'lib, I shaxs, birlik egalik qo'shimchasin olgan, ikkinchisi fe'l omoniga oid so'z ot yasovchi –im qo'shimchasin olgan. Bu so'zlar bu xil shaklini saqlab qolgan. Qo'shimchalar qo'shilganda ham

omonimlik shaklini saqlab qoladigan so'zlar **omoformalar** deyiladi. Omoformalar bir xil so'z turkumiga ham, boshqa-boshqa so'z turkumiga ham oid bo'ladi. Masalan, 1) bog' - mevazor (ot); 2) bog' - bog'ich (ot). Ularning qo'shimcha olgandan keyingi grammatik shakllari:

- 1) bog'ni, bog'ning, bog'dan;
- 2) bog'ni, bog'ning, bog'dan.

Qiyoslang: oq (sifat)+ar - fe'l yasovchi qo'shimcha; oq (fe'l)+ar - sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimcha. Omonimlar badiiy adabiyotda tuyuq janrida, og'zaki so'zlashuv nutqida so'z o'yinlari, askiyalarda qo'llanadi. Omonimlar ko'p ma'noli so'zlar ma'nosidagi bog'lanishning yo'qolishi, so'zlardagi sonetik o'zgarishlar va boshqa tildan so'z o'zlashishi jarayonida yuzaga keladi. Masalan: 1) bog' (mevazor) tojik tilidan kirgan, bog' (bog'ich) o'zbekcha so'z; 2) dam - nafas (o'z ma'nosи), dam - bosqon (ko'chma ma'no), dam - hordiq (ko'chma ma'no). Ikkinci misolda polisemiya hodisasi yo'qolib, omonimiya hodisasi yuzaga keldi.

Sinonim so'zlar. Shakli har xil, ma'nosи bir-biriga yaqin bo'lган so'zlar sinonim deyiladi. Sinonim so'zlar bir predmet hodisaning (taom, ovqat; baxt, iqbol, tole, saodat), belgining (sezgir, ziyrak, tuyg'un; aniq, ochiq-ravshan, yorqin, oydin, ayon), harakatning (yordamlashmoq, ko'maklashmoq) bir necha nomi. Sinonim so'zi grekcha «bir nomli» degan ma'noni ifodalaydi. Shuning uchun sinonimik hodisa bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi. Sinonim so'zlar aynan bir predmet, belgi, harakat tushunchasini ham, qo'shimcha ma'no ottenkalari bilan farqlanadigan predmet, belgi, harakat tushunchalarini ham anglatadi. Masalan, tilshunoslik - lingvistika sinonimlarining ma'nosи aynan bir xil. Yig'lamoq, yig'lamsiramoq sinonimlarining ma'nosida farq mavjud. Bir ma'no atrofida birlashgan so'zlar guruhi sinonimik qatorni tashkil etadi. Masalan: odam - kishi - insон - bashar; davolamoq, tuzatmoq; yorug' - nurli - charog'on, yorqin - munavvar. Sinonimik qatorni tuzishda ma'nodosh so'zlar uchu nasos qilib olingan so'z bosh so'z (dominanta) deyiladi. Sinonimik guruhdagи ma'noli, barcha nutq uslublarida qo'llanadigan, adabiy tilga mansub, ma'no doirasi keng bo'lган so'z bosh so'z sifatida tanlab olinadi: botir - qahramon - dov yurak - qo'rmas - jasur. Sinonimik qatorni belgilashda so'zlarning yagona umumiyl belgisiga asoslanadi. Masalan: uy va bino so'zлari bir-biriga

yo'qin ma'noli bo'lsa ham, uy so'ziga xos asosiy tushuncha bilan (odam va haydigan joy) «bino» so'zi ifodalaydigan tushuncha (imorat) o'tasida umumiylik yo'qligi uchun ular sinonim bo'la olmaydi. Jins va tur munosabatidagi (daraxt – jins, olma – tur), predmet yoki harakatning bir tomonini obrazli qilib, bo'rttirib ifodalaydigan so'zlar o'sha predmet yoki harakat tushunchasiga kirishi mumkin bo'lgan tushunchani ifodalasa ham, predmet yoki harakatni to'laligicha anglatununganligi, obrazlilik asosiy tushunchaga nisbatan kuchli bo'lsa (chuldirmamoq, ping'illamoq, pichirlamoq, shipshitmoq, to'ng'illamoq, yang illamoq so'zlar gapirmoq so'ziga sinonim bo'lmaydi), mohiyat jihatdan bir-biridan keskin farq qiladigan sotsial tuzumlarga xos bo'lyon tushunchalarni ifodalasa (mirshab – militsioner) ular o'zaro sinonim bo'la olmaydi.²⁹

Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud:

- 1) lug'aviy sinonimlar;
 - 2) grammatic sinonimlar.
- 1) lug'aviy sinonimlar:
 - 1) so'zlar doirasida (bezak, ziynat, hasham);
 - 2) so'z va iboralar doirasida (ayyor - mug'ambir - pixini yorgan, homing yog'ini yalagan);
 - 2) iboralar doirasida (og'ziga talqon solmoq - og'zida qatiq tilmoq) bo'ladi.
 - 3) Grammatik sinonimlar qo'shimchalar doirasida bo'ladi. Sinonim ni'zat o'zbek tilining ichki taraqqiyoti asosida (kun - quyosh, ish - rumush, qari - keksa) va boshqa tildan so'z olish natijasida (shox to'zbekcha) - muguz (tojikcha), orzu (tojikcha) - tilak (o'zbekcha), bulqoq (o'zbekcha) - chashma (tojikcha), adabiy tilga xos so'z bilan chevaga xos so'zlar (go'zal - suluv - ko'xlik - xushro'y) yoki shevaga uchit bir nechta so'zlar doirasida (chelak - satil - paqir) yuzagakeladi.

O'zbek tilining lug'at tarkibi

Izozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi o'zbek tilining butun tarkibiy taraqqiyoti davomida shakllangan. Tildagi so'zlarining paydo bo'lish devri va kelib chiqish manbalari ham har xil. So'zlarining paydo bo'lish devri va kelib chiqish manbaidan qat'i nazar, o'zbek millatiga mansub bosholar tilda qo'llanadigan barcha so'zlar o'zbek tilining lug'at

M. H. Hayrov v.b. O'zbek tili, T.O'qituvchi, 1978.

boyligini tashkil etadi. Demak, tildagi barcha so'zlar yig'indisi lug'at tarkibini tashkil etadi. Tilning lug'at tarkibi qanchalik boy bo'lsa, unda fikri mukammal ifodalash imkoniyati mavjud bo'ladi. Tilning lug'at tarkibi jamiyat taraqqiyoti jarayonida boyib boradi va o'zgarib turadi, ya'ni ayrim so'zlar ehtiyojning yo'qligi yoki uning o'rnnini bosadigan so'zning yuzaga kelishi bilan iste'moldan chiqib ketadi, yangi tushunchalarни ifoda etadigan so'zlar kirib keladi. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibini quyidagi turkum so'zlar tashkil etadi:

1. Kundalik turmushda ishlatalidigan hamma uchun tushunarli bo'lgan so'zlar:

1) oziq-ovqatga doir narsalarning nomlari: *yog'*, *guruch*, *mosh*, *loviya*, *piyoz*, *kartoshka*, *sabzi*, *polov*, *arpa*, *bug'* *doy*, *un*, *shakar*, *non*;

2) narsa-buyum, qurol nomlari: *bolta*, *tesha*, *randa*, *arra*, *kosa*, *tovoq*, *taroq*, *daftar*, *ruchka*, *kitob*, *qalam*, *mashina*, *samolyot*, *poezd*, *elak*, *chakich*, *belkurak*, *ketmon*, *qamchi*, *pichoq*;

3) tabiiy borliqqa oid nomlar: quyosh, yer, oy, yulduz, osmon, chaqmoq, zilzila, shamol, qor, yomg'ir, bulut, tuman, o't, suv, daryo, tog', tosh, daraxt, kecha, kunduz, tun, yorug'lik, oy, yil;

4) tirik mavjudot va ularning tana a'zolari nomlari: kishi, odam, er, xotin, chol, kampir, qari, yosh, dehqon, bog'bon, shifokor, o'qituvchi, do'st, dushman, mehnatkash, qush, hayvon, buzoq, mol, sigir, ot, mushuk, ilon, toshbaqa, chivin, qo'l, oyoq, bosh, tish, jigar, qorin, ichak, kurak, burun, lab, ko'z;

5) qarindoshlikka oid nomlar: ota, ona, buva, buvi, momo, amaki, amma, xolla, tog'a, aka, opa, singil, uka, o'g'il, qiz;

6) jamiyatga oid nomlar: vatan, mamlakat, yurt, xalq, armiya, davlat, tuzum, jamiyat, tashkilot, hokimiyat, sud, prokrotura;

7) harakat bildiruvchi so'zlar: yurmoq, turmoq, o'tirmoq, yotmoq, uxlamoq, uyg'onmoq, yuvmoq, bormoq, kelmoq, kulmoq, yig'lamoq, gapirmoq, o'smoq;

8) miqdor bildiruvchi so'zlar: bir, ikki, uch, to'rtinchi, oltinchi, o'ninchi, ming, o'n ming, ko'p, oz, picha, sal;

9) olmoshlar: men, sen, biz, siz, u, ular, ana, mana shu, o'sha, ana shu, kim, nima, qaysi, qachon, qayer, hamma, barcha;

10) holat va belgi nomlari: yaxshi, yomon, kuchli, qo'rkoq, to'g'ri, egri, baland, past, katta, kichik, achchiq, chuchuk, shirin, oq, qora, qizil, sho'x, eski, yangi, o'tkir, o'tmas, asta, sekin, tez;

1. Jumiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda tilda paydo bo'layotgan so'zlar, iboralar: bakalavr, magistr, magistratura, menejment, broker, fermier.
2. Is'e'moldan chiqib ketgan va ketayotgan so'zlar: pud, botmon, minghoshi, jallod, sekretar, revolyutsiya, oblast, rayon, ministr.
3. Kasb-hunarga doir so'zlar: ag'darma chok, bigiz, sakmanchi (qur'zilarga qarovchi chorvador), dehqon (kulolchilikda ishlatalidigan tash o'g'inch), randa, oxorcha, tahlilchi va boshqalar.
4. Iam-tehnikaga doir atamalar: ega, kesim, gap, so'z turkumi, ot, tuyush, atom, zaryad, chumchuq, hujayra, qo'shuv, oluv, bo'luv, bo'paytiruv, fizika, professor, dotsent, xirurg.
5. Hix-tuyg'ularni ifodalaydigan so'zlar: ura, yasha, hormang, qumrat, bimukalla, oh, voh, uh, ehhe, likillamoq, jimir-jimir.
6. Shevaga oid so'zlar: satil (chelak), so'ri (ishkom, supa), kura (koril), et (go'sht), sipsa (supurgi), kosa (piyola).
7. Jargon va argolar: oftobi olam, olam panoh, loy, yakan (pul), qumab (xotin), kalmata (so'z), otar (to'y), qiviz (non) va boshqalar.

O'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlamlar

Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan qteodliy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu aloqalar o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini u'ttirodi. O'zaro ta'sir natijasida tilning barcha bo'limlari: fonetika, lexicografiya, grammatika kabilarda o'zgarishlar yuz beradi. Tildagi nazorat va rivojlanish tilning leksikasida kuchli bo'ladi. O'zbek xalqi tarixiy davrlar bilan qadimdan aloqada bo'ldi. Shuning turibay sabablar bilan bog'liq holda arab, ruslar bilan aloqada bo'ldi. Hozirgi davrga kelib bir qancha horijiy daylatlar bilan do'stona shuqdor o'mutgan. Bular o'zbek tili leksikasiga ko'plab so'zlarining o'zlashishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarixiy illardan ikki qatlama ajratiladi:

1. O'z qatlami.

2. O'zlashgan qatlami.

O'z qatlami. O'z qatlama umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar kimidi:

1. Umumturkiy so'zlar. Ko'pchilik turkum xalqlar tilida qur'janadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiyl bo'lgan so'zlar umumturkiy so'zlar deyiladi. Bu so'zlar turkiy qabilalarning goh

qo'shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub so'zlardir. Oltoy tillar oilasining turkiy guruhida (turkumida) 24 ta til: o'zbek, qozoq, uyg'ur, boshqird, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, no'g'oy, tatar, chuvash, yoqut, tuva, shor, qoraim, qo'miq, gagauz, xakas, balqar, oyrot, karagas, turk, qorachoy, oltoy turklari tillari mavjud. Umumturkiy so'zlar hozirgi o'zbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi. Umumturkiy so'zlar turli sohalarga oid bo'lib, ularga narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat, his-tuyg'u bildiradigan so'zlar kiradi: kishi, oyoq, qo'l, bosh, ko'z, qosh, qizil, ko'k, yashil, oq, bir, ikki, uch, to'rt, o'n, kel, tur, yot, o'tir, ol, ur, yaxshi, yomon, sen, u, biz, siz, ular, asta, sekin, tez kabi.

2. **O'zbekcha so'zlar.** O'zbek tili sharoitida o'zbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan so'zlar **o'zbekcha so'zlar** deyiladi. O'zbekcha so'zlar o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida, o'z qonuniyatlari asosida yaratiladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Asli o'zbekcha so'zlarga shu tildagi so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida hosil qilingan so'zlar: ter+im+chi, bir+lash+ma, qo'l+lan+ma, o't+kaz+gich, tur+g'un, bola+larcha;

2. Boshqa tildan o'zlashgan so'zlarga o'zbek tilidagi yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasalgan so'zlar:

a) tojikcha so'zlardan yasalgan so'zlar: mard+lik, jang+chi, do'st+lik, pul+siz;

b) arabcha so'zlardan yasalgan so'zlar: rahbar+lik, qimmat+li, shifo+la+moq, nifoq+chi, nomus+li;

v) ruscha internotsional so'zlardan yasalgan so'zlar: sport+chi, razvedka+chi, beton+la+moq, ekskavator+chi;

3. Boshqa tillardan kirgan yasovchi qo'shimchalar yordamida o'z va o'zlashma so'zlardan hosil qilingan so'zlar: til+shunos, mehnat+kash, chizma+kash, kitob+xon, ilm+iy, vagon+soz va boshqalar.

O'zlashgan qatlam. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibiga tarixiy sabablarga ko'ra boshqa tillardan ko'plab so'zlar kirib kelgan. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar o'zlashgan so'zlar (olimma so'zlar) deb yuritiladi. O'zlashgan so'zlar uyg'ur, tojik, arab, rus, nemis, frantsuz, ispan, ingliz va boshqa. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zлarni quyidagi qatlamlarga bo'lishi mumkin:

1. Tojikcha so'zlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, mirob, dosta, bemor, g'isht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, mard, kam, chula, balki, agar, ham kabi.

2. Arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arabcha so'zlar o'zbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arabablarning Markaziy Osiyom bosib olishi bilan bog'liq. Kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, mu'mo, ilhom, kasb, qassob, san'at, asbob, bino, imorat, ovqat, g'alla, fil, parrando, hasharot, inson, odam, oila, amma, xola, dimog', idora kabi.

3. Ruscha-internotsional so'zlar. XIX asrning 2-yarmidan Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston chor Rossiyasining mu'monlighi mamlakatiga aylandi. Rus tilining o'zbek tiliga ta'siri shu davrondan boshlandi. Rus tilidan, rus tili orqali boshqa tillardan ko'plab bo'lib o'zlashdi. O'zbek tiliga rus tilidan va rus tili orqali Yevropa nafiqlari tillaridan (fransuz, italyan, nemis, ingliz, ispan) so'z kirishi biki tarixiy davrni o'z ichiga oladi:

1. XIX asrning 2-yarmidan XX asrning boshlarigacha bo'lgan davr.

2. 1917 yildan keyingi davr.

Rus tilidan so'zlar ikki yo'l bilan o'zlashdi:

1. Rus ishchilari, ustalari, rus askarlari, chinovniklarining mahalliy abobi bilan turli xildagi aloqalari bilan og'zaki nutq orqali: chilon (chilon), idbakat (advokat), apisor (ofitser), iskalat (sklad), axran (axran), choynay (choynak) kabi.

2. Matbuot orqali: ayrapilan (aeroplani), pabrik (fabrika), po'shta (pochtasi), zovut (zavod), uez (uezd), kredit (kredit), banka (bank), veksil (veksil) kabi. Rus tili orqali kirgan so'zlarning ba'zilari dunyodagi huquqni xalqlarning tilida tovush tomoni deyarli o'zgartirilmay ushlashdigan xalqaro so'zlardir. Ular, odatda, internotsional (internatsional) so'zlar deb yuritiladi. O'zbek tiliga o'zlashgan internotsional so'zlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansub:

1. Rus tiliga: sudya, samolyot, stol, stul, tok, ruchka kabi.

2. Lotin tiliga: reviziya, nota, metall, refleks, rezina, general, kapital, fund, plan, direktor, radio kabi.

3. Grek tiliga: grammatika, pedagog, talant, tezis, kafedra, poeziya, psichika, metr, neft, taktika, parallel kabi.

4. Nemis tiliga: raketa, kran, shaxta, rolik, politsiya kabi.

5. Ingлиз tiliga: champion, futbol, dollar kabi.

6. Fransuz tiliga: roman, palto, serjant, ministr, bank kabi.

Rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan so‘zlar ijtimoiy-siyosiy hayotga, sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan-texnika, madaniy-oqartuv, san‘at, savdo, sport, harbiy sohaga doir. Hozirgi Yevropa tillaridan so‘zlar bevosita aloqalar orqali o‘zlashmoqda. Masalan, o‘z navbatida so‘zlar o‘zbek tilidan rus tiliga ham o‘zlashmoqda: o‘rik, anjir, somsa (uryuk, injir, samsa) kabi.

O‘zbek tili leksikasining ishlatalish doirasi

O‘zbek tili leksikasi shu tilda gaplashuvchi kishilar tomonidan bir xilda qo‘llanmaydi. Ayrim so‘z keng jamoatchilik tilida qo‘llansa, ba‘zilari esa ma’lum territoriya yashovchi yoki ma’lum kasb-hunar bilan shug‘ullanuvchi kishilar nutqida ishlataladi. Shunga ko‘ra o‘zbek tilidagi so‘zlar ikki guruhga ajratiladi:

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika.
2. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika.

O‘zbek tili lug‘at tarkibining asosiy qismini ishlatalish doirasi chegaralanmagan leksika tashkil etadi. O‘zbek tilida gaplashuvchi barcha kishilar tilida qo‘llanadigan so‘zlar ishlatalish doirasi chegaralanmagan leksika deyiladi. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikadan yashash joyi, kasbi, hunari, jinsi, madaniy saviyasidan qat‘iy nazar barcha o‘zbek millatiga mansub kishilar foydalanadi. Shunga ko‘ra ular umum iste’moldagi so‘zlar deb ham yuritiladi. Umumiste’moldagi so‘zlarning ma’nosini hammaga tushunarli bo‘ladi. Bu so‘zlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, barcha so‘z turkumlariga oid bo‘ladi. Umum iste’moldagi so‘zlarning ko‘p qismini umumturkiy so‘zlar va o‘zbekcha so‘zlar tashkil etadi. Boshqa tillardan kirgan so‘zlar ham o‘zbek xalqining barchasiga tushunarli bo‘lsa, ular ishlatalish doirasiga ko‘ra chegaralanmaydi. Masalan, arab tilidan o‘zlashgan shamol, soat, inoq, dohiy, mag‘rur, hafa, maqol, hayot, millat, hikoya so‘zлari; tojik tilidan o‘zlashgan go‘sht, non, sozanda, suhbat, sabzavot, ombur kabi so‘zlar; rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan traktor, kino, teatr, sirk, kartoshka, fabrika, zavod kabi so‘zlar umumxalq tilida qo‘llanadi.

Demak, ishlatalish doirasi chegaralanmagan so‘zlar o‘z qatlamga ham, o‘zlashgan qatlamga ham oid bo‘lishi mumkin. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika. Tildagi so‘zlarning umumxalq tomonidan ishlatalmaydigan qismi ishlatalish doirasi chegaralangan leksika deyiladi. Bunday so‘zlarning ishlatalishi ma’lum sabablarga ko‘ra

chejaralangan bo'ladı. Ishlatilish darjası chejaralangan leksikaga iftabtilal so'zlar, atamalar, jargon va argolar kiradi. Dialektal leksika iftabtilish territoriyaga ko'ra chejaralangan so'zlar bo'lib, ular adabiy tilda kirmaydi. Ma'lum bir xudduddagi kishilar nutqida qo'llanib, ulorg'um tushunarli bo'lgan so'zlar sheva so'zları deyiladi. Sheva so'zları yig'indisi **dialektizm** deb yuritiladi. **Dialektizm** – grekcha so'z bo'lib, dialektos – «tilning mahalliy ko'rinishi» demakdir. Shuning uchun dialektizm umumtilning mahalliy ko'rinishi bo'lgan dialektlarga suadır. Misollar: qorinja (chumoli), g'o'z (yong'oq), karvich (g'isht) – Kozum; norbon (narvon), bodrak (varrak), poku (ustara) – Buxoro; mushiq (mushuk) - Farg'ona; inak (sigir), mo'rcha (chumoli), pishak (mu'huk) - Samarcand shevasida. Shevadagi ba'zi so'zlar adabiy tilda ham bo'lishi mumkin. Lekin ular boshqa-boshqa ma'nolarni bildiradi. Masalan: kosa so'zi Xorazm shevasida «piyola» ma'nosini, adabiy tilda «quyuq ovqat soladigan idish», lagan so'zi Xorazm shevasida kir ro'vdigan tog'ora, adabiy tilda «quyuq ovqatlarni soladigan idish» mi'nomi bildiradi. Yozuvchilar badiiy asarda mahalliy koloritni berish, qahramonning nutqini individuallashtirish, uning qayerlik okanni, tilidagi xususiyatlarni ko'rsatish maqsadida sheva so'zlardan boydalanadi.

Kasb-hunar leksikasi. O'zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunar bilan shuqullanib keladi. Shuning uchun O'zbekistonda kasb-hunar hamoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, kulolchilik, qashshoqlik, lo'chlachilik, duradgorlik, terimchilik, ovchilik, chorvachilik, lo'chlublik va hokazolar shular sirasiga kiradi. Turli kasb-hunarga doir so'zlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi o'zbek tili leksik tarhibida kasb-hunarga doir so'zlarga boy. Masalan: kulolchilikda dog'ich (sum yasashda ishlatiladigan asbob), aspak yoki ob yog'och, binodak, bog'ich (idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, chorm yoki kigiz parchasi) kabi so'zlar, suvoqchilik sohasida bozi (bol chu yoki), andava (asbob), loykash (kish), mola gaz cho'p (asbob) kabi maxsus so'zlar bor. Ular shu hunar egalari tilida qo'llanadi va ular uchun tushumarlidir. Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning mehnat huoliyatini ko'rsatishda kasb-hunarga doir so'zlardan boydaluontilar.

Atommlar. Fan-texnika, xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligiga doir shuqshumchalarni aniq ifodalaydigan so'zlar atamalar deyiladi. Fan-texnologiya va ishlab chiqarish sohasida qo'llanadigan terminlarning jami

terminologiya (terminologik leksika) deb yuritiladi. Masalan: fonetika, leksika, morfologiya, morfemika, sintaksis – tilshunoslikka oid; kvadrat, ildiz, teorema – matematikaga doir; sifatlash, o'xshatish, jonlantirish – adabiyotshunoslikka doir atamalardir. Hozirgi kunda dunyoda fanning 500 dan ortiq tarmoqlari bor, ular har tomonlama taraqqiy etmoqda. Bu tilda atamalarning boyib borishiga olib keladi. Atamalar ilmiy nutqda qo'llanadi va ular bir ma'noli bo'ladi. Ba'zi atamalar o'zbek tilida so'zlashuvchi barcha kishilar nutqda qo'llanib ommalashib ketishi mumkin. Bunda ular ishlatilish doirasi chegaralanmagan umumxulq so'ziga aylanadi. Masalan, o'qituvchi, kitob, daftar, dars kabi. Jargon va argolar. O'tmishda xalqni ekspluatatsiya qiladigan sinf vakillari, saroy ahllari, mansabdor shaxslar, savdogarlar, qalandar, maddohlar, xalqni aldab yuruvchi gadoylar, o'g'rilar, firibgarlar o'z niyatlarini xalqdan yashirish uchun o'zlariga tushunarli so'z va iboralardan foydalanganlar. Tilda sinfiy ayirmalikni ko'rsatib turadigan bunday so'zlar «sinfiy dialektning so'zlar» - jargonlar deb yuritiladi. Ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so'z va iboralar **jargonlar** deyiladi. Masalan, oftobi olam (podsho), husni mutlak (xudo), nishoni oliy mon, shoe' qiling (bildiring), malhuz emas (mulohaza qilingan emas), ne'mati jannat (yor, mahbuba), shavaqqu' aylang (umid bilan kuting), tanzil (foyda). O'g'rilar, qimorbozlar orasida qo'llanadigan so'zlar argolar deb yuritiladi; loy (pul), xit (militisioner), bedana (to'pponcha), xitola (o'g'irla), zamri (jim tur), atamri (gapir), atanda (qoch) kabi. Qadimda savdogarlarning, otarchilarning ham argolari bo'lgan: yakan (pul), joyi (yo'q), xasut (non), dax (yaxshi, durust) – otarchilar argosi; sar yoki sari piyoz (ming so'm), saru nimsar (bir ming besh yuz so'm), kapara (olti ming so'm).

Tarixiy jihatdan o'zbek tili leksikasi

Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida uning barcha bo'limlarida, jumladan, leksikasida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bunda tildagi ba'zi so'zlar eskirib, iste'moldan-ishlatilishdan chiqib ketadi yoki yangi tushunchalarni nomlovchi so'zlar paydo bo'ladi. Bu hodisalar tilning leksik tarkibini 2 qatlama ajratishni taqazo etadi:

1. Zamonaviy qatlam (neytral qatlam).
2. Eskirgan qatlam.
3. Yangi qatlam.

Zamonaviy qatlam. Bu qatlam o'zbek tili leksikasining asosiy qatlami bo'lib, uni umumxalq leksikasiga – ishlatalish doirasi chegaralumagan leksikaga oid so'zlar, shuningdek, atamalar, kasb-bunlar doir so'zlar tashkil etadi. Bu qatlamdagi so'zlar yangilik bo'yog'iga ham, eskilik bo'yog'iga ham ega bo'lmaydi. Zamonaviy qatlamdu so'zlarning nutqda ko'p yoki kam ishlatalishi, barcha tushunchalarning ishlatalishi yoki ma'lum guruh kishilari nutqidagina ishlatalishi asosga olinmaydi. Demak, yangilik va eskilik bo'yog'iga ega bo'lmaygan so'zlar eskirgan qatlam. So'z ifodalaydigan predmet yoki tushuncha hayotda yo'qolishi, yoki ularning ma'nosini ifodalaydigan boshqa so'zlarning paydo bo'lishi munosabati bilan avtom so'zlar asta-sekin qo'llanilmay unutila boradi. Ular nutqda kam qo'llanadi. Ularning ba'zilarini tushunish mumkin, ayrimlarini ko'p ulistik tushunmaydi, ular badiiy va ilmiy adabiyotlarda qo'llansa, tushunub etadi. Eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar eskirgan leksika 2 turga ajratiladi:

1. Tarixiy so'zlar yoki istorizmlar.

2. Arxaik so'zlar yoki arxaizmlar.

Tarixiy so'zlar o'tmishtagi narsa va hodisalarining nomi bo'lgan, munno hozir eskirib qolgan so'zlar tarixiy so'zlar deyiladi. Tarixiy so'zlar jumiyatda yo'q bo'lib ketgan narsalar, shaxslar haqida gap beruvchilardan qo'llaniladi. Hozirgi tilda ularning sinonimi yo'q. Masalan: boyton yusovul, taxt, kanizak, dinor (tilla pul), chaqirim (1 km), tosh (8 chiqrim – 8 km), gaz (71 sm), botmon (176, 128 kg), misqol (4,25 g.), muci (1 tyim). Ba'zi so'zlar til taraqqiyoti davomida turli xil narsalarni ifodalaydigan bo'lib qoladi. Bunday so'zlarning bir ma'nosи eskirsa, boshchil xil ma'nosи zamonaviy qatlamda ishlatalidi. Masalan: boy so'zining ma'nosini qiyoslang: *Boy Yo'chini zimdan kuzatdi (Oybek).* *Bo'lgan boy bo'laman deb nima ishlarni qilmading, oqibati nima bo'ldi?*

Arxaik so'zlar. Hozir mavjud bo'lgan narsa-hodisalarining eskirib qolgan nomlari arxaik so'zlar deyiladi. Arxaik so'zlar yig'indisi uchun nomlari deyiladi. **Arxaizm – grekcha so'z bo'lib, archaios – espidtumto degan ma'noni bildiradi.** Eskirgan so'z ifoda etayotgan nomi bo'lib hozirgi hayotda bor bo'lgani uchun uning eskirgan nomini almashtimay oladigan zamonaviy qatlamga oid so'z mavjud bo'ladi. Aslida bir narsaning birdan ortiq nomi bo'lsa, ularidan til taraqqiyoti qonuniyatlariga javob bera oladigan tilda saqlanib qoladi, jo'sib berin olmaydigani eskilik bo'yog'iga ega bo'lib, ishlatilmay qolib

ketadi. Masalan, sekretar – kotib, mirzo, kotiba. Ular ichidan kotib so'zi hozirgi kunda kishilar tomonidan keng ko'lamda qo'llanilyapti. Sekretar so'zi eskirib, arxaiklashib qolgan. Arxaik so'zlar so'zlovchining ko'z oldida iste'moldan chiqib ketayotgan so'zlardir revolyutsiya (inqilob), tuman (rayon), viloyat (oblast), baynalmilal (internotsional). Masalan: bitik (kitob), ulus, budun (xalq), o'miz (ko'krak) kabi. So'zlar butun holda arxaiklashishi yoki uning biror ma'nosi arxaiklashishi mumkin. Shunga ko'ra ular:

- a) leksik arxaizmlar;
- b) semantik arxaizmlar tarzida ikki xil bo'ladi.

Leksik arxaizmda so'z eskiridi: gulgun, siymo (obraz). Semantik arxaizmda ma'no eskiridi: chechak – «gub» ma'nosida eskirgan, bekat – karvonlar to'xtaydigan joy ma'nosida eskirgan, bag'ir – «jigar» ma'nosida eskirgan, davlat – «boylik» ma'nosida eskirgan. Arxaiklashish iboralarda ham, grammatick hodisalar doirasida ham yuz beradi. Iboraarning arxaiklashishi holati ko'p, lekin grammatick hodisalarning arxaiklashishi ham uchraydi: dasti alif – lom qilib, gordonini ham qilib, yoqasini chop etmoq (iboralar); sifatdoshning -din, -mish shakllari, ravishdoshning -bon, -ibon shakllari, -dur – kesimlikni ko'rsatuvchi bog'lama eskirgan Grammatik shakllardir. Fonetik arxaizmlar ham mavjud bo'lib, unda tovush eskiridi: sobun, qabooq kabi.

Neologizmlar. Kundalik hayotimizdag'i yangi narsalarni, ularning belgilarni, yangicha munosabatlarni, umuman yangi tushunchalarni ifoda etish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan so'zlar yoki yangi ma'noda qo'llangan eski so'zlar neologizmlar deyiladi. Neologizm grekcha so'z bo'lib, neos – «yangi» degan ma'noni bildiradi.

Neologizm yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan: bakalavr, magistratura, kompyuter, kompyuter texnologiyasi, marketing, supermarket kabi. Neologizmlar yangi paydo bo'lgan paytda, ishlatalish doirasiga ko'ra chegaralangan leksikaga kiradi. Neologizmni ma'nosi tushunararlilik kasb etsa, xalq orasida ommalashib ketishi mumkin. Bunda u yangilik bo'yog'ini yo'qtadi va umumxalq so'ziga aylanadi. Masalan: brigada, televizor, traktor, kosmos, kosmonavt va hokazo. Ba'zi neologizmlar yangiligicha qolib ketishi, ishlatalish doirasiga chegaralangan leksikadan o'rinn olib qolishi mumkin. Demak, neologizm – nisbiy tushuncha.

Leksika- tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralar yig'indisi.

Semasiologiya- tilning lug'at tarkibini ichki tomonidan o'rnatidigan sohasi.

Litimologiya-tilning lug'at tarkibidagi so'z va iboralarning tarixan kelib chiqishini, yasama so'zlarning va boshqa tillardan kirgan so'zlarning ma'noli qismlarini izohlaydi.

Leksikografiya- so'z va iboralarni ma'lum bir sohalar bo'yicha to'plab, muayyan tartibda keltiradi (alifbo tartibiga soladi) va lug'at tiloblari shaklida nashr etadi.

Metasora-(grekcha metaphor - «ko'chirma») narsa va hodisalar o'msidagi o'xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo'lgan so'zni ikkinchisini ifodalash uchun qo'llashdir, metaforada shakliy o'xshashlik: belgi-xususiyat, harakat-holat nazarda tutiladi.

Metonimiya-narsa, belgi va harakatlar o'rtasidagi aloqadorlik asosida ma'nno ko'chish hodisasi. Bu aloqadorlik o'rin va vaqt jihatdan bo'ladi.

Stekdoxa- narsa yoki shaxs qismati nomini aytish bilan o'zini (chotunini) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga mo'loni ma'nno ko'chish hodisasidir.

Kinoya-so'zlarning aks ma'noda qo'llash hodisasi. Bunday tiloblar yozuvda qo'shtirmoqqa olinadi. Masalan: *Shunaqa shtironing kamroq bo'lgani ma'qul*.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Leksikologiya deganda nimani tushundingiz?
2. So'zning leksik va grammatik ma'nolari haqida gapirib bering
3. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbek tilining lug'at tarkibi deganda nimani tushunasiz?

8-MAVZU: FRAZEOLOGIYA VA LEKSIKOGRAFIYA

REJA:

1. Frazeologiya haqida umumiy ma'lumot
2. Iboralarning hayotimizdagi o'rni
3. Leksikografiya haqida tushuncha

Tayanch tushunchalar: ibora, lug'at, bir tilli lug'at, ikki tilli lug'at

Nutqda ikki yoki undan ortiq so'zlarining o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'lanishidan tuzilgan birikmalar qo'llaniladi.

Bunday birikmalarning ayrimlari nutq jarayonida tuziladi, ayrimlari esa tilda tayyor birikma shaklida mayjud bo'ladi. Ular bir-biridan o'ziga xos belgilari bilan farq qiladi. Nutq jarayonida tuzilgan birikma kamida ikkita mustaqil so'zdan tashkil topadi va murakkab tushuncha ifodalaydi. Bunday so'z birikmasi ifodalaydigan tushuncha tarkibidagi so'zlarining ma'nosi asosida yuzaga keladi: qiziqarli asar Bunday so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar ayrim so'zlarga ajrala oladi: qiziqarli asar – zerikarli asar. Shuning uchun ular erkin so'z birikmasi deb yuritiladi.

Tilda ko'p vaqt bir qolipda qo'llanaverib, bo'linmaydigan holga kelib qolgan birikmalar mavjud: og'zi qulog'ida. Demak, so'z birikmalari ikki xil:

- a) erkin so'z birikmasi;
- b) turg'un so'z birikmasi.

Turg'un birikmalar ikki xil:

- a) birikmali atamalar;
- b) iboralar.

Tilda ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topib, ko'chma ma'no ifodalaydigan, ma'nosi bir so'zga teng keladigan turg'un birikmalar ibora (frazeologik birlik) deyiladi. Birikmalargina emas, ayrim gaplar ham ibora holiga kelib qolishi mumkin: Ishtahasi ochildi. Dili siyoh bo'ldi. Iboralarning barchasi ko'chma ma'no ifodalaydi va ularda emotsiyonallik so'zga nisbatan kuchli bo'ladi. Shuning uchun iboralar

mutqning ifodalaligini va ta'sirchanligini oshiradi. Tilning iboralarni o'rnadigan bo'limi frazeologiya, iboralar yig'indisi esa **frazeologizm** deb yuritiladi.

Iboralar o'rtasida ham o'zaro sinonimlik, antonimlik, omonimlik hoidisasi bo'lishi mumkin.

QISQACHA IBORALAR LUG'ATI

Ibora	Ma'nosi
Alamini olmoq	<i>Alamini tarqatish uchun zulm qilmoq</i>
Arpasini kim xom o'ribdi	<i>Nima yomonlik qilibdi?</i>
Aqli kirdi (aqlini tanimoq)	<i>Es-hushli bo'lmoq;</i>
Balogu qolmoq	<i>Jazoga duchor bo'lmoq</i>
Bug'ri tosh	<i>Bemehr, iltifoti yo'q</i>
Beliq bog'lamoq	<i>I) shaylanmoq; 2) astoydil kirishmoq.</i>
Buni ko'tarilgan	<i>Gerdaygan, kibrlanmoq</i>
Choplurji bir joydan chiqdi	<i>Fikr-o'yłari mos keldi</i>
Onli desa qo'lliga qo'nadi	<i>Juda itoatkor</i>
Doppisini osmonga otmoq	<i>Juda quvonomoq</i>
Eti o'lehab bir kesdi	<i>Nihoyatda ehtiyojkorlik bilan ish ko'rmoq</i>
Yog' tushsa yalagudek	<i>Nihoyat darajada toza, orasta</i>
Jog'i ochildi	<i>Ko'p gapirdi</i>
Joni hufqumiga keldi	<i>O'lar holatga kelidi</i>
Huning yog'ini yalagan	<i>O'ta ayyor, mug'amhir, quv</i>
Kalavuning uchini topdi	<i>Jumboqni hal qilish yo'lini topdi</i>
Kapolagi uchdi	<i>Nihoyatda qattiq cho'chimoq</i>
Ko'zligu issiq ko'rindi	<i>Tanish tuyilmоq</i>
Ko'zi ochilmoq	<i>Yaxshi -yomonni tushunadigan bo'lmoq</i>
Ko'zi to'rt bo'ldi	<i>Intizor bo'lmoq</i>
Ko'kku ko'tarmoq	<i>Nihoyatda maqtamoq</i>
Ko'ngli ko'tarildi	<i>Ruhlandi</i>
Ko'ngli oq	<i>Samimiy</i>
Ko'ngli to'ldi	<i>Mannun bo'ldi</i>
Ko'ngli yumshoq (ko'ngli bo'sh)	<i>Rahmdil</i>
Laf(z) hulol	<i>Va'dasida turadigan</i>
Lom'udm demadi	<i>I) gapirmadi; 2) e'tiroz qilmadi.</i>
Mazzed qochdi	<i>Sog'ligi yomonlashdi</i>
Mifat chiqdi	<i>Asl qiyofasi fosh bo'ldi</i>
Muum tishlibb goldi	<i>Gapirmoy qoldi</i>
Muum chiqdi	<i>Mashhur bo'ldi</i>
Oyog'ind qo'lliga olib keldi	<i>Tez keldi</i>
Qeralardan qil o'tmaydi	<i>Juda inoq, ahil</i>
Oy'zi qulog'iga yetgan	<i>Juda xursand</i>

Oq-qorani tanidi
 Terisiga sig'may ketdi
 Tili bir qarich
 Tili shirin (tilidan bol tomadi)
 Tilining uchida turmoq
 Tirnoq ostidan kir qidirmoq
 Tishining kavagida saqlamoq
 Toqatlari toq bo'ldi
 Xo'rлиgi keldi
 Chehrasi ochildi
 Esi chiqib ketdi
 Yulduzni benarvon uradi
 Qo'y og'zidan cho'p olmagan
 Qo'li kaltalik qildi
 Hafsasali pir bo'ldi

*Hayot tajribasiga ega bo'ldi
 Juda quvondi
 Maqtanishga haqli bo'ldi
 Yoqimli gapiradigan
 Xotirasida tiklab ayta olmaslik
 Yomon niyat bilan aybni qidirish
 O'ta ehtiyyot bilan
 Sabr-chidami tugadi
 O'ksinib yig'lashga tayyor
 Xafagarchiligi tugadi
 Nihoyatda qattiq qo'rqi
 O'ta abjir, chaqqon, chapdast
 O'ta yuvosh
 Imkoniyati cheklangan
 Biror ishni qilishga istak-intilishi yo'qoldi*

Leksikografiya

So'zlarning biror maqsadda to'planib, tartibga solingen yig'indisi lug'at deyiladi. Lug'at tuzishning nazariy va amaliy tamoyillari haqidagi soha **leksikografiya** (grekcha lexicon - Lug'at va grapho - yozaman) deyiladi. Lug'at tuzuvchi mutaxassislar leksikograflar deyiladi. Lug'at tuzish tamoyillari va metodikasini ishlab chiqish, leksikograflar ishini tashkil qilish, lug'at tuzish uchun asos bo'ladigan kartotekalar tuzish, ularni sistemalashtirish va saqlash leksikografiyaning vazifasidir.

Lug'atlarning so'zlar va iboralarning qo'llanishini nazariy tadqiq etishda hamda tilga amaliy o'rgatishda ahamiyati katta.

Turli turdag'i lug'atlar tuzish umummadaniy ahamiyatga egadir. Lug'at alifbo tartibida tuzilib, qulay qo'llanma sifatida xalq ommasiga bilim beradi, madaniy-oqartuv funksiya bajaradi. Shuning uchun ham bu masalaga katta ahamiyat berilmoqda. Maxsus nashriyotlar, leksikografik muassasalarning tashkil etilganligini shu bilan izohlash mumkin.

Lug'at turlari, so'zlik (lug'atdan izohlanayotgan yoki tarjima qilinayotgan so'z) tarkibi, lug'aviy maqolalar strukturasi kabi masalalar leksikografik nazariyada asosiy masala hisoblanadi.

Lug'atlar, asosan, ikki turga bo'linadi: qomusiy (ensiklopedik) va filologik. Qomusiy lug'atlarda fan, texnika va madaniyatning barcha sohalariga oid tushunchalar izohlanadi. Ularda tabiat hodisalari,

ijtimoiy hayotdagi voqealar, mashhur kishilar haqida ma'lumotlar beriladi.

So'zning o'zi haqida faqat uning kelib chiqishini ko'rsatish bilan chegaralaniladi. Shuning uchun bunday lug'atlar tushuncha lug'at deb yuritiladi. Odatda, bunday lug'atlarda rasmlar, karta va sxemalar ham keltiriladi.

Qomusiy lug'atlar ilmiy, siyosiy, adabiy va ishlab chiqarishga xos tushumchalar, borliqdagi predmetlar va voqealari-hodisalar haqida mu'lumot beradi. «O'zbek milliy entsiklopediyasi», «Uy-ro'zg'or ensiklopediyasi», «Salomatlik ensiklopediyasi», «U kim, bu nima?» kabi lug'atlar qomusiy lug'atlar sirasiga kiradi.

Qomusiy lug'atlarda so'z va iboralar alifbo tartibida maqolaning turuvhasi sifatida qo'yiladi. Qomusiy lug'atlar maqsad va vazifasiga ko'm ikki xil bo'ladi: **umumiy qomusiy** (**ensiklopedik**) lug'at va biror sohanning (**qomusiy**) lug'ati. Umumiy qomusiy lug'atlarga "Britaniya lug'ati", "O'zbekiston qomusi" misol bo'ladi. Biror sohaning qomusiy lug'atlariga "Adabiyot qomusi", "Pedagogik qomus", "Texnik qomus", "Qishloq xo'jalik qomusi" kabilar kiradi. Qomusiy lug'at Sharqda "Qomus", G'arbda esa "Tezaurus" deb ham yuritiladi.

So'zlarни tilshunoslik nuqtai nazardan izohlaydigan lug'atlar **lingvistik lug'at** deb yuritiladi. Lingvistik lug'atlar bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli bo'ladi. Bir tilli lingvistik lug'atlarda lug'aviy birliklar bir tilning - o'zbek tilining o'zida izohlanadi. Bunday lug'atlarga «Imlo lug'ati», «Orfoepik lug'ati», «O'zbek tilining morfem lug'ati», «O'zbek tilining sinonim so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining omonim so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining antonim so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining frazeologik lug'ati», «Etimologik lug'ati», 1981-yilda yaratilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati» (2 jild) kabilar. «O'zbek tilining izohli lug'atida so'z va iboralarning o'z va ko'chma ma'nolari haqida to'la ma'lumot beriladi. Ikki tilli va ko'p tilli lug'atlar tarjima lug'atlari bo'lib ular boshqa tilning lug'at tarkibini o'zbek tiliga yoki aksincha o'zbek tilining lug'at tarkibini boshqa tilga tarjima qilish uchun xizmat qiladi. Ikki tilli va ko'p tilli lug'atlarga o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-englizcha nemischa kabi lug'atlar kiradi.

Ko'p tilli lug'atlar o'tmishda ham tuzilganligi arabcha-forscha-turkcha lug'atlardan ma'lum. Hozirgi kunga kelib ko'p tilli lug'atlar turishi ancha jadallahashdi. Chunki ko'p tilli lug'atlar hozirgi tillarni

qiyyosiy o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lug'at fan va texnika, madaniyat, umuman jamiyatning taraqqiy etib borayotganini o'zida aks ettiradi. Lug'atlar muhim madaniy boylikdir, chunki lug'at nutq madaniyatni, so'zlarning ma'nolarini aniq tushunish va ularni nutqda to'g'ri qo'llash, savodxonlikka erishishning asosidir.

Filologik lug'atlarda asosiy e'tibor so'zga yoki so'z birikmasiga beriladi va ular har tomonlama izohlanadi. Bunday lug'atlar ham alifbo tartibida tuziladi va izohlanadigan so'z yoki so'z birikmasi sarlavha sifatida keltiriladi.

Filologik lug'atlar ikki xil bo'ladi: umumiy va maxsus filologik lug'atlar. Umumiy filologik lug'atlarda hamma qo'llaydigan so'zlarning izohi beriladi. Bular bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli bo'ladi.

Qo'yilgan maqsadga ko'ra bir tilli filologik lug'atlar bir qancha turlarga bo'linadi. Masalan, izohli lug'atlar, maxsus lingvistik lug'atlar, etimologik lug'at, morfem lug'at, frazeologik lug'at, sinonim so'zlar lug'ati, orfoepik lug'at, atoqli otlar lug'ati, joy nomlari lug'ati, mashhur yozuvchilar asarlari lug'ati kabilar.

Masalan, izohli lug'atda so'zlarning barcha leksik ma'nolari keng izohlanadi. Har bir so'z izohli kichik maqola shaklida beriladi va izohlanayotgan so'z sarlavha qilib ko'rsatiladi. Bunga "O'zbek tilining izohli Lug'ati", 5 jildli, "Ingliz tilining Oksford izohli lug'ati", 17 jildli "Slovar' sovremennogo russkogo literaturnogo yazika", S.I.Ojegovning bir jildli "Slovar' russkogo yazika" kabilar misol bo'ladi. Olim Usmonov va Renat Doniyorovlarning "Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati" shular qatoriga kiritiladi.

Sinonim so'zlar lug'atida sinonimik qatorga kiruvchi har bir so'zning ma'no ottenkalari, stilistik funksiyalari bayon qilinadi. Bunga A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" misol bo'ladi. etimologik lug'atlarda so'zlarning kelib chiqishi, ularning dastlabki shakli va ma'nosи, til taraqqiyoti davomida ularda yuz bergan o'zgarishlar izohlanadi.

M.Fasmerning "Etimologicheskiy slovar' russkogo yazika", E.V. Sevortyanning "Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazikov", Sh. Rahmatullaevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" ana shunday lug'atlardir.

Morfemik lug'at so'zlarning qanday morfemalardan tuzilganini alifbo tartibida izohlovchi lug'atdir. Jumladan, *mukofotlanmoq* so'zi mukofot (lan) moq morfemalaridan tuzilgan. (Qarang: A.G'ulomov,

A.N.Tixonov, R.Qo'ng'uров. O'zbek tili morfem lug'ati. Toshkent, "O'qituvchi", 1977). Frazeologik lug'atda tildagi frazeologik birlıklarning (iboralarning) semantik va grammatic xususiyatlari misollar yordamida izohlanadi. Unda frazeologik omonimlar, sinonimlar va antonimlarni yonma-yon keltirish bir frazeologik dboraning turli variantlarini berish juda foydalidir. Misol: *Ko'ngli quttiq-qattiq ko'ngil. Rahm-shafqati yo'q*. Varianti: *toshko'ngil; toshko'ngilli; tosh-ko'ngil* (ekan)ligi. Sinonimi: *tosh yurak-yuragi tosh. Antonimi: ko'ngl (i) bo'sh; ko'ngl(i) yunshoq-yunshoq ko'ngil. Oxshushi: bag'ritosh; mehritosh...* [Rahmatullaev SH. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent. "O'qituvchi", 1978, 21-bet].

Izohli lug'atlar tuzilishiga ko'ra ikki xil: alifbo tartibidagi lug'atlar va uya tartibidagi lug'atlar.

Birinchi turdag'i lug'atlarda so'zlar alifbo tartibida berilib izohlanadi. Yuqorida ko'rsatilgan izohli lug'atlar mana shu tartibda tuzilgan.

Ikkinchi turdag'i lug'atlarda faqat o'zaklarga alifbo tartibida joylashtiriladi. Yasama so'zlar esa o'zak maqolachasining ichida (uynsida) izohlanadi. Bunday lug'atlar bir uyada keltirilgan so'zlarining ma'no va shakl jihatdan boglanishlari haqida ma'lumot beradi. Ikki til doirasidagi tarjima lug'atlarida bir tildagi so'z yoki so'z birikmasi boshqacha tilga tarjima qilib beriladi. Bunga ruscha-o'zbekcha, inglizcha-o'zbekcha, fransuzcha-o'zbekcha, nemischa-o'zbekcha lug'atlar kiradi. Chet tilini o'r ganuvchilar uchun mo'njallangan qisqa tarjima lug'atları ham mavjud. Ba'zan tarjima lug'atları bir necha tillar doirasida bo'лади. Moshlam, "Slovar' naibolee upotrebitel'nix slov angliyskogo, nemetskogo, frantsuzskogo i russkogo yazikov" kabi.

Filologik lug'atlarga turli sohalarga oid lug'atlar ham kiradi. Hularda fan, texnika, ishlab chiqarishning ma'lum sohasiga oid so'z terminlar izohlanadi. Soha lug'atlari ichida eng keng tarqalgani terminologik lug'atadir. Bunday lug'atlar bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli bo'лади. Bir tilli terminologik lug'atlarda bir tilning ma'lum sohaga oid terminlari izohlanadi. Bunga O.S.Axmanovaning "Slovar' lingvisticheskix terminov" (1966) va D.E.Rozental, M.A.Telenkovalarning "Spravochnik lingvisticheskix terminov" (1972) nomli kitoblari, H.Hasanovning "Geografiya terminlari lug'ati" (1964), U.Homidiy, SH.Abdullaeva, S.Ibrohimovalarning "Adabiyotshunoslik

terminlari lug'ati" (1967), Olim Usmon tahriri ostida nashr qilingan "Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati" (1976) kabilarni kiritish mumkin.

Ikki tilli terminologik lug'atlarga N.T. Hotamovning "Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'at"i (1969). SH. Bayburov va N. Takanaevning "Pedagogikadan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'at"i (1963) kabilar kiradi.

Ko'p tilli terminologik lug'atlarga A. Asqarov va H. Zohidovlarning "Lotincha-o'zbekcha-ruscha normal anatomiya lug'ati" (1964) ni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Chet so'zlar lug'ati ham terminologik lug'atlarga o'xshab ketadi. Bunda ham, asosan, chet tillardan o'zlashgan so'zlar izohlanadi.

Hozirgi tilshunoslikda **tezauras lug'at** (grekcha thesayros - manba) yoki ideografik lug'at tuzish masalasi ustida ish olib borilmoqda. Tezauras lug'at ma'lum so'z bilan ma'nolari bog'lanuvchi barcha so'zlarni qamrab oladi.

Lug'at - so'z xazinasi, undan o'rini va maqsadga muvosiq foydalanish inson bilimini kengaytirish, lug'at boyligini oshirishda hamda fikrni to'g'ri va ravon ifodalashda muhim omildir.

Leksik tahlil namunasi

1. So'zning lug'aviy ma'nosi.
2. So'zning bir ma'noli antonimlik, paronimlik xususiyati aniqlanadi.
3. Ma'no ko'chgan bo'lsa, ko'chish usuli aniqlanadi.
4. So'zning omonimlik, sinonimlik, so'zmi yoki umumxalq ishlatmaydigan so'zmi?
5. Umumxalq ishlatadiganyoki ko'p ma'noli ekanligi aniqlanadi.
6. Ibora mavjud bo'lsa, uning ma'nosi izohlanadi

Frazeologizm- ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'naviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi.

Leksema-(yunoncha so'z) til qurilishining leksik ma'no anglatuvchi lug'aviy birlik.

Onomasiologiya- leksikologiyaning lug'aviy birliklarini nomlash va tushuncha anglatish qonuniyatlarini anglatuvchi bo'lim.

Onomastika- atoqli otlarni o'rganadigan fan.

1. ug'atshunoslik-tilshunoslikning lug'at tuzish ishi bilan shug'ullanadigan maxsus soha.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Omonimlar va ularning turlari haqida gapiring
2. Sinonimlarning ta'rifini aytib, misollar keltiring.
3. Sinonimik qator va dominanta (bosh so'z) haqida gapiring.
4. O'zlashma va yasama so'zlarning sinonimik xususiyatlari haqida gapiring.

9-MAVZU: MORFEMIKA

REJA:

1. O'zbek tili morfemikasining dolzarb muammolari
2. So'zlar tarkibidagi affiksial morfemalarning vazifasiga ko'ra turlarini ajratish.
3. Morfema variantlarini misollar asosida ajratish.
4. So'zlar tarkibidagi affiksial morfemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini farqlash.
5. Affiksial morfemalarning tuzilishi va qo'llanish darajasiga ko'ra turlarini misollar bilan yoritish.

Tayanch tushunchalar: morfema, affiksial morfema, so'z tarkibi, o'zak, ma'no munosabati

So'z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohalaridan biri bo'lib, u yangi ma'noli so'z yasalishi, so'z yasash usullari, so'z yasalishiga aloqador bo'lgan hodisalarini o'rganadi.

«So'z yasalishi» atamasi ikki xil hodisaga nisbatan qo'llanadi:

1) tilshunoslikning so'z yasalishi bilan bog'liq hodisalarni tekshiruvchi bo'limini;

2) umuman so'z yasalishi, so'z hosil qilinishini bildiradi.

Nutqda so'zlar tub yoki yasama shaklda qo'llanadi. Yasovchi affikslarga yoki yasovchi qismlarga ega bo'limgan so'z tub so'z deyiladi: inson, xalq, millat, suv, non, havo, yaxshi, ziyrak, xursand, besh, o'n, yigirma, biz hamma, ba'zi, bormoq, kelmoq, o'qimoq, sekin, birga, hozir va h.k. Tilda mavjud usullar bilan yangi hosil qilingan so'z yasama so'z deb yuritiladi. Masalan, tinchlik, bog'bon, gulzor, jonlan, birlash, ko'kar, sezgir, zavqli so'zları o'zakka yasovchi affikslar (-lik, -bon, -zor, -lan, -lash, -ar, -gir, -li) qo'shish usuli bilan yasalgan bo'lsa, Dilorom, Durbek, Oqtepa, bilakuzuk, sohibjamol, sofdil, erksevar so'zları so'zlarni yoki so'z shakllarini qo'shish, biriktirish usuli bilan hosil qilingan. Tilda mavjud bo'lgan so'z (yoki so'zlar, so'z shakllar negizida ma'lum usullar bilan yangi ma'nodagi so'zlarni hosil qilish so'z yasalishi deyiladi. O'zbek tilida so'z yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya, fonetik, semantik, abbreviatsiya kabi usullari mavjud.

Shulardan affiksatsiya va kompozitsiya usullari asosiy va yetakchi usullar hisoblanadi.

Affiksatsiya usuli. So'zga so'z yasovchi affiks qo'shish bilan yangi so'z hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi. Masalan, Paxtakor, intidosh, quvonch, do'stlik, ochiq, tirishqoq, serjilo, ilmiy, o'yla, kungay, shodlan, tinchi, tasodifan, oqilona, ko'pincha, ertalab va boshqalar. So'z yasovchi affikslar o'zbek tilida asosan suffiks tarzida qo'llanib, so'z o'zagidan so'ng qo'shilib keladi. Ba'zan bunday affikstar o'zak oldiga prefiks tarzida qo'shilib, yangi ma'nodagi so'z yasashi mumkin. Masalan, serhosil, serunum, badavlat, ba'mani, beminnat, beg'araz, noo'rin, nohaq, badfe'l, badbashara va h.k. O'zbek tilida so'z yasovchi affikslardan tashqari, o'z xususiyatlari bilan affikslarga juda yaqin turadigan xona, noma, obod kabi so'z-affikslar ham inavjud. Bunday so'z-affikslar tilshunoslikda **affiksoidlar** deb ham yuritiladi: ishxona, mehmonxona, oshxona, qabulxona, fabriknoma, Xalqobod, Yangiobod.

Kompozitsiya usuli. Birdan ortiq mustaqil ma'noli so'z yoki so'z chunkilarining qo'shilushi, birikuvi orqali yangi so'z yasash kompozitsiya usuli bilan so'z yasash deyiladi. Bu usul bilan qo'shma, ayrim just so'zlar hosil qilinadi. Masalan, guldasta, gultojixo'roz, oschluri, tomorqa, xushfe'l, rahmdil, olijanob, hozirjavob, havo rang, e'on qilmoq, rad etmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq va boshqalar.

Fonetik usul. Bu usulga ko'ra, so'zda fonetik o'zgarish yuz berib, yangi so'z hosil qilinadi. Chunonchi, so'z urg'usining o'mini almashtirish natijasida boshqa-boshqa so'z turkurniga doir so'zlar hosil bo'lishi mumkin:

yo'zma – fe'l, yozma' – sifat,
su'zma – fe'l, suzma' – ot,
li'zik – ot, fizi'k – sifat,
ukade'mik – ot, akademik – sifat

Semantik usul. Bu usulga binoan, so'z ma'nosida o'zgarish ro'y berib, ma'nosni boshqa-boshqa, shaklan o'xshash yangi so'z hosil bo'ldi:

kun – sutkaning yorug' qismi, kun - quyosh, planeta;
ko'k – osmon, ko'k – havorangga o'xshash rang,
bir – son, birga, birdan, birda – ravish.

Abbreviatsiya usuli. Bu usulga ko'ra, bir butun holda qo'llanadigan to'g'ri ma'noli turg'un birikmalarning qismlari har xil

yo'l bilan qisqartirilib so'z hosil qilinadi. Bu usul rus tilidan kirgan bo'lib, qisqartma otlar shu usulda yasaladi:

BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti,
MDH - Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi,
ATS – Avtomatik telefon stantsiyasi,
ToshMI – Toshkent Meditsina instituti,
Filfak – filologiya fakulteti,
akademlitsey – akademik litsey,
peduniversitet – pedagogika universiteti

So'zlar tarkibidagi affiksial morfemalarning vazifasiga ko'ra turlarini ajratish.

Morfemika so'zning nomustaqlil tarkibiy qismlari haqidagi ta'llimot. Ma'lumki, o'zbek tilida, flektiv tillardagidan farqli o'laroq, o'zak mustaqil ma'no anglatish xususiyatiga ega. So'zning o'zakdan boshqa qismlari esa undan ayricha qo'llanmaydi va ma'no anglatmaydi. Shuning uchun ular morfemalar deyiladi. Masalan, *paxtakorlarga* so'zi *paxta-, -kor, -lar, -ga* qismlaridan iborat. Ajratilgan har bir tarkibiy qism bu so'z doirasida o'ziga xos elementar va semantik mavqega ega. Ular lisonda ana shunday ajralgan holda o'z «xonacha»larida guruh-guruh bo'lib yashaydi. **Paxta- va -kor, -lar, -ga** qismlari o'zaro semantik va qo'llanish xususiyatlari jihatidan farqlanadi. *Paxta* birligi mustaqil lug'aviy ma'noga egaligi va bu ma'noni qolgan qismlarsiz ham anglatla olish xususiyati bilan boshqa tarkibiy qismlardan ajralib turadi. Shuning uchun u *leksema* deyiladi. Boshqa qismlar esa ajralgan holda mavhum bo'lishi, leksemasiz mustaqil ma'no anglatla olmasligi bilan xarakterlanadi. Leksema shakllanuvchanlik belgisiga ega bo'lsa, morfemalar hakllantiruvchanlik belgisiga ega. Nomustaqlilik tabiatи va leksemaga shakl berish vazifasiga xoslanganligi ularni **morfema** deb atashga olib kelgan. Morfemaning nutqiy ko'rinishi **qo'shimcha** deyiladi.

Tilimizda *yordamchi* so'zlar deb ataluvchi katta guruh ham bor bo'lib, ular leksema va morfemalar sirasida «oraliq uchinchi» maqomida bo'ladi. Shuning uchun ularni *leksema-morfema* deyishi mumkin. Yordamchi so'zlarning leksemaligi shundaki, ular mustaqil so'zlar kabi ajralganlik xususiyatiga ega. Biroq shakllanuvchanlikka ega emas. Lug'aviy ma'noga ega emasligi ularni morfemik maydon sari tortib turadi.

Lisoniy sathda leksemalar qo'shimchali yoki qo'shimchasiz bo'lishi mumkin. Masalan, *ishchi*, *paxtakor*, *ishla* lekse-malari nutqiy yasama so'zlarining lisoniy lashuvidir. Ular leksema sifatida lisonda *ish*, *panza* leksemalaridan farqli o'laroq, so'z yasovchi qo'shimchalar bilan birlik mavjud. Qo'shimchalardan xoli leksema *o'zak* atamasi bilan ham nomlanadi.

Turkiy tillarda nol morfema grammatic shakllar sirasida ustuvor mayqejiga ega ekan, nutqda voqelangan biror mustaqil leksema qo'shimchasiz bo'lishi mumkin emas. Moddiy qiyofali morfemasiz leksema nol qo'shimchalidir. Masalan, nutqdag'i *Kitobni o'qi*, *U'a'lochi* gaplaridagi *o'qi*, *bor*, *a'lochi* so'zlari nol qo'shimchali nutqiy birliklardir.

Leksemalar tarixiy taraqqiyot natijasida morfemaga aylanib bo'lib, morfemalar esa so'zning o'zagiga singib ketishi mumkin. Masalan, *xona* leksemasi taraqqiyot natijasida ikkiga ajralgan. Bir ma nosida «joy» semali yasama so'zlarini hosil qiluvchi derivatsion vaqtiga aylanib ketgan, leksemalikdan mahrum bo'lgan. *Noma*, *yo'r* leksemalari ham shunday tarixiy siljishni boshidan kechirgan. Tilfigi bunday hodisalar ilmiy muammo bo'lib, maxsus tekshirish natijasida tayinli xulosaga kelish mumkin.

So'zning morfemik strukturasidagi o'zgarishlar. Aytilganidek, (i) taraqqiyoti natijasida so'zning semantik, fonetik strukturasida bo'lpam kabi, morfemik tarkibida ham jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Ularning har xil ko'rinishlari bor:

1 So'z va qo'shimcha birlashib, so'z *tublashishi* mumkin: *yuksal*, *rukay*.

2 So'z va qo'shimcha birlashib, ular *yaxlitlanishi* mumkin: *biron*, *biron be'or*. Qo'shimcha bunday zinchlashishi natijasida o'z invarianti morfemasidan uzilishi mumkin.

3 So'z va qo'shimcha orasidagi aloqa *soddalashishi* mumkin: *ramshiq*, *qattiq*.

4 So'z qo'shimcha holiga kelishi, murakkab qo'shimchalar birligiga qo'shilib ketishi, ya'ni *birlashishi* mumkin: *borib yotibdi* – *borib yutipi* – *boryapti*; *ning + ki=niki*. Keltirilgan hodisalarga mansub misollarning barchasi tarixiy yasalishga mansubdir.

Morfema nutqda turli varinatlarga ega bo'ladi. Misol sifatida qobitqich kelishigi invariant shaklining variantlarini kuzataylik:

a) poetik variant: *bog'in mevasi*;

- b) tarixiy variant: *manim*;
- v) dialektal variant: *kitobting*;
- g) fonetik variant: *mening*.

Kelishik paradigmasiiga kirish huquqiga faqat invariant shaklgina ega.

So'zlar tarkibidagi affiksal morfemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini farqlash.

Morfemalarda ham shakl va ma'no munosabati barqarordir. Morfemalarning miqdoran cheklanganligi bu munosabatning keng qamrovlligidan dalolat beradi. **Morfemik polisemiya.** Morfemik polisemiya keng tarqalgan. Bu morfemalarning polifunksionalligiga bog'liqdir. Misol sifatida *-chilik* affiksini olaylik. Darslik va qo'llanmalarda uning quyidagi uch ma'nosini farqlanadi:

1. Asosdan anglashilgan narsa etishitiriladigan sohani ifodalovchi ot: *paxtachilik, urug'chilik, chorvachilik, uzumchilik*.
2. Asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borlik holatini bildiruvchi ot: *pishiqchilik, mo'chilik, arzonchilik*.
3. Asosdan anglashilgan tushuncha bilan bog'liq bo'lgan ishni bildiruvchi ot: *ulfatchilik, tirikchilik*.

Morfemik omonimiya. Shakldosh morfemalar omonim morfemalar deyiladi. Shakldoshlik bir tur morfemalar orasida ham, turli morfemalar orasida ham bo'lishi mumkin.

1. Derivatsion omonimiya:
 - ki I: *turtki, tepki, ko'chki* (ot yasovchi).
 - ki II: *ichki, kechki, ustki* (sifat yasaydi).
2. Grammatik omonimiya:
 - (i)sh I: *borish (bormoq), kelish (kelmoq), ketish (ketmoq)* (harakat nomi shakli).
 - (i)sh II: (birga) *yuvish*, (birga) *tarash*, (birga) *ishlash* (birgalik nisbat shakli).

3. Derivatsion-grammatik omonimiya:

- (i)m I: *yig im, terim, sig im* (ot yasovchi morfema).
- (i)m II: *uyim, kitobim, soatim* (egalik morfemasi).

Morfemik sinonimiya. Barcha tur morfemalar ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi. Shu boisdan *derivatsion sinonimiya* hamda *Grammatik sinonimiya* farqlanadi.

Derivatsion sinonimiya. Derivatsion morfemalarning bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalashi *derivatsion sinonimiya* deyiladi.

Masalan, sifat *yasovchi-li*, *-dor*, *-ser*, *-ba* morfemalari o'zaro sinonim: *savlatli*, *savlatdor*, *sersavlat*, *basavlat* kabi. Biroq ma'nodoshlik morfemalararo to'liq emas, balki ayrim ma'no qirralari orasidadir. Ya'ni bir morfema ikkinchi morfema bilan barcha ma'nolari mosida sinonim bo'la olmaydi. Bugungi kunda derivatsion sinonimiya va derivatsion darajalanishni farqlash tilshunosligimizda tadqiqini kutayotgan muammolardandir.

Grammatik sinonimiya. *Nonni yeng - nondan yeng, yug'jo'namoq uy tomon jo'namoq* kabi hodisalarda grammatik ma'nodoshlik mavjud.

Morfemik antonimiya. Morfemik antonimiya derivatsion morfemalar orasidagina mavjuddir. Unga misol sifatida *-li* va *-siz* affikslarini keltirish mumkin: *andishali-andishasiz*, *barakali-hebaraka*, *baxtli-baxtsiz*.

Morfema – yunoncha morphē – shakl” degan ma'noni bildirib o'ziga xos shakl va ma'noga ega bo'lgan boshqa ma'noli qismlarga bo'limmuydigan, so'z yasash yoki so'zning shaklini hosil qilish uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik.

Affiks – lotincha “biriktirilgan” degan ma'noni bildirib, so'zning qismi shakllanishiga xizmat qiladigan morfema.

Differensiatsiya – lotincha differentia – “farqlanish , farq” degan ma'noni bildirib, ixtisoslashish – dastlab bir xil elementlardan iborat bo'lpon sistemaning sifat jihatdan farq qiladigan bir qancha qismlarga ajratib ketishi.

Paradigmatika – til birliklarini til sistemasida , struktural bo'libarning jami sifatida tekshirish aspektidir.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1 O'zbek tili morfemikasining dolzarb muammolari qaysilar?
- 2 So'zlar tarkibidagi affiksial morfemalarning vazifasiga ko'ra turlarini ajratish haqida so'zlab bering
- 3 Morfema variantlarini misollar asosida ajratib ko'rsating

REJA:

1. Hujjat yuritishning huquqiy asoslari.
2. Davlat ishlarining hujjat yuritish asosida tartibga solinishi.
3. Ish yuritishni tartibga soluvchi chora-tadbirlar va hukumat qarorlari.
4. “Ish yuritish” qo’llanmasi va uning amaliy ahamiyati.
5. Hujjatlar va ularning turlari.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy munosabatlar, huquqiy asoslari, savodxonlik, an'ana, nutqiy madaniyat, mukammallik, hukumat qarortari, rasmiy va shaxsiy hujjatlar

Ijtimoiy munosabatlar doirasida odamlar, idoralar va tashkilotlar, korxonalar va muassasalar o’rtasida o’zaro ish yuritishning ma’lum huquqiy asoslari mavjud bo’lib, ular tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish tarzida amalga oshiriladi.

Hujjatlarning mukammallik darajasi ular bilan ish ko’radigan kishilarning savodxonlik darajasi, davlatchilik tarixi va davlat ishlarini yuritishdagi mavjud an'analar, ma’lum darajada kishilar o’rtasida shakllangan nutqiy madaniyat, ayni paytda, bu hujjatlarga bo’ladigan zaruriyat bilan bog’liq bo’ladi. Hujjatlarni yuritish asosan davlat ishlarini huquqiy asoslarga qo’yish tarzida amalga oshiriladi. Demak, u davlat yoki davlatlararo bo’ladigan ma’lum talablar darajasida amalga oshiriladi va dunyoviy an’analarni ham o’zlashtiradi. Hujjatlarning mukammalligi davlat ishlarini yuritish takomilidan dalolat beradi. Davlat tizimining barcha bo‘g’inlarini hujjatlarsiz mutlaqo tasavvur qilib bo’lmaydi. Chunki uning faoliyati aynan ana shu hujjatlar yordamida tartibga solib turiladi va harakatga keltiriladi. Shuning uchun ham vaqt-vaqti bilan ish yuritishni takomillashtirishga qaratilgan hukumat qarorlari qabul qilinib boriladi. Masalan, shunday qaror O’zbekiston jumhuriyatining inqilobiy qo’mitasi tomonidan 1924-yilning 31-dekabrida qabul qilingan bo’lib, “Ishlarni o’zbek tilida yurgizish ham O’zbekiston jumhuriyatining inqilobiy komiteti huzurida markaziy yerlashdirish hay’ati va mahallalarda muzofot yerlashtirish hay’atlari tuzilish(i) to‘g’risida” deb nomlangan.

Yurtimizning mustaqilligi arafasida (1989-yil 21-oktabr) "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi bu masalani ham huquqiy asosga qo'ydi. Yangi tahrirdagi Qonunning 9- moddasida davlat hokimiyyati va boshqaruv organlarida ishning davlat tilida yuritilishi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi alohida ta'kidlab o'tildi. Mustaqillikdan keyin esa ish yuritishni takomillashtirish, uni milliy asosga qo'yish masalasiga yana ham jiddiy etibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 18-avgustdagи 424-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi viloyat, shaharva tumanlar hokimlari apparatlarida ish yuritish bo'yicha yo'riqnomा", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagи 140-son qaroriga ilova qilingan "O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, korporatsiyalari, konsernlari, uyushmalari, kompaniyalarida va boshqa muftaziy muassasalarida, apparatlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha namunaviy yo'riqnomা" lar fikrimizning datilidir. N.Mahmudov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Aminovlarning "O'zbek tilida ish yuritish (munshaot)", yana shu mualliflarning "Ish yuritish" amaliy qo'llanmalari esa o'zbek tilida ish yuritishning me'yoriy asoslarini belgilab berishda g'oyatda muhim qo'llamma bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki mualliflarning ish yuritish borasida bergen yo'l-yo'riqlari xodimlarning faoliyatida metodik o'dim beradi, hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalarini o'rgatadi, ish qo'qozlarining hamma joyda bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Ammo shunday qo'llanmaning mavjudligiga qaramasdan undan foydalanish talab darajasida deb bo'lmaydi. Chunki 2000 yilda 10000 nusxada chop etilgan bu kitob bilan hamma o'quv yurtlari ham yetarli darajada ta'minlangan emas. Vaholanki, bu kabi qo'llanmalar bilan har bir kollej va litsey talab darajasida ta'minlanishi va har bir talabaning qo'lida bo'lishi maqsadga muvofiq. Ma'lum ma'noda mazkur qo'llammalar o'rta maxsus o'quv yurtlari doirasida ushbu vazifani bajarishi mumkin. Shunday qilib, ish yuritishning tarkibiy qismi bo'lgan hujjatlarni ikki qismga bo'lib o'rganish to'g'ri bo'ladi:

1. Rasmiy hujjatlar.
2. Shaxsiy hujjatlar.

Rasmiy hujjatlar xizmat hujjatlari deb ham yuritilib, ular doirasida idoralar va mahkamalar, korxonalar va tashkilotlar hamda

muassasalar o'rtasida olib boriladigan yozishmalar tushuniladi. "Ish yuritish" qo'llanmasining mualliflari bu hujjatlarning tasnifi haqida quyidagilarni yozishadi: "Ma'muriy boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeiga ko'ra hujjatlar hozirgikunda, asosan, quyidagicha tasniflanishi mumkin: tashkiliy hujjatlar, farmoyish hujjatlari, ma'lumot-axborot hujjatlari, xizmat yozishmalari". Alovida shaxs, jamoa tashkilotlari o'rtasidagi aloqaning huquqiy jihatlarini qamrab oluvchi tashkiliy hujjatlarga guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, qoida, ustav, shartnama singari hujjatlar; tashkilot yoki muassasa rahbarining ish faoliyati doirasida amal qiladigan farmoyish hujjatlariga buyruq, ko'rsatma, farmoyish kabi hujjatlar; ma'lumot-axborot hujjatlariga ariza, bayonnama, bildirishnama, vasiyatnama, dalolatnama, ishonchnoma, ma'lumotnama, tavsifnama, tavsyanoma, taklifnama, tarjimai hol, tushuntirish xati, e'lon, hisobot tarzidagi hujjatlar; alovida shaxs yoki tashkilotning faoliyatini qamrab oladigan xizmat yozishmalariga taklifnama, telegramma, telefonogramma, modeogramma va turli mazmundagi xatlar kiradi.

Ma'lum bo'lyaptiki, ma'muriy-boshqaruv faoliyati doirasida amal qiladigan bu hujjatlarning aksariyat qismi rasmiy mazmunga ega. Demak, kim tomonidan yozilganlik, ya'ni tegishlilik nuqtai nazaridangina ariza, vasiyatnama, tarjimai hol, tushuntirish xati, tilxat, ishonchnoma singarilarni shaxsiy hujjatlar deyishimiz mumkin. Aslida ular ham rasmiy mazmunga ega. Hujjat deyildimi, uni rasmiy tushunish va qabul qilish to'g'ri bo'ladi. Quyida litsey va kollej bitiruvchilarini ish faoliyati doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng zarur hujjatlarning rasmiylashtirilish tartibi to'g'risida ma'lumot beramiz va bunda yuqorida nomi tilga olingan "Ish yuritish" qo'llanmasidagi ko'rsatmalarga tayanamiz.

Ish yuritish hujjatlarining tili va uslubi

Ish yuritish sohasi o'zbek tilining amalda bo'lish imkoniyatlarini namoyish qiladigan yo'nalishlardan bo'lib hisoblanadi. Yoziladigan hujjat faqat uning muallifining o'zi uchun yozilmasdan, ko'pchilik, shu jumladan, yuqori tashkilot va muassasalar hamda ularning rahbarlari nazaridan o'tishi ham inobatgaolinsa, uni shakllantirishga jiddiy e'tibor berishga to'g'ri keladi. Chunki hujjat ma'lum ma'noda uni yozgan kishining savodxonlik darajasini ko'rsatuvchi oynadir. Shunday ekan,

uni talablar darajasida rasmiylashtira olmagan yoki o'z ona tilida uvodli qilib yoza olmagan xodim jamoa oldida uyalib qolishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ma'lum bir korxona yoki tashkilotda shaydig'an xodim o'z faoliyatida zarur bo'lgan asosiy hujjatlarning rasmiylashtirish qoidalarini puxta egallab olishi zarur. Ish yuritish provonida avvalgi darslarda ta'kidlab o'tilganidek, birinchidan, "Davlat tili haqida"gi Qonun talablariga rioya qilish, ya'ni hujjatlarni o'zbek tilida yozish zarur. Ikkinchidan esa, o'zbek tilining vazifaviy jihatdan amalda iste'molda bo'lish yo'llarini ham farqlab, ularni rasmiy uslubda shakllantirish lozim. Rasmiy uslubning o'ziga xos surusiyatlari va boshqa vazifaviy uslublardan farqlari to'g'risida ivnligi darslarda ma'lumot berilgan. Harqalay bu o'rinda yana bir marta eslatib o'tish lozimki, ish yuritish hujjatlarida ehtiroslarga berilib, turli xil obrazli so'zlarni qo'llash yoki shevachilikka borish, sullas, adabiy va rasmiy til me'yorlaridan chetlashish maqsadga muvofiq emas. Bu hujjatlarning matnida fikrlar g'oyatda aniq, mazmunan puxta, ayni paytda, ravon ifoda etilishi, fikrning ikki xil tizhunilishiga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr mumkin qadar qisqa bayon etilishi zarur. Ularda sodda gaplarga qaraganda qo'shma gaplarning ko'proq ishlatilishini inobatga olib, so'zlar va gaplar o'rnatidagi mantiqiy bog'lanishlarga jiddiy e'tibor berishga to'g'ri keladi. Rasmiy uslubda so'z tartibining buzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Aytilgan fikrlar barcha rasmiy hujjatlar uchun umumiyl talablardir. Homing ustiga har bir hujjatning o'ziga xos rasmiylashtirish surusiyatlari ham borki, ularni inobatga olmasdan bo'lmaydi. Bu o'ziga xostiklar hujjatdagi birlamchi va ikkilamchi qismlarning joylashtirilishidan tortib, so'z va iboralarni tanlash hamda gap qurilishida ko'zga tashlanadi. Hujjatlarning kirish va yakuniy qismlari deyarli bir xil. Ammo asosiy mazmunni ifoda etadigan matnda farqlar judiy bo'ladi. Masalan, ariza, tilxat, tushuntirish xati, tarjimai hol, ishonchhuoma singari hujjatlar bir kishi tomonidan yozilgani uchun uning rasmiylashtirilishi I shaxstilidan bo'ladi va unda men olmoshi, ma'lum qilaman, iltimos qilaman, so'rayman, harakat qilaman, ishonch bildirman, tug'ilganman, borganman, qabul qilinganman, tuzitgumann singari fe'lning I shaxs o'tgan va kelasi zamon shakllari bo'ji qo'llaniladi. Ma'lumotnomha, dalolatnomha, bayonnoma singari hujjatlarda esa ko'pchilikning fikri ifoda etilgani tufayli unda berildi, muddi, eshitildi, qaror qilindi singari so'z va jumlalar o'tgan zamonda,

majhul nisbatda beriladi. Buyruqlarning rasmiylashtirilishi esa tamoman boshqacha. Unda qat’iyat ohangi kuchli bo’ladi va topshirilsin, yuklatilsin, so’ralsin, ogohlantirilsin, tayinlansin, ozod etilsin, berilsin singari fe’l shakllari o’tgan zamonda, buyruq maylida ifoda etiladi. Shuning uchun ham har bir hujjatning til va uslub xususiyatlarini o’rganmoqchi bo’lgan kishi uning keltirilgan namunalarini sinchiklab kuzatsa, ularning har birining o’ziga xos xususiyatlarini va qoliqlarini bilib olishi qiyin bo’lmaydi. Hujjatlarni yozishda bir xillikka erishish va unga ko’nikma hosil qilish katta yutuq sanaladi. Imlo va tinish belgilariga e’tibor berish ham g’oyatda muhim ekanligi yuqorida ta’kidlab o’tildi.

Shartnomaga – ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o’zgartirish yoki to’xtatish yo’lidagi kelishuvidir.

Munshaot – hujjat

Individual hujjat – shaxsiy hujjat

Tipovoy – namunali hujjat

Trafaletli – qoliqli hujjat

Viza – rozilik belgisi

Rezolutsiya – munosabat belgisi

Adresat – hujjatni oluvchi

Rekvizit – hujjatni rasmiylashtiruvchi majburiy element

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Hujjat yuritishni bilish nima uchun kerak?
2. Davlat ishlarini yuritish qanday tartibga solinadi?
3. Ish yuritish doirasidagi qanday hujjatlarni bilasiz?
4. Rasmiy va shaxsiy hujjatlarning tili va uslubi qanday bo’lishi kerak?

11-MAVZU: HUJJATLAR BILAN ISHLASH

REJA:

1. Davlat ishlaringin hujjat yuritish asosida tartibga solinishi.
2. "Ish yuritish" qo'llanmasi va uning amaliy ahamiyati.
3. Hujjatlar va ularning turlari.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy munosabatlar, huquqiy usoslar, savodxonlik, an'ana, mukammallik, hukumat qarorlari, rasmiy va shaxsiy hujjatlar

Ariza insonlar hayotida eng ko'p foydalilaniladigan hujjat hisoblanadi. Ariza bir kishi tomonidan tashkilot, korxona yoki muassasa rahbari nomiga yoziladi. Arizaning tarkibiy qismida quyidagilar bo'ladi: ariza yo'llangan tashkilot, korxona, muassasa va uning rahbarining nomi; arizachining turar joyi yoki ish joyi, vazifasi, ismi va otasining ismi; shundan so'ng Ariza degan yozuv, arizaning mazmuni, agar lozim bo'lsa, arizaga ilova qilinishi mumkin bo'lgan hujjatlar
to'xuti, arizachining imzosi, ismi-familiyasi, ariza yozilgan vaqt.

Namuna:

Samarqand tibbiyot kolleji direktori

Ya.N.Allayorovga Sug'diyona massivi 14-uy,
6-xonadonda yashovchi Amirova Marhabo
tomonidan

A R I Z A

Meni akusherlik va ginekologiya bo'limiga o'qituvchilik vazifasiga qabul qilishingizni so'rayman. Arizaga oliv tibbiy ma'lumot haqidagi diplom, mehnat daftarchasi, so'rov noma va yashash joyidan ma'lumotnomani ilova qilayapman.

AMIROVA M.

2010.15.02.

Arizalar mazmuni turlicha bo'lishi mumkin. Ammo rasmiylashtirish shakli yuqoridagi tartibda bir xil, ayni paytda, aniq va qisqa yozilgan bo'ladi.

ANNOTATSIYA

Annotatsiya asosan alohida nashr hisoblanadigan o'quv qo'llanmalar, darsliklar va monografiyalarga yozilib, ularda asarning qisqacha mazmuni, ahamiyati, kimlarga mo'ljallab yozilgani o'z ifodasini topadi.

Namuna:

S.A. Karimovning A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyotida 2018-yilda chop etilgan "Oila ta'llimi va me'yor" nomli o'quv qo'llanmasiga yozilgan

ANNOTATSIYA

Mazkur o'quv qo'llanmasi V — 220100 va 5 — 220100 — filologiya (o'zbek tili va adabiyoti)—bakalavrlik yo'nalishida tahsil olayotgan 3-kurs talabalariga mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlariga muvofiq keladigan va tanlama fan sifatida o'tiladigan "Hozirgi o'zbek tilining me'yoriy muammolari" kursi dasturi asosida yozilgan. Qo'llanmani yaratishda me'yor hodisasining lingvistik tushuncha ekanligi, uning predmeti, maqsad va vazifalari, me'yor masalasining o'zbek tilshunosligida o'r ganilish tarixi, adabiy tilga munosabati, umumiy va xususiy me'yorlar, me'yorlarning tildagi imlo, talaffuz, leksik-frazeologik, grammatik va uslubiy ko'rinishlari, me'yor va lug'atchilik, me'yor va nutq madaniyati masaalarini yoritishda mustaqillik davrida o'zbek tili va uni tadqiq etishda yuz bergan o'zgarishlar hamda erishilgan yutuqlarga tayanilgan.

BAYON NOMA (majlis bayoni)

Majlis bayoni—bayonnomalarni rasmiylashtirish ham barcha rasmiy idoralar hayotidagi ish yuritishning muhim qismlaridan hisoblanadi. Chunki turli tashkilot va muassasalar jamoalari faoliyatiga

oid ko'plab masalalar yig'ilishlarda, demokratik yo'l bilan hal bo'ladi va ularni hal qilishga oid qabul qilingan qarorlar hayotga tatbiq etilishi uchun belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Ana shu rasmiylashirilgan hujjat bayonnomma sanaladi. Bayonnomma turli yig'ilishlardagi chiqishlar va qarorlar g'oyatda siqiq va rasmiy tilda yozilgan hujjatdir. Shu hujjat asosida jamoaning faoliyati olib boriladi va nazorat qilinadi. Bayonnomada uni rasmiylashtirayotgan tashkilot va muassasaning nomi, Bayonnomma degan so'z, yig'ilish raqami, sanasi va joyi, qutnashuvchilar, kun tartibi, uning muhokamasi tafsiloti (asosiy ma'ruzachi va so'zga chiquvchilar), qabul qilingan qarorlar, majlisiga mislik va kotiblik qilganlarning imzosi o'z aksini topgan bo'lishi lozim. Agar zarur bo'lsa, uning oxirida ilova ham berilishi mumkin.

Namuna:

**TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI PEDAGOGIKA FAKULTETI DEFEKTOLOGIYA
KAFEDRASINING
1-YIG'ILISH
BAYONNOMASI**

20 avgust 2021 yil

Chirchiq shahri

Nr	Ko'riladigan masala	Javobgar shaxs
1.	Yuqori tashkilotlardan kelgan buyruqlar ijrosi. Ijro intizomi	Kafedra mudiri
2.	"Defektologiya" kafedrasining 2021-2022 o'quv yiliga rejalashtirilgan ishlar yuzasidan axborot	Kafedramudiri
3.	Tasdiqlash: ❖ Kafedra yillik o'quv yuklama soatini tasdiqlash. ❖ Kafedra professor-o'qituvchilarining yillik o'quv yuklama soatini tasdiqlash. ❖ Professor-o'qituvchilarining kalendar reja va ishchi dasturlarini tasdiqlash. ❖ Professor o'qituvchilarining shaxsiyishrejalarini tasdiqlash. ❖ Kafedra ish rejasini va majlislar ish rejasini tasdiqlash. ❖ Pedagogikamaliyotishrejasini tasdiqlash	Kafedra mudiri
4.	Xar xil masalalar	

Birinchi masala yuzasidan kafedra mudiri F.U.Qodirova yuqori tashkilotlardan kelgan buyruqlar ijrosi haqida ma'lumot o'qib eshtirildi:

545 - son ilmiy va innovatsion faoliyatni boshiarish tizimini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida buyruq o'qib eshtirildi.

Ikkinci masala yuzasidan kafedra mudiri F.U.Qodirova - kafedrasining 2021-2022-o'quv yiliga rejalashtirilgan ishlardan yuzasidan axborot o'qib eshtirildi: kafedraning o'quv yiliga rejalashtirilgan ishlardan ilmiy tadqiqotchilarni dissertatsiya ishini tayyorgarligi, kafedra professor o'qituvchilar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarning olib borilishi, professor o'qituvchilar tomonidan ilmiy maqollalar nashr etilishi, shuning kafedrada faoliyat olib borayotgan mustaqil tadqiqotchilarning ilmiy ishlarni yanada faolllashtirish bo'yicha ma'lumot eshitildi.

Uchinchi masala yuzasidan kafedra mudiri F.U.Qodirova -

❖ Kafedra yillik o'quv yuklama soatini tasdiqlash.

❖ Kafedra professor-o'qituvchilarining yillik o'quv yuklama soatini tasdiqlash.

❖ Professor-o'qituvchilarining kalendar reja va ishchi dasturlarini tasdiqlash.

❖ Professor - o'qituvchilarning shaxsiyishrejalarinitasdiqlash.

❖ Kafedra ish rejasi va majlislar ish rejasini tasdiqlash.

❖ Pedagogikamaliyotishrejasinitasdiqlandi

To'rtinchi masala yuzasidan har xil masalalarda kafedra professor o'qtiuvchilarining 2021 va 2022-o'quv yilida bajarilidigan ilmiy tadqiqot ishlardan yuzasidan kafedra professor o'qituvchilarning axboroti eshitildi:

I.Q. Sayfullayeva- 2021-yilda ilmiy rahbar va ilmiy ish mavzusi tasdiqlangan va OAK byullitenida e'lon qilingan. Hozirgi kunda mavzu bo'yicha o'quv qo'llanma tayyorlangan va dissertatsiyaning birinchi bobu bo'yicha ishlarni olib borilmoqda.

Har xil masalalarda, A) kafedra mudiri F.U.Qodirova professor o'qituvchilarini ishga qabul qilishda shaffoflikni ta'minlanganligi bo'yicha axborot eshitildi. Pedagoglarni ishga qabul qilish yo'riqnomasa bilan tanishtirildi. Institutda pedagoglarni ishga qabul qilish bo'yicha ishchi guruh tashkil qilinganligi va ishga qabul qilish shartalari bilan tanishtirildi. Ishga qabul qilishda pedagoglarni nashr

ishlari va ilmiy ishlari haqida ma'lumotlar taqdim etish lozimligi ham aytib o'tildi.

B) kafedra mudiri F.U.Qodirova kredit modul tizimi bo'yicha axborot eshitildi. Axborotda talabalarga kredit modul tiziminining mazmuni va 2021 va 2022 o'quv yilida haftalik soat 26 haftaga tushurilganligi ta'kidlandi. Shuningdek, talabalarga kredit modul tizimi bo'yicha ma'lumotlarni guruh murabbiylar zimmasiga yuklatilsin deb qnyd etildi.

V) kafedra mudiri F.U.Qodirova so'zga chiqib, kafedra ilmiy tajqiqotchilarining ilmiy ishlari bo'yicha axborot berildi. Jumladan kafedra katta o'qituvchisi S.J.Achilovaning dissertatsiya muhokamasi 2021 fevral oyida kafedrada ko'rilganligi, dissertatsiya ishi yuqunlangan bo'lib 3-senyatbr oyida S.J.Achilovaning dissertatsiya ishi muhokamasi metodologik semenarga qo'yildi.

Kafedra v.b. dotsent G.Abdullaevaning "Nogironligi bo'lgan talmabalarning axborot texnologiyalardan foydalanganligi haqida inklyuziv oliv kasbiy ta'limi" (pedagogika OTM lar misolida) dissertatsiya mavzusi OAK byullitenida e'lon qilingan va dissertatsiya ishinining rejasi hamda birinchi bobo ustida ish olib borilmoqda hamda dissertatsiya tadqiqot ishlari bo'yicha tajriba sinov ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, kafedra o'qituvchilardan I.Sayfullaeva va X.Yunusovalar mustaqil tadqiqotchi bo'lib, dissertatsiya mavzusi OAK byullitenida e'lon qilingan va dissertatsiya ishinining rejasi hamda birinchi bobo ustida ish olib borilmoqda.

G) kafedra mudiri F.U.Qodirova so'zga chiqib yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarni faol jalb ettilishi bo'yicha kafedra ilmiy semenar rejalarini ko'rildi. Hamda dasturlarni ishlab chiqishdagagi kadrlar iste'molchilarining ishtiropi bo'yicha dastur ishlab chiqildi va kafedrada slayd orqali mazmuni o'rnnildi. Ushbu dasturla maxsus maktablar va ko'p tarmoqli maxsus maktabgacha ta'lim muassalarlar bilan tuzilgan shartnomalar yozildi, muassasalar tanlanganligi ta'kidlab o'tildi va mutaxassislar ishga jalb etildi.

Har xil masalalarda kafedra mudiri F.U.Qodirova so'zga chiqib, kafedra professor o'qituvchilarini ishga qabul qilish bo'yicha ma'lumot berdilar. Yangi qabul qilingan stayer o'qituvchilardan Z.Baxodirova, Sh.Qobilova, M.Dexqonova, O.Ishmatova, va Sh.Ibodullaevalar ochiq

dars o'tish asosida ishga kirish bo'yicha tahlil etib borildi. Ishga qabul qilishda oliy ta'lim talablari bilan tanishitirilib o'tildi.

Har xil masalalarda kafedra mudiri F.U.Qodirova so'zga chiqib, mustaqil ta'lim bo'yicha topshiriqlarni bajarish bo'yicha o'qitiladigan fanlardan vazifalar belgilandi.

Kafedra professor o'qituvchilar o'tiladigan fanlarga mustqil ta'lim dasturni tayyorlash lozimligi ta'kidlab o'tildi.

QAROR QILINDI:

- 1.Yuqori tashkilotlardan kelgan buyruqlar ijrosi. Ijro intizomi bajarib qo'yilsin
- 2.“Defektologiya” kafedrasining 2021-2022 o'quv yiliga rejalashtirilgan ishlar yuzasidan axborotlar qabul qilinsin.
- 3. Taqdim etilgan barcha xujjalatlar tasdiqlansin.
 - ❖ Kafedra yillik o'quv yuklama soatini tasdiqlansin.
 - ❖ Kafedra professor-o'qituvchilarining yillik o'quv yuklama soatini tasdiqlansin
 - ❖ Professor-o'qituvchilarning kalendar reja va ishchi dasturlarinini tasdiqlansin.
 - ❖ Professor - o'qituvchilarning shaxsi ish rejalarini tasdiqlansin.
 - ❖ Kafedra ish rejasni va majlislar ish rejasini tasdiqlansin.
- Pedagogikamaliyotishrejasinitasdiqlansin
- 4. Ko'rilgan masala yuzasidan ma'lumotlar qabul qilinsin.
- F.U.Qodirova professor o'qituvchilarni ishga qabul qilish bo'yicha axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
 - Talabalarga kredit modul tizimi bo'yicha ma'lumotlarni guruh murabbiylar zimmasiga yuklatilsin.
 - kafedra mudiri F.U.Qodirova axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
 - Mustaqil tadqiqotchilarning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin
 - Mustaqil tadqiqotchilarning xisoboti har 2 oyda kafedraga taqdim etilsin.
 - Dasturlarni ishlab chiqishdagi kadrlar iste'molchilarning ishtiroti bo'yicha axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin.
 - Qaror ijrosini ta'minlash mas'ullarga yuklatilsin. Qaror ijrosini nazorat qilish kafedra muditi F. U. Qodirovaga yuklatilsin.

- Ishga qabul qilish bo'yicha F.U.Qodirova axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
- Mustaqil ta'lim dasturi bo'yicha F.U.Qodirova axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Kafedra mudiri:

F. U. Qodirova

Kotiba:

S. J. Achilova

Har bir tashkilot yoki muassasada, ularning bo'lim va tarmoqlarida yig'ilishlar muntazam ravishda bo'lib turganligi uchun ular tartib raqami bilan rasmiylashtiriladi. Zaruriyat yuzasidan majlis bayonnomasidan ko'chirmalar berilishi ham mumkin. Ko'chirma uazmuni ham aynan bayonnomaning o'zi bo'ladi. Farqi shundaki, Bayonnomma so'zi o'rniiga Bayonnomadan ko'chirma yoziladi. Qaysi musala bo'yicha ko'chirma olish lozim bo'lsa, faqat o'sha qism olinadi va oxirida ko'chirmaning asliga to'g'ri ekanligini tasdiqlovchi imzo qo'yiladi.

Masalan:

Alisher Navoiy nomidagi SamDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2002-yil 28 noyabrda bo'lib o'tgan 5-majlisi bayonnomasidan

K O' C H I R M A

II. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o'mi" mavzusida o'tkazilgan

konferensiya yakuni to'g'risida.

ESHITILDI: kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan kafedra mudiri prof. S.A.Karimov quyidagilarni bildirdi: "Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o'mi" mavzuidagi Kolqpro ilmiy konferensiya muvaffaqiyatli o'tdi, deyishga asoslarimiz bor. Bu konferensiyada kafedra professoro'qituvchilari faol

qatnashdilar. Tadbirning muvaffaqiyatli o'tishida o'z xizmatlarini ayamagan kafedra a'zolariga minnatdorchilimizni bildiramiz. Ayniqsa professorlar: B.O'rabloyev, B. Yo'ldoshev, dotsentlar J.Hamdamov, Q.Ulmonov va J.Eltazarovlarga kata rahmat. Turkiy tillar ravnaqi yo'lida sezilarli iz qoldirgan ulug' ajdodimiz M.Koshg'ariyga bag'ishlangan konferensiyaning Samarcanda o'tkazishlishi ayni muddao bo'ldi. Bu konferensiya yada aytigan fikrlar, ilmiy yangiliklar tadqiqotchilarimiz uchun qo'llanma, yo'l-yo'riq bo'la oladi desak yanglishmaymiz. O'tkazilgan tadbir to'g'risida prof. B.O'rabloyev, dots. Z.Aliqulov, f.f.n. J.

Eltazarovlarham o'z fikrlarini aytdilar.

Qaror qilindi:

1. Kafedra mudiri prof. S.A.Karimovning "Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusida o'tkazilgan konferensiya yakuni to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Ko'chirma asliga to'g'ri

Kotiba

M.BERDIQULOVA

BILDIRISHNOMA

Bildirishnomalar xodimning yoki quyi tashkilot rahbarining yuqori tashkilot rahbariga biron bir voqeа-hodisa munosabati bilan axborot tarzida yozilgan xatidir. Bildirishnomalar tashkilotda ishlaydigan xodimni mukofotlash yoki jazolash haqidagi taklif, belgilangan rejaning bajarilganligi yoki jarayonning boorish tafsiloti mazmunida bo'lishi mumkin. Bu hujjatning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bildirishnomalar muallifi yuqori tashkilot yoki uning rahbarini ma'lum voqeа-hodisa to'g'risida xabardor yoki ogoh etishi bilan birga bu voqeа-hodisaga o'z munosabatini ham bildiradi hamda aniq takliflarini bayon qiladi. Shundan kelib chiqib, bildirishnomani boshda bu nomaning yozilishiga sabab bo'lgan omillar, keyin muallifning unga

bo'lgan munosabati va oxirida aniq taklif-mulohazalari bayon etilgan qismlardan iborat deyish to'g'ri bo'ladi. Bildirishnoma yuboriladigan tushkilot va rahbarning lavozimi va ism familiyasi, bildirishnomani yozgan kishi yoki tashkilot va uning rahbarining lavozimi va ism-familiyasi, lozim bo'lganda, bildirishnomaning nima haqda yozilayotganini bildiruvchi sarlavha hamda yangi qatorda Bildirishnoma degan so'z, shundan so'ng xat mazmuni va oxirida bildirishnomani tayyorlagan xodim yoki rahbarning imzosi hamda sana yozilgan zaruriy qismlardan iborat.

Bildirishnomaga ayrim namunalar keltiramiz:

SamDU o'zbek filologiyasi fakulteti
dekani dotsent O.I. Qurbonovga o'zbek tilshunosligi
kafedrasи dotsenti Z.Aliqulov tomonidan

B I L D I R I S H N O M A

2018-yilning 15-yanvar kuni Siz rahbarlik qilayotgan fakultet II kurs talabalaridan Ahmedova Lola, Suyunova Dilnoza, Ubaydullayeva Shahnoza va Razzoqova Komilalar “Hozirgi o'zbek tili” fanidan o'tilgan darsga uzrsiz qatnashmaganligini ma'lum qilaman va sabablari aniqlangach, belgilangan tartibda
chora ko'rishingizni so'rayman.

O'qituvchi
2018.16.01

dots. Z. ALIQUOV

B U Y R U Q

Nisbiy ma'noda mustaqil sanaladigan, o'z muhri va shtampiga ega bo'lgan tashkilot yoki muassasa doirasida yuritiladigan asosiy hujjatlardan biri bo'lib, shu tashkilot yoki muassasa uchun muhim hisoblanadigan vazifalar uning yordamida hal etiladi. Huquqiy hujjat bo'lgan buyruqni bajarish, mazmunidan kelib chiqib uni ijro etish vazifasi yuklatilgan shaxslar uchun majburiy sanaladi. Ijrosi amalga oshmay qolgan taqdirda esa bu shaxslarga nisbatan ma'muriy chora ko'riliши mumkin. Shuning uchun buyruqni chiqarish murakkab jarayon hisoblanadi va zaruriyatga qarab unga imzo chekadigan rahbar, o'z o'rnbosarlari, tegishli bo'lim boshliqlari va mazkur buyruqni bevosita bajaruvchilar bilan oldindan kelishib olinadi. Oldindan o'ylab, kelishib chiqarilgan buyruq to'laligicha bajariladi hamda tashkilot va uning rahbariga obro' keltiradi. Hayotda buning aksi ham bo'lishi mumkin. Buyruqlar ikki yo'nalişda chiqariladi: asosiy faoliyatga va kadrlarga tegishli buyruqlar. Tashkilot yoki muassasaning asosiy faoliyati birinchi turdag'i buyruqlar asosida olib boriladi. Ular asosida xodimlarning kunlik va haftalik ish vaqtiga, o'quv yurtlaridao'qituvchining o'quv soatlari hajmi, amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalar, ma'naviy va moddiy rag'batlantirish, maosh belgilash va lozim bo'lganda ma'muriy choralar ko'rish, ma'lum sanalarda amalga oshiriladigan tadbirlar singari holatlar rasmiy tarzda belgilab qo'yiladi. Bunday buyruqlar tashkilot yoki muassasaning o'z tashhabbusi, ba'zan yuqori tashkilotlardan kelgan buyruq, farmoyish va ko'rsatmalarni bajarish maqsadida yuzaga keladi. Ularning ijrosi har bir mahkamada o'zlarini belgilagan tartibda nazorat qilib boriladi. Buyruqning asl nusxasi O'zbekiston Respublikasi gerbi tushirilgan maxsus blankada qog'ozda rasmiy lashtiriladi. Dastlab yuqori tashkilot yoki vazirlikning nomi, shundan so'ng buyruq chiqaruvchi tashkilot yoki muassasaning nomi va o'rtada Buyruq degan so'z yoziladi. Uning pastidan chap tomonda hujjat sanasi, o'ng tomonda tartib raqami, bir oz pastdan o'rtada buyruq chiqqan joy nomi ko'rsatiladi. Yangi qatordan chap tomonda buyruqning nima haqda ekanligi, ya'ni sarlavhasi yozilgach, asosiy matn beriladi va oxirida tashkilot va muassasa rahbari tomonidan imzo chekiladi.

Masalan:

B U Y R U Q ' 06-ij

2010.06.01.

Psiyologik ekspertizalarni

o'tkazishni vaqtincha

to'xtatish haqida

**Pedagogika fakulteti ish faoliyatiga oid masalalarni
bir tizimga va tartibga keltirish maqsadida**

B U Y U R A M A N :

1. Psiyologiya kafedrasi xodimlari tomonidan tegishli hujjatlar rasmiylashdirilgunga qadar psixologik ekspertizalarni o'tkazishni vaqtinchalik to'xtatish pedagogika fakulteti dekani X.Ibrohimovga yuklatilsin.

2. Ushbu buyruqni tegishli idoralarga yetkazish, ularni xarbardor qilish va uning bajarilishini nazorat etish o'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.Mahmatmurodovga yuklatilsin. Asos: huquqshunos F.B.Valixo'jayeva kiritgan loyiha, xodimlar kasaba uyushmasi raisi U.Z.Zohidov, prorektorlar M.Muhiddinov, A.S.Soleyev, I.R.Pardayevlar roziligi va rektor R.I.Xolmurodovning munosabat belgisi.

Rektor

XOLMURODOV R.I.

Buyruqlar matnidan shu narsa ma'lum bo'limoqdaki, uning dastlabki qismida ushbu buyruq nima uchun chiqarilayotgani, bunga bo'lgan omillar ko'rsatib o'tiladi. Shundan so'ng nimalarni nimalga oshirish to'g'risida farmoyish va ko'rsatmalar beriladi hamda bu bir bandda mumkin qadar uning ijrochisi va ijro muddati ham ko'rsatib beriladi. Va niroyat, buyruqning oxirida ijro muddati va bu ijroni kim nazorat qilib borishi lozimligi ham aniq ko'rsatib o'tiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, buyruqning loyihasi uning bajarilishiga aloqador bo'lgan barcha mutasaddi kishilar tomonidan imzolanishi lozim. Eng muhimi, u tashkilot yoki muassasa huquqshunosi ko'riganidan o'tishi va uning ham imzosi bo'lishi shart. Shunday qilinganda bu hujjat huquqiy jihatdan asosli va mustahkam bo'ladi. Chunki huquqshunos unga imzo chekishdan avval buyruqning qonuniy

jihatlari to'g'risida o'ylab ko'radi, uning amalda qonunlar, hukumat va tegishli vazirliklar hamda shu tashkilot tomonidan avval chiqarilgan buyruqlarga mos kelish-kelmasligini tekshirib ko'radi. Kadrlar to'g'risidagi buyruqlar bu hujjatning ikkinchi bir turini tashkil etadi. Ular xodimlar ishga qabul qilinganda yoki bo'shatilganda, shu tashkilot yoki muassasa ichida boshqa vazifaga o'tkazilganda, mehnat ta'tiliga chiqqanda yoki ma'naviyomoddiy rag'batlantirilganda, boshliq ta'tilga ketib, uning o'miga vaqtinchalik o'rinnbosari yoki boshqa bir xodim tayinlanganda, xodim malaka oshirishga yoki xizmat safariga jo'natilganda chiqariladi. Bunday buyruqlarga odatda quyida ishlaydigan rahbar va boshliqlarning bildirishnomasi yoki tavsiyanomasi, xodimning arizasi yoki boshqa omillar asos va sabab bo'lishi mumkin. Zarur bo'lgan holatda ijro etuvchilarga, xodimga yoki taqdim etilishi lozim bo'lgan idoraga buyruqdan ko'chirma beriladi. Unga kadrlar bo'limining boshlig'i Asliga to'g'ri deb yozadi, imzo chekadi va muhr bosadi. Bu mazmundagi buyruqlar ham albatta yuqorida aytigelan tartibda huquqshunos ko'rigidan o'tkaziladi.

Annotatsiya - asosan alohida nashr hisoblanadigan o'quv qo'llanmalar, darsliklar va monografiyalarga yozilib, ularda asarning qisqacha mazmuni, ahamiyati, kimlarga mo'njallab yozilgani o'z ifodasini topadi.

Ariza - insonlar hayotida eng ko'p foydalilanadigan hujjat hisoblanadi. bir kishi tomonidan tashkilot, korxona yoki muassasa rahbari nomiga yoziladi.

Buyruq - nisbiy ma'noda mustaqil sanaladigan, o'z muhri va shtampiga ega bo'lgan tashkilot yoki muassasa doirasida yuritiladigan assosiy hujjatlardan biri bo'lib, shu tashkilot yoki muassasa uchun muhim hisoblanadigan vazifalar uning yordamida hal etiladi. Huquqiy hujjat bo'lgan buyruqni bajarish, mazmunidan kelib chiqib uni ijro etish vazifasi yuklatilgan shaxslar uchun majburiy sanaladi.

Tashqi hujjat – korxonaga, boshqa tashkilot va ayrim shaxslardan keladigan hujjatlardir. Bularga taklifnomalar, ishonchnoma, yo'riqnomalar, kafolat xati, tavsiyanoma va boshqalar kiradi.

Murakkab hujjat – bir necha masalani o'z ichiga olgan hujjattadir. Bularga shartnomalar ma'lumotnomalar, rejalashtirilgan hisobot hujjatlari va boshqalar kiradi..

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Hujjat yuritishni bilish nima uchun kerak?
2. Davlat ishlarini yuritish qanday tartibga solinadi?
3. Ish yuritish doirasidagi qanday hujjatlarni bilasiz?
4. Rasmiy va shaxsiy hujjatlarning tili va uslubi qanday bo'lishi kerak?

12-MAVZU: NOTIQLIK SAN'ATI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

REJA:

1. Nutq madaniyati tarixi haqida tushuncha
2. Nutq madaniyati va hozirgi zamon tilshunosligining o'zaro bog'liqligi
3. O'zbek adabiy tili normalari

Tayanch tushunchalar: nutq, nazm, aruz, mantiq, madaniyat, o'qituvchi, norma, adabiy til

Nutq madaniyati haqidagi ta'lilot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Ushbu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo - sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqliknini san'at darajasiga ko'tardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarining obro' - e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi, ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan.¹ Mashhur notiq Tsitseron: «Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lish kerak», degan ekan. Bu gapda katta hikmat bor. Harbiy sarkardaning itoatida ko'p sonli lashkar bo'lishini tasavvur qilsak, bu so'z tasodifiy o'xshatish emasligiga amin bo'lamiz. Grek va Rim notiqlari Aristotel, Demosfen, Tsitseron, Kvintilian kabi nazariyotchilarining hayotiy tajribalari ham bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik san'atining o'ziga xos maktabini yaratdilar. Tsitseronning

«Notiqlik haqida», «Notiq», «Brut» asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning «Notiq bilimi haqida», Aristotelning «Ritorika» kabi asarlari ham qadimgi Gretsiya va Rimda madaniy nutq, notiqlik nazariyasi ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o'ziga xos mavqega egadir. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya'ni va'zxonlik

«Qur'on»ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ulhamiyati, ma'nosi va undan o'rinli foydalinish borasida ko'p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtai nazardan qaralsa, «Nutq odobi», «Muomila madaniyati» nomlari bilan yuritilib kelingan «nutq madaniyati» tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyorilarning diqqatini tortgan: Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalalariga, umuman nutqqa jiddiy e'tibor berish bilan birga tilga, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozganlar. Buyuk qomusiy olim Beruniy (973-1048) o'zining «Geodeziya» asarida har bir fanning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir.

Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va chiroyli nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ulhamiyati kattaligi haqida shunday deydi: «Qanday qilib ta'llim berish va ta'llim olish, fikrnı qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilumlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...».¹

Kaykovus tomonidan 1082-1083 yillarda yaratilgan, qadimgi shurq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri hisoblangan «Qobusnama» da ham nutq odobi va madaniyati haqida fikrlar aytilgan.

Madaniy gapishtishga intilish tushunchasi barcha xalqlarda qadimdan mavjuddir. Bu tushuncha ma'lum lingvistik me'yorlar, etik va estetik talablar bilan aloqador bo'lgan tushunchadir. Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va millat mi'mnaviyatini belgilovchi (ko'rsatuvchi) etik va estetik kategoriyadir.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me'yorlashga (uni qayta ishslash va boyitishga) qaratilgan harakatlarga emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko'tarish, odamlarga ma'lum «til didi» - ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Nutq madaniyati termini hozirgi zamon tilshunosligi talqinida uch xil hodisani ifoda etadi:

1. madaniy nutqning, ya'ni nutqiy hodisaning nomi;
2. madaniy nutq tushunchasi bilan bog'liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi;
3. nutq madaniyati muammosini o'rganish bilan shug'ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo'limining nomi.
4. Keltirilgan uchta hodisaning har biri murakkab ko'rinishlariga, qirtalariga ega, ularni bir-biri bilan qorishtirmaslik lozim!
5. Yuqorida bayon etilgan barcha mulohazalar nutq madaniyati tushunchasini tushunish va ta'riflash tilshunoslikda hozir quyidagi ko'rinishlarga ega degan xulosaga kelish imkonini beradi:
 6. Nutq madaniyati adabiy til rivojining o'ziga xos xususiyatlaridan biri (Praga lingvistik maktabi).
 7. Nutq madaniyati (til madaniyati) --- bu adabiy til normalarining shakllanishi va silliqlanishiga yordamlashishdan iborat bo'lgan faoliyat, ya'ni til rivojiga ongli aralashuvdir (Praga lingvistik maktabi).
 8. Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahoratidir (A.Gurevich va b.).
 9. Nutq madaniyati (til madaniyati) --- bu adabiy til normalarining shakllanishi va silliqlanishiga yordamlashishdan iborat bo'lgan faoliyat, ya'ni til rivojiga ongli aralashuvdir (Praga lingvistik maktabi).
 10. Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahoratidir (A.Gurevich va b.).
 11. Nutq madaniyati kishilarning o'zaro to'liq va teran fikrlashishi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir (B.N.Golovin va b.).
 12. Nutq madaniyati faqat to'g'ri nutqgina emas, balki uquvlilik

Immda nutqiy chechanlik hamdir (G.O.Vinokur va b.).

13. Nutq madaniyati til vositalaridan o'rini foydalangan holda maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir. (A.I.Esimov).

14. Nutq madaniyati bu avvalo fikrlash madaniyatidir. (D.I.Rozental va boshqalar)

15. Milliy o'ziga xosligi bilan ham ajralib turuvchi nutq madaniyati nutqdir. (M.Agafanova).¹

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rjanmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir».² Maktabda nutq tadbirkorligini singdirish o'qituvchining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashg'ulotgacha o'quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

Boshqacha aytganda «Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdag'i, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, fizika yoki turix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali quollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroqli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyalida, asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir».³

Til va nutq bir-biriga bog'liq, dialektik munosabatdag'i hodisalardir. Ularni bir - biridan ajratib qarash asossizdir. Til nutq uchun moddiy materialdir. Shu material asosida esa nutq tashkil topadi.

O'zbek adabiy tili normalari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik - semantik norma.
2. Talaffuz - (orfoepik) norma.
3. Yozuv (grafika) normasi.
4. Fonetik norma.

5. Aktsentologik (urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash) norma.
6. Grammatik (morphologik va sintaktik) norma.
7. So‘z yasalish normalari.
8. Imloviy norma.
9. Uslubiy norma
10. Punktatsion norma.¹

Adabiy normaning og‘zaki va yozma ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, og‘zaki adabiy normaning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifago‘y xalq shoir

- baxshilari katta hissa qo‘shsalar, yozma adabiy normaning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiriladigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir. Umuman olganda, adabiy til normasini o‘rganish yangi hodisa emas. Til normasi va adabiy norma muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olingunga qadar ham o‘rganib kelingan. Adabiy til normasi, uning shakllanish, rivojlanish, stabillashuv qonuniyatlarini nutq madaniyati sohasining tekshirish ob‘ekti hisoblanadi.

Nutq madaniyati sohasining adabiy til normasiga yondashuvi quyidagi xususiyatlari bilan grammatik munosabatda farq qiladi.

a) nutq madaniyati adabiy til normasidagi o‘zgarib, buzilib turuvchi nutqiy nuqsonlarni yuzaga keltiruvchi xususiyatlarni topishi va ularni tuzatishga intilishi lozim;

b) nutq madaniyati adabiy til normasini doimiy rivojlanib, o‘zgarib turuvchi hodisa sifatida tekshirishi va adabiy til normasi sistemasidagi yangi holatlarni, o‘zgarayotgan, o‘zgargan holatlarni, shuningdek, «o‘lgan», iste’moldan chiqqan holatlarni hisobga olishi kerak.

v) nutq madaniyati adabiy til normasi sistemasidagi qarama-qarshi holatlarni belgilashi hamda tilning barcha yaruslari bo‘yicha tekshirishi lozim.

Nutq madaniyati adabiy normani ma’lum maqsad bilan, anig‘i madaniy nutqning chegarasi va vositalarini aniqlash maqsadida o‘rganadi. Shu sababli, nutq madaniyati sohasi adabiy til va uning normativ sistemasini baholaydi va nazorat qiladi. Nutq madaniyati sohasi adabiy tilga yondashadi, ya’ni adabiy til rivojiga ongli aralashadi.

Ma’lumki, tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. U jamiyat taraqqiyoti, mehnat

fqliyati jarayonida yuzaga keladigan, faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojlangan sari til ham shakllanib boradi. Demakki, shu tilda so'zlashuvchi millatning ma'naviyati yuksalib, nutqiy malakasi ortib boradi. Aks holda til tanazzulga yuz tutadi. Bu esa nutqiy malakaning so'nishiga, ma'naviyatning qashshoqlanishiga olib keladi.

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi sanaladi. Lekin ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy quroq shu jamiyatning yagona tili hisoblanadi.

Inson nutq faoliyatida adabiy til madaniyatni qoidalarini nuukammal bilgani holda, ayniqsa, badiiy adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni o'qishi, radio va televidenieni kuzatib borishi orqali bunda tinimsiz mustaqil shug'ullanishi natijasida nutqiy malakaga ega bo'ladi.

Adabiy til madaniyatini chuqur egallagan insongina nutq madaniyatiga ega bo'ladi. Adabiy til madaniyatini egallashda tilga bo'lgan e'tibor, unga chinakam muhabbat va hurmat muhim rol o'yinaydi. Adabiy til va uning normalarini shunchaki qiziqish, yoki u bilan nomigagina shug'ullanish orqali egallab bo'lmaydi.

Iusonning nutq faoliyati uch ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Bular - so'zlash, mutolaa qilish va eshitish. So'zlash deyilganda, o'zlovchining ma'lumot, maslahat berishi, buyurishi, o'ziga noma'lum bo'lgan narsalar haqida so'rashi tushuniladi. So'zlaganda o'zlovchining bilimi, madaniyati, axloqi, odobi yuzaga chiqadi. So'zlashning monologik va dialogik ko'rinishlari mavjud.

Mutolaa qilish o'quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrnzlari bilan muloqatidir. Mutolaa tufayli yozma nutqda aks etgan voqe - hodisadan xabardor bo'ladi.

O'rta maktabda ta'lim olayotgan yoshlarni, ya'ni, jamiyatning yangi ijtimoiy kuchlarini etishtirishda o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Jamiyat o'qituvchining qo'liga yosh avlodni, ya'ni o'z kelajagini uchonib topshiradi. Uning kamol topishida o'qituvchining nutqi o'ta muhiimdir. Demak, o'qituvchilik kasbi insonparvarlik, yataqparvarlik, yuksak madaniyat bilan birga yuqori darajadagi nutqiy malakaga ham ega bo'lishini talab qiladi.

Nutq - (arabcha) fikrni so‘z orqali ifodalash.

Nazm - (arabcha) she’riy asar: she’riyat janri, she’r o‘lchovi.

Nasr - (arabcha) proza, prozaik asar, proza janri.

Aruz-she’r tuzilishida qisqa va cho‘ziq hijo (bo‘g’in) - larning ma’lum tartibda guruhlanib, takrorlanib kelishiga asoslangan vazn sistemasi. Aruz vazni.

Mantiq - (arabcha) tafakkur shakli va qonunlari haqidagi fan: logika.

Madaniyat - (arabcha) ta’lim - tarbiyalik va zillilik.

O‘qituvchi – biorta fandan dars beradigan shaxs.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Til madaniyati bilan nutq madaniyati qaysi jihatlariga ko‘ra o‘zaro farq qiladi?
3. Adabiy norma nima ? U nimaga asoslanadi?
4. Nutqiy malakaga qanday erishish mumkin?

13-MAVZU: NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI

REJA:

1. Notiqlik turlari.
2. Nutq ko'rinishlari
3. Nutqning kommunikativ sifatlari

Tayanch tushunchalar: notiqlik, nutq, morfologiya, sintaksis, grammatik norma, adabiy til, sheva

Siyosiy-ijtimoiy notiqlik:

1. Siyosiy-ijtimoiy va siyosiy iqtisodiy mavzudagi nutq.
2. Sessiya, konferentsiyadagi nutq.
3. Siyosiy nutq.
4. Diplomatik nutq.
5. Siyosiy sharh.
6. Harbiy vatanparvarlik nutqi.
7. Miting nutqi.
8. Ilmiy-ommabop nutq.

Akademik notiqlik:

1. O'quv yurtlari ma'ruzalari.
2. Ilmiy nutq (ma'ruzalar).
3. Ilmiy sharh.
4. Ilmiy axborot.

Sud notiqligi:

1. Qoralovchi (prokuror) nutqi.
2. Jamoatchi-qoralovchi nutqi.
3. Oqlovchi (advokat) nutqi.
4. Jamoatchi-oqlovchi nutqi.
5. O'z – o'zini himoya qilish nutqi.

Tilimizda morfologik, sintaktik chalkashliklar tez-tez uchrab turadi. Ko'pchilik holatlarda kelishik qo'shimchalari farqlanmasdan ishlataladi. Bu esa ba'zan mazmunda xatolikka olib kelishi mumkin: Umrini tog'larda o'tkazgan odamning tabiat tilini bilmaydi, deyish qiyin. («Qishloq haqiqati»). Tilimizning mohir bilimdoni A.Qahhor ham qaratqich va tushum kelishigining ba'zan farqlanmay ishlatalishidan o'zining «San'atkor» hikoyasida asar qahramonining savodsizligini fosh etishda ustalik bilan foydalanadi.

Xullas, ona tili xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlash va ularni joy - joyida ishlatish, ya'ni nutqning to'g'ri tuzilishiga erishish nutq madaniyatining asosiy talablaridan biridir.

Nutqning aniqligi. — nutqning aniqligi so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri ekanligi qadimdan ma'lum. G'arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqliknı nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblaganlar. Aristotel: «Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi»,-- degan, Kaykovus: «Ey farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qitgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtindagi so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang, qushga o'xshaysan...», deydi.² Yana «Shunday kishini notiq (suxango'y) deymizki, uning har so'zi xalqqa tushunarli bo'lsin va xalqning har so'zi unga ham ma'lum bo'lsin».

Aniqlik nutqning muhim xususiyati, fazilati sifatida fikrni yorqin ifodalash bilan, nutq predmetining ma'nosi bilan, nutqda ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq bo'ladi. Agar notiq o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga xos so'zlar tanlasa va o'zi tanlagan so'zlarning ma'nolariga mos vazifalar yuklasa, nutqning aniq bo'lishi tayin. Demak, aniqlik nutqda so'z qo'llash me'yorlariga amal qilishdan iborat. Bu jihatdan aniqlik to'g'rilikning boshqacha ko'rinishi hisoblanadi. Ba'zan notiq o'zi ishlataladigan so'zning ma'nosini bilishga uncha e'tibor bermaydi. Natijada so'zning ma'nosi nutqdan ko'zda tutilgan maqsadga mos kelmaydi. Ko'pincha bunga bir-biriga yaqin narsalarni anglatuvchi so'zlar sabab bo'ladi. Masalan: Abdulla Qahhor yozuvchi Ma'ruf Hakimning «Qahramonning o'limi» hikoyasini tahlil qilib, «Botir beliga qator beshta bomba qistirib...», «Qo'liga

bomba ushlagan holda ko'chaga yugurdi» jumlalaridagi bomba so'zining noto'g'ri qo'llanilayotganligini, yozuvchining bomba va granatani farqlamasligini tanqid qiladi.¹

Aniqlik ikki xil bo'ladi: narsaning aniqligi va tushunchaning aniqligi. Narsa aniqligi nutqda aks etgan mavjudlikning narsalar, hodisalar doirasi bilan nutq mazmunining munosabatida ko'rindi. Nutqda mavjudlikning narsa va hodisalari to'g'ri aks etishi uchun notiq o'zi so'zlayotgan narsalarni yaxshi bilgan bo'lishi lozim. Nutq predmetini bilmaslik yoki chala bilish, shuningdek, ularni o'rganishda loqaydlik qilish orqasida yuzaga kelgan noaniqlik yoqimsiz bo'lib, tinglovchini ranjitadi. Masalan: «Na tashkilotchilik, na rahbarlik, na bilimdonlik qobiliyati bo'limgan kishi birdaniga kimning nazariga tushdi?».

Ko'rindik, so'zlovchi **na** yuklamasining nutqdagi ma'nosi - ma bo'lishsizlik qo'shimchasi anglatgan ma'noga teng ekanligini unutgan. Odatda **na** inkor yuklamasi ishtirot etgan gaplarning kesimi bo'lishli shaklda bo'ladi.

Nutqning har tomonlama to'g'ri bo'lishi uchun narsa aniqligining o'zi etarli emas. Tushunchaviy aniqlik nutq mazmunining unda belgilangan tushunchalar tizimiga mos kelishini talab qiladi.

Shunday qilib, aniqlik nutqning aloqaviy fazilatlaridan biri bo'lib, u moddiy borliq bilan nutq mazmunining mosligi sifatida yuzaga chiqadi.

Aniq nutq yaratish so'zlovchidan quyidagilarni talab etadi:

tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakligini ajratib, nutqda qo'llash;

nutqda ishlataladigan so'zning anglatgan ma'nolarini har tomonlama bilish;

v) so'zning ko'p ma'noligiga jiddiy e'tibor berish, ko'p ma'noli so'z nutqda qo'llanganda uning qaysi ma'no qirrasini ko'zda tutilayotganini aniq tasavvur qilish; fikrning yuzaga chiqishida bu so'zning boshqa ma'no qirralari monelik qilish-qilmasligini ko'z oldiga keltirish;

g) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik omoglikning buzilishiga olib keladi;

paronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e'tibor berish; tor muhitda ishlataladigan, chetdan kirgan, kasb-hunarga oid,

arxeaiq, eskirgan, dialektizm so'zlarning ma'nolarini yaxshi anglagan holda nutqqa kiritish.¹

Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda eng avvalo, uning adabiy tilning lisoniy normasiga muvofiq kelish - kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, yaxshi, toza nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, turli til, g'ayriadabiy til elementlaridan holi bo'lishi kerak.² Nutqimizning sofligiga, asosan, quyidagilar halaqit beradi:

Mahalliy dialekt va shevalarga xos so'z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so'z va so'z birikmalarining talaffuzi, urg'usi.

O'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari.

Jargonlar.

Vulgarizmlar.

Nutqda ortiqcha takrorlanadigan «parazit» so'zlar.

Kantselyarizmlar.

Sanab o'tilganlardan o'rinsiz foydalanish kundalik nutqni ham, badiiy nutqni ham xiralashtiradi. Har bir so'zlovchi o'z nutqining adabiy normalar darajasida bo'lishi uchun harakat qilishi lozim.³ O'z shevasiga xos bo'lgan til vositalarini nutqqa o'rinsiz olib kirish nutqni buzadi. Lekin dialektizm va varvarizmlar badiiy asar tilida ma'lum badiiy - estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi ham mumkin. Muallifning milliy koloritni berish uchun, asar qahramonining qayerlik ekanligiga ishora qilish uchun dialektizm va varvarizmlarga murojaat qilishi hatto zarurdir.⁴ Masalan: «Yoshulli, siz buni emas, meni tinglang! Bu manglayi qoraning sherigi bor» (T.Malik). Ushbu misolda dialektizmlar territorial koloritni berishga xizmat qilayotgan bo'lsa, quyidagi misolda varvarizmlar -chet so'zlar xarakter yaratishda yozuvchiga ko'maklashgan.

«Ishondim, o'rtoq. Hammasi yest bo'ladi. Uyda xaladiynada muzdag'i bor, olib chiqaymi? Sizga tekin (T.Malik).

Lahjaviy so'zlarning badiiy adabiyotda o'rni bilan ishlatalishi faqtgina maqsadga muvofiq bo'lib qolmasdan, adabiy tilimizning boyib borishiga, umumxalq tilidagi ayrim elementlarning saqlanib qolishiga xizmat qilishi ham mumkin. Masalan: nutq nihol o'tqazish haqida bo'lganida adabiy tilda varianti yo'q bo'lgan

«xancha» so'zi ishlatilsa va o'z o'mida unga izoh berilsa, o'rinli bo'lardi. Chunki bu so'z nihol o'tqazish uchun kavlangan chuqurchanering nomi bo'lib, boshqa chuqurchalarga nisbatan ishlatilmaydi.

Nutqda o'rinsiz ishlatilgan boshqa tillarga oid so'zlar varvarizmlar deb ataladi.

Ayrim kishilarning o'z nutqini nazorat qilmasligi, «yoqimli» so'z qidirishda erinchoqlik qilishi, ruscha atamalarining o'zbekcha shakllarini bilmasligi, ba'zi hollarda o'zining ruschani ham bilishligini namoyish etishga intilishi natijasida varvarizmlar nutqqa kirib keladi: Ertalab zvonit qildim, bibliatekaga bordim kabi. Keyingi paytlarda nutqimizda mana shunday so'zlarining ko'paygani juda achinarlidir. Ulardan qutulishning birdan-bir yo'li ona tilini har tomonlama chuqur o'rganish, unga hurmat bilan qarash, badiiy asarlarni ko'p o'qish, o'qiganda notanish so'zlarining ma'nosiga e'tibor berish va boshqalar. Ayrim kasb egalarining, ayrim guruhlarning o'z «tili» bo'lib, ular bu «til» orqali so'zlashda boshqalardan ajralishga, ifodalanayotgan fikrlarini kishilardan bekitishga intiladilar. Bunday so'zlar jargon so'zlar deb ataladi. Masalan, novcha (aroq), qizil (vino) - ichuvchilar nutqiga xos.

Vulgarizmlarga axloq normalariga to'g'ri kelmaydigan: kishini so'kishda, haqoratlashda ishlatiladigan so'zlar kiradi. Ularni ishlatish so'zlovchining past madaniyatli, qo'pol, johil kishi ekanligini ko'rsatadi. Badiiy adabiyotda ham ulardan foydalaniadi:

Uxlab o'tiribsanmi, xunasa?! Ming marta chaqirishim kerakmi?!(T.Malik). Parazit so'zlar deb ataluvchi lug'aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir.

Ular, asosan, so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi natijasida paydo bo'ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. A.Qodiriy «Mehrobdan chayon» romanida buxorolik Sharifboy nutqida «pa'lamat» («padar la'nat»)ni parazit so'z sifatida ishlatib, uning nutqini individuallashtirgan. Sharifboy har gapida bu so'zni qo'shib gapiradi.

«Sharifboy yostiqdan burilib, yonidagi uchinchi yigitga qaradi:

Pa'lamat, qachon kelgan ekan?»

«Kantselyarizm»lar ish qog'ozlari uchun zarur bo'lган, ма'lум бир шаклда саqlанадиган со'з биркмалари, гаплардир. Улар

o‘z o‘rnida juda zarur. Chunki ish qog‘ozlari qat’iy bo‘lgan ma‘lum shakllarni talab qiladi. Bunday «qat’iy shakllar», shablonlar so‘zlashuv nutqiga, badiiy adabiyotga, publisistikaga o‘tsa, nutqni buzishi mumkin. O‘rinsiz kantselyarizmlar majlislarda, kengashlarda, gazetalarda, radio va televideniyadagi nutqlarda ko‘plab uchraydi.

«Bundan 365 kun muqaddam siz bilan biz o‘z hayotimizda qat’iy burilish yasab, zo‘r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo‘ydik...» (A.Qahhor). Gapdag‘i «365 kun muqaddam», «qat’iy burilish yasab», «zo‘r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo‘ydik» birliklar siyqasi chiqqan bo‘lib, ular ijtimoiy hodisalarni ifodalashga moslashgan, bu o‘rinda esa nobopdir.

Nutqning mantiqiyligi. Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari bo‘lgan to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikri ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug‘aviy birlik ham mantiqnning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalanayotgan fikring to‘liq yetib bormasligiga, ba‘zan umuman anglashilmasligiga olib keladi. Nutqni tuzishdagi e’tiborsizlik natijasida ba‘zan mantiqsizlik yuz beradi. Quyidagi misolga e’tibor qiling «Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajaradilar (Gazetadan). Gapda so‘zlarining tartibi to‘g‘ri bo‘limganligi, «olti oylik» birikmasining «sotish» so‘zidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur yetyapti, hatto xato fikr ifodalanayapti.²

Nutqda mantiqiylikka erishish uchun qo‘llangan so‘zlar bilan ularning predmetlik ma‘nolari mos bo‘lishi lozim. Boshqacha aytganda, har bir so‘z nutqda qo‘llanganda, o‘ziga xos ma‘nonigina ifodalashi zarur.

Mantiqiylikni predmet mantiqiyligi va tushuncha mantiqiyligi deb ikkiga ajratish mumkin. Predmet mantiqiyligi nutqdagi til birliklarining o‘zaro ichki munosabatlarining mosligidan iborat. Tushuncha mantiqiyligi mantiqiy fikr tuzilishidan hamda bu tuzilishning nutqdagi til belgilaringin ma‘noviy aloqalaridan iborat. Tushuncha mantiqiyligi alohida olingan matnda fikriy ketma-ketlik, mantiqiy izchillik bo‘lishini taqozo qiladi. Ammo, bu talabni

nutqning hamma ko'rinishlariga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Masalan: ilmiy va badiiy nutq uslublarida bu talabga qanday amal qilinishini ko'rib chiqaylik. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir tuzilishga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo'lib, ular yagona bir halqaga birlashadi. Matnda berilgan fikrlar qat'iy izchillikda bayon qilinadi.

Badiiy nutq tuzilishi esa bir oz boshqacha. Aytaylik, fikrlar bir maromda bayon etib kelinadiyu, birdaniga uzilish yuz beradi, ya'ni boshqa voqealar hikoya qilinadi. Bu narsa go'yo mantiqiy izchillikka putur etkazganday ko'rinsa-da, aslida unday emas. Badiiy asarlarda, xususan, qissa, roman kabi janrlardagi keng qamrovlik tasvir qurilishini ana shunday tuzishni taqozo qiladi. Mantiqqa putur yetmaganligi bunday asarlarning oxirida ma'lum bo'ladi.

Xulosa shuki, nutqning mantiqiyligi deganda, yaxlit bir sistema asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga mos holda ishlatiladigan nutqni tushunamiz.

Nutqning ta'sirchanligi.

So'z kuchidan yiqlur minbar ham, dor ham,
So'z birla chiqar indan ilon – murdor ham.

(Abu Shukur Balxiy)

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyat ham e'tiborga olinishi lozim. Ya'ni, bunda notiq tinglovchilarni ularning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha, nutqining qanday qabul qilayotganigacha nazorat qilishi zarurdir. Professional bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lmagan kabi, oddiy, etarli darajada ma'lumotga ega bo'lmagan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish maqsadga muvofiq emas. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan fikrni to'laligicha tinglovchilarga to'liq yetkazishga harakat qilish vazifa qilib belgilanadi. Xo'sh, ta'sirchan nutq deganda qanday nutqni tushunmoq

kerak? B.N.Golovin aytganidek, ta'sirchan nutq tinglovchi va o'quvchining e'tiborini va qiziqishini hisobga oladigan nutqdir.

Omma tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ifodalanyotgan fikrga ishontira olish notiqlar oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun esa, yuqorida aytgilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasি bo'lishi kerak. Nutqdagи fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab tinglovchilarni nutq rejasи bilan tanishtirish lozim. Vaqtni hisobga olish notiqlik fazilatlaridandir. Chunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, iloji bo'lsa, nutq sal oldinroq tugatilsa, ayni muddao bo'ladi.

So'zlovchining o'z nutqiga munosabati ham muhimdir. Chunki shunday bo'lgandagina quruq rasmiyatchilikdan voz kechiladi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi. Notiq fikrlarini o'zi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir fikr mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta'sirli bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror va adabiy ko'chimlarning ham roli kattadir. Bulardan tashqari nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqollardan, matallar, hikmatli so'z va iboralardan, ayniqsa, frazeologizmlardan unumli foydalanish zarur. Yozuvchi A.Qahhor o'z hikoyalarida epigraf sifatida berilgan maqollar orqali o'quvchilar diqqatini darhol egalaydi. «Osmon yiroq - er qattiq» («Bemor»), «Otning o'limi – itning bayrami» («O'g'ri») va b.

Nutqning maqsadga muvofiqligi. Nutqning maqsadga muvofiqligi juda muhimdir. Nutq madaniyati adabiy til me'yorlarini puxta egallah va ulardan nutqda to'liq foydalanish demakdir.

Nutq madaniyati yuksak bo'lgan kishi, birinchidan, o'z nutqini to'g'ri, adabiy til me'yorlariga muvofiq tuzadi. Ikkinchidan, til vositalaridan eng muvofiq, eng zarurlarini tanlab olib, nutqning jozibali bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, nutqning ixchamligi, mazmundorligi ham katta ahamiyatga egadir.

Abulla Qahhor ta'kidlaganidek, «Kitobxonga bir fikrni yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishini boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerak», «Surat oldirayotgan kishi suratga

chiroyli va kelishib tushmoqqa behuda zo'r berib, o'zining tabiiy holatini buzganday, yozuvchi chiroyli va qoyil qilib yozishga zo'r bersa, adabiy asar uchun zarur bo'lgan tildagi soddalik, tabiiylik buziladi».

Nutq to'g'ri, ammo, ayni vaqtida tushunilishi qiyin bo'lishi mumkin. Nutq to'g'ri, biroq nutq so'zlanayotgan sharoitga mos bo'lmasiligi mumkin. Shuning uchun ham atoqli o'zbek shoir va yozuvchilar o'z asarlarini qayta-qayta ishlaganlar.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsin shunday yozadi: «Adib o'zini tahrir qilishi, asarlarida haykaltaroshdek g'adir-budur marmarni ishlab, jonli inson yaratishi kerak. F.Dostoevskiyning «Aka-uka Karamazovlar» romani qo'lyozmasini ko'rib, og'zim ochilib qoldi. Shu darajada ko'p tahrir qilinganki, ko'chiruvchi mashinachilarga juda qiyin bo'lgan bo'lsa kerak. Abdulla Qodiri, Oybek qo'lida yozgan, bir sidra oson yozilgan yaxshi asar yo'q, har qanday zako va etuklik ham tahriru ter to'kishni taqozo etadi».

Ko'rinaridiki, yozuvchilar so'z va so'z birikmalarining birini boshqasi bilan almashtirganda, normaga mosligini emas, maqsadga qay darajada muvofiq kelishini ko'zda tutadilar.

Ijtimoiy-maishiy notiqlik:

Madhiya (yubiley yoki maqtov
nutqi). Ta'ziya (motam) nutqi.

Tabrik nutqi (tost).

Diniy notiqlik:

Xutba.

Va'z.¹

Akademik notiqlik- ilmiy uslubdagi nutq

Sinegor- sud notiqligi

Suxandonlik- notiqlik sirlaridan bahramandlik

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1 Notiqlikturlarini sanab bering
- 2 Nutqko'rinishlari deganda nimani tushunasiz?
- 3 Nutqning kommunikativ sifatlarini misollar orqali tushuntirib bering

Glossary

Analizator - yuksak darajada rivojlangan hayvonlar va odam organizmining tashqi va ichki muhitdan kelib chiquvchi ta'sirlarni idrok, tahlil va sintez qilishini ta'minlovchi murakkab anatomiq-fiziologik tizim.

Analitik-sintetik tovush metodi - butun bir matndan gapni, gapdan so'zni, so'zdan bo'g'inni, bo'g'indan tovushni ajratib olish va aksincha, tovushlardan bo'g'inni, bo'g'indan so'zni, so'zlardan gapni tuzish yo'li bilan savod chiqarishni aks ettiruvchi metod. Analitik-sintetik tovush metodi asosan, tayyorlov guruhlari hamda birinchi sinflarda alifbegacha bo'lgan davrda qo'llanib, uning yordamida bolalar harflarni taniydiilar, tovushlar yordamida so'zlar tuzadilar. Bu metod bolalar nutqining rivojlanishida katta rol o'yaydi.

Anomal – (yunoncha "apatalos" - noto'g'ri, notekis) so'zidan olingan bo'lib, umumme'yordan o'zgacha bo'lgan holat ma'nosida qo'llanadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar -tug'ma, irsiy kasalliklarga ega bo'lgan kasalliklar yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan jarohatlar asoratlari oqibatida hayotiy faoliyat(lar) cheklangan jismoniy va (yoki) psixik kamchilikka ega bo'lgan 18 yoshgacha bolalar (bola).

Bu nuqsonlar tug'ma yoki tug'ilgandan keyin paydo bo'lishi mumkin. Tug'ma kamchiliklarning paydo bo'lism sabablari turlitumandir. Ko'p hollarda nasl (genetik) faktorlar asosiy rol o'yaydi. Tug'ma kamchiliklar rivojlanayotgan homilaga kimyoviy, mexanik, infektion ta'sirlar ko'rsatish natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Tug'ilgandan so'ng paydo bo'ladigan kamchiliklar bolalar rivojlanish paytida yuqumli kasalliklar bilan og'rish (meningit, poliomiyelit, qizamiq, skarlatina), jarohatlanish, intoksikatsiya natijasida ro'y beradi. Alovida yordamga muhtoj bolalarning asosiy guruhlari quyidagilar:

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar (kar, zaif eshntuvchi, kech kar bo'lganlar);

2. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'r, zaif ko'ruchchi) bolalar.

Aqli rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar.

Jismoniy kamchiliklari bor bo'lgan bolalar.

Nutqida og'ir kamchiliklari bor bo'lgan bolalar.

Alovida yordamga muhtoj bolalar maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya olishadi. Maxsus ta'lim tashkilotlarning asosiy maqsadi bolalardagi psixik hamda jismoniy kamchiliklarni mumkin qadar bartaraf etish va kompensatsiya yo'lini bilan ularni normaga keltirish.

Artikulyatsiya mashqlari -nutq organlarining mo'tadil va me'yordagi holatini ta'minlovchi mashqlar tizimi. Artikulyatsiya mashqlari asosan lab, til-jag' mashqlaridan iborat. Artikulyatsiya mashqlarining asosiy maqsadi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun zarur bo'lgan artikulyatsiya a'zolarining erkin harakatini ta'minlashdan iborat.

Aks ettirilgan nutq - Ayrim so'zlarni, jumllalarni logoped shaxsi nutqi ketidan (yakka holda yoki jo'r bo'lib) takror aytish. Aks ettirilgan nutq duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan nutqiy mashqlar turidir. Bunday mashqlarda duduqlanuvchi bola logoped tomonidan aytilgan so'zлами takrorlaydi, bu esa tutilmasdan gapirishga yordam beradi.

Anketa metodi - pedagogika va psixologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri. Bu metod orqali izlanish obyektini o'rganish maqsadida tuzilgan savollarga yozma ravishda tegishli javoblar olinadi. Olingan natijalar tahlil (analiz) qilingach, xulosalar qilinadi va ular asosida keyingi bosqichda bajariladigan ishlар belgilanadi. Maxsus ta'lim sohasida Anketa metodidan alovida yordamga muhtoj bolalarning u yoki bu jihatdan rivojlanganlik darajasini o'rganishda keng foydalaniladi.

Olingan ma'lumotlar qayd qilinib, tahlil etiladi, keyinchalik oldin olingan kuzatishlar natijalari bilan taqposlanadi. Bunday qiyosiy tahlil bola nutqining o'sish dinamikasini, o'ziga xos tendensiyasini kuzatishga yordam berib, o'qituvechi xatti-harakatlarining samarasini baholaydi va keyingga ishlарini belgilab beradi.

Bolanning lug'ati - me'yorida rivojlanayotgan bolanning lug'ati o'zgalar nutqining ta'siri ostida uzlusiz boyib boradi. Lug'at nofaol va faol bo'ladi. Nofaol lug'at bola tushunadigan, lekin o'zi ishlatmaydigan yoki kam ishlatadigan, faol lug'at bola o'z nutqida keng foydalanadigan so'zлardan iborat bo'ladi. Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarda lug'atning shakllanishi bir qator xususiyatlarga ega. Ya'ni birlamchi muammolar bunday bolalar lug'atining nihoyatda kam bo'lishini, ular nutqida fonetik-fonematisk va grammatic xatolarga yo'l qo'yilishi kabi ikkilamchi muammolarni

keltirib chiqaradi. Bolaning lug'at maxsus logopedik tadbirlar, shuningdek, atrofdagilar (kattalar) bilan muloqot jarayonida boyitib boriladi.

Bog'lanmagan (poyma-poy) nutq - mantiqiy tafakkur qoida va talablari doirasida fikrlay olmaslikni aks ettiruvchi nuqson; nutqdagi jumla va fikrlarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi. Bog'lanmagan nutq bosh miya qobig'idagi ba'zi nutq markazlarining zararlanishi (masalan, duduqlanish, dizartriya, afaziya) natijasida yoki ba'zi ruhiy kasalliklarda ham sodir bo'lishi mumkin.

Bo'g'in - nutq apparati mushaklarining bir zarb bilan harakatlanishi natijasida yuzaga keladigan tovush va tovushlar birikmasi. O'zbek tilida unli tovushlar bog'in hosil qiladi. Bo'g'in qanday tovush bilan tugashiga ko'ri ikki turga bo'linadi: unli tovush bilan tugaydigan ochiq bog'in, undosh bilan tugaydigan yopiq bo'g'in hisoblanadi. Bo'g'in urg'uli, nisbatan past, kuchsiz talaffuz etiladigan va urg'usiz bo'tadi. Cho'ziq va qisqa unlilar ishtirokiga ko'ra bog'inlar cho'ziq va qisqa bo'ladi.

Verbal muloqot - ikki yoki undan ortiq shaxslarning so'z, nutqiy vositalar, o'z fikrlarini bayon etish yordamida fikr almashishlari (munosabatga kirishishlari).

Diqqat - ongimizning muayyan obyekta yo'naltirishi va unga jalb etilishidan iborat ruhiy holat. Ongimiz yo'naltirilgan narsalar diqqatning obyekti hisoblanadi. Obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalar, ruhiy kechinmalar, taassurotlar diqqatning obyekti bo'lishi mumkin.

Deviant hulq – (lotincha "deviation" - og'ish, chetga chiqish) so'zidan olingen bo'lib, hulqning me'yordan chetga chiqishi ma'nosini anglatadi. Ya'ni shaxsning jamiyatda qabul qilingan huquqiy yoki axloqiy me'yorlarga qarama-qarshi bo'lgan xatti-harakatlar tizimi yoki ba'zi harakatni sodir qilishi tushuniladi. Huddi shunday xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi bolalar «ijtimoiy xatar guruhiga mansub bolalar» sirasiga kiritilmoqda.

Diksiya - so'zni aniq, ravon, tushunarli tarzda ifodalash.

Impressiv nutq - nofaol (passiv), ya'ni ichki nutq.

Innovatsiya - sohaga yangilik, o'zgarishlar olib kirish jarayoni va faoliyati.

Intergratsiyalashgan – “integrative” - jamlovchi (mujassamlovchi), “integrate” - jamlash (qo’shish).

Integratsiya ta’limi - aqliy va jismoniy rivojlanishlarida kuchchiliklari bo’lgan bolalarning sog’lom tengdoshlari jamoasida ta’lim olishi.

Inkluyuziv - “inclusive” - qo’shuvchi, “inclusion” - uyg‘unlashirish degan ma’nolarni bildiradi.

Inkluyuziv ta’lim - bolalarni bir-biridan ajratuvchi to’siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi, rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy ta’minlanganlik darajasidan qat’iy nazar, umumta’lim jarayoniga to’liq uyg‘umlashtirishga qaratilgan davlat siyosati ya’ni imkoniyati cheklangan bolalarni sog’lom tengdoshlari qatoriga qo’shish.

Interfaol metodlar - ta’lim jarayonida o’qituvchi tomonidan maqsadga erishish uchun qo’llanuvchi o’quvchilarining o’z va o’zaro fuollashuvlariga qaratilgan yo’l va metodlar yig‘indisi.

Idrok - Sezgi organlarimizga bevosiga ta’sir etib turgan narsa va hodisalarning ongimizda bir butun, yaxlit holda aks ettirilishidan iborat rubiy jarayon.

Ichki nutq - Nutqning bu turi ongda shakllanadi va boshqalarga bayon qilinadi. Ichki nutq ovozsiz, qisqa bo’ladi. Ichki nutq inson mutqiy tafakkurining muhim ko’tinishidir, shuning uchun ham nutqida kamchiligi bo’lgan bolalarda uni to’liq shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Impressiv nutq - taassurot so’zidan olingan bo’lib, o’zgalar nutqini idrok qilish, tushunishga asoslangan nutq turi.

Initiativ nutq - Bolaning o’z tashabbusi bilan yuzaga kelgan mustaqil nutqi. Bolalar o’rtasidagi suhbatni ham initiativ nutqga kiritish mumkin. Ichki nutqni paydo qilish uchun bolaning nutqi deyarli shakllangan bo’lishi zarur. Normal rivojlanayotgan bolalarda 1-2 yoshda paydo bo’ladi. Nutqiy buzulishlari kuchli bo’lgan (alaliya, dizartriya, tutilib gapirish) bolalarda ichki nutq rivojlanishining buzulishi kuzatiladi.

Intellekt - tushunish, tushuncha so’zidan olingan bo’lib insonning omumiy bilish faoliyati; uning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, aqliy rivojlanishi.

Kommunikatsiya - insonlarning bilish va mehnat faoliyatları jarayonidagi o'zaro bog'lanishlarining shakli bo'lib, ularning birgalikdagi amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi, bilish, fikr almashishga doir yoki emotsiyal xarakterdagi o'zaro ma'lumotlarning almashinuvi hisoblanadi.

Kommunikatsiya - fikr almashish, aloqa qilish; o'zgalarning fikrini tushunish va ularga o'z fikrini til vositalari orqali tushuntira olish jarayoni.

Korreksiyalash – alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning psixofizik rivojlanishidagi kamchiliklarni to'g'rilash, zaiflashtirish yoki to'g'rilashga qaratilgan psixologo-pedagogik choralar tizimi.

Korreksiya - tuzatish, yaxshilash, bartaraf etish. Anomal bolalarning ruhiy va jismoniy taraqqiyotidagi kamchiliklarni pedagogik usul va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay yo'qotish.

Korreksiya talaffuzdagi kamchiliklarni tuzatish- Talaffuzida kamchiligi bor, aqli zaif bolalar bilan maxsus individual va guruh mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Kompensatsiya - ta'lif-tarbiya jarayonida sog'lom sezgi a'zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalarni qayta qurish orqali me'yordan chiqqan analizator o'mini to'ldirish (qoplash).

Korreksiya - rivojlanishdagi muammolarni bartaraf etish, yaxshilash, to'g'rilash.

Korreksiya metodikasi - ta'limiy maqsadga erishishni ta'minlashda qo'llanuvchi maxsus ta'limiy shakl va vositalar majmuasi.

Leksika - tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralar yig'indisi. Lug'at ma'lum qonun-qoidaga bo'ysunadigan izchil va murakkab sistemani tashkil qiladi Har bir tilning lug'ati to'xtovsiz o'zgarib turadi. Lug'at boyib borishi jamiyat taraqqiyoti (ishlab chiqarish, fan, texnika, san'at va madaniyatning rivojlanishi) bilan chambarchas bog'liq. Nutq komponentlarining buzilishi alaliya, afaziya kamchiliklarida kuzatiladi. Nutq leksik komponentining buzilishi fonetik va grammatik qurilishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham logoped mashg'ulotlarda lug'atni boyitish bilan bir qatorda tovushlarni korreksiyalash va agrammatizmlari bartaraf etish ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir,

Logik urg'u - so'z ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash maqsadida qidagi biror so'zni boshqalarga nisbatan kuchliroq talaffuz etish.

Malaka - mashqlarni ko'p takrorlash natijasida yuzaga keladigan avtomatlashgan harakatlar. Bolalarda, yurish, talaffuz etish, o'qish, yozish, hisoblash, mehnat qilish malakasi shakllantiriladi. Malaka hosil qilishdagi asosiy usul mashqdir.

Maxsus ta'lif tashkilotlari - imkoniyati cheklangan bolalarmi tushxislash, o'qitish, tarbiyalash va maslahatlar berish uchun yaratilgan tashkilotlar: maktabgacha ta'lif tashkilotlari, mакtablar, mакtab-internatlar, umumta'lif mакtablari qoshidagi logopedik punktlar, psixologo-tibbiy-pedagogik konsultatsiyalar, psixologo-pedagogik korreksiya kabinetlari, reabilitatsiya markazlari va boshqa tashkilotlar.

Maxsus ta'lif shart-sharoitlari - maxsus ta'lif dasturlari va ta'lif usullari, individual texnik ta'lif vositalari hamda yashash va huoliyat ko'rsatish muhiti, shuningdek pedagogik, tibbiy, ijtimoiy va boshqa xizmatlar, zero bu xizmatlarsiz alohida yordamga muhtoj shaxslar ta'lif dasturlarini o'zlashtira olmaydilar.

Metod - yunoncha "metodos" so'zidan olingen bo'lib, yo'l, axloq, usul ma'nolarini anglatadi.

Metodika - biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasi. U alohida metodlardan tashkil topadi.

Monologik nutq - bir odam so'zlab, boshqalar uning nutqini idrok qilishiga asoslangan nutq turi. Monologik nutqning buzilishi ko'pincha alaliya, afaziya, duduqlanish kabi nutq kamchiliklarida kuzatiladi.

Morfema - morfema so'zning eng kichik, bo'linmas ma'noli qisimidir. Morfema bir yoki bir necha fonemadan iborat bo'lishi mumkin.

Mustahkamlash - esda qoldirilgan muayyan materialni turli unullar bilan ongimizda yanada mustahkamlashga qaratilgan xotira jarayoni.

Noverbial muloqot - axborot, fikmi so'zlashuv nutqidan boshqa tona xatti-harakati vositalari yordamida yetkazish (imo-ishora, hatti-harakat va boshqalar).

Nutq - insonlarning tarixiy shakllangan, til vositasida yuzaga keluvchi muloqot qilishlarining shakli.

Nutq madaniyati - fikr almashish jarayonida nutqning to‘g‘ri, aniq, ravon, ifodali, mazmunli bo‘lishiga erishish; so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlata bilish va to‘g‘ri talaffuz etish.

Nutq kinesteziyalari - nutqning hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi organlar holati hamda harakatini his etish.

Nutqni eshitish, ko‘rish asosida idrok etish - ko‘rish va eshitish a‘zolari yordamida og‘zaki nutqni idrok etish.

Ovoz - Nutqning barcha jarayonini bosh miya bajaradi. Undan kelgan signal natijasida ovoz va muayyan nutq tovushlari paydo bo‘ladi.

Orfografiyaning sonetik tamoyili - so‘zdagi tovushlar qanday jaranglasa, yozuvda ham ularni huddi shunday aks ettirishga asoslangan tamoyil, u orfografik qoidalarni bilishga asoslanmagan.

Orfografiyanı egallashga bo‘lgan fiziologik tayyorlik - yozish ko‘nikmasini shakllantirish va “qo‘llab-quvvatlash” da ishtirok etadigan analizatorlarning saqlanganlik darajasi.

Orfografiyanı egallashga bo‘lgan funksional tayyorlik - nutqsiz psixik funksiyalar deb ataladigan hamda savodli yozuv ko‘nikmalarining to‘liq shakllanishini ta’minlaydigan alohida oliy psixik funksiyalar (qisqa muddatli mexanik xotira, so‘zli mantiqiy xotira, ko‘rishdagi diqqat, optik-fazoviy tasavvurlar, eshitish-motor va harakat-motor koordinatsiyalar)ning muayyan darajasi.

Orfografiya ko‘nikmalarini egallashga bo‘lgan operatsional tayyorlik - orfografik xatti-harakatlarni ta’minlaydigan til operatsiyalarining holati bo‘lib, bunday xatti-harakatlarga fonematik tahlil, morfema tahlili, so‘z yasalishi, so‘z o‘zgarishi, til birliklari (tovushlar, so‘zlar, so‘z birikmaları, gaplar)ning qiyosi kiradi.

Og‘zaki-nutqiy tayyorlik - og‘zaki nutq tarkibidagi tuzilmayıv komponentlar (fonetik-fonematik va leksik-grammatik tizim) rivojlanishining muayyan holati (darajasi).

Og‘zaki nutq - talaffuz etiladigan va eshitish orqali idrok etiladigan (qabul qilinadigan) tashqi nutq. Og‘zaki nutq dialogik va monologik turlarga bo‘linadi.

Paronim so‘zlar - Bir tovushi bilan bir-biridan farq qiluvchi so‘zlar (pol-bol, sim-shim, tol-tor).

Suhbat - ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasidagi o‘zaro so‘zlashuv, savol-javob jarayoni.

Takroriy nutq - biror-bir kishi tomonidan aytilgan so'z va gaplarni ketma-ket takrorlash.

Tarbiya - shaxsni shakllantirishni nazarda tutuvchi maxsus tashkil etilgan maqsadga yo'naltirilgan jarayon.

Tashqi nutq - fikr va his-tuyg'ularni til vositasi orqali o'zgalarga bayon qilish jarayonidan iborat bo'lgan nutq turi bo'lib, uning og'zaki va yozma shakllari mavjud. Shuningdek, bu nutq so'zlovchilarining ishtirokiga ko'ra dialogik va monologik turlarga bo'linadi. Dialogik nutq ikki yoki bir necha kishi o'rtaсидаги so'zlashuv bo'lib, so'zlashuvchilar bir-birlarining nutqini bo'lib, qo'shimcha qilib turishlari mumkin. Monologik nutq bog'langan kontekstli nutq bo'lib, u oldindan tayyorgarlikni talab etadi va bir kishi tomonidan amalga oshiriladi. Mimika, qo'l harakati, intonatsiya fikrni o'zgalarga yetkazib berishda muhim ahamiyatga ega. Yozma nutq shakllangan og'zaki nutq asosida rivojlanib boradi.

Ta'llim - o'qitishning mahsuli bo'lib, o'qitish jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalar va tafakkur usullarining tizimi. Ta'llimga ega bo'lishning bosh mezonini bilimlar va tafakkurning tizimliliği, ularning yaratuvchanlik, insonparvarlik yo'nalishida qo'llanishi belgilaydi.

Ta'llimda ko'rgazmalilik - didaktik prinsiplardan biri. Ko'rgazmalilik o'quv materialini puxta va chuqur o'zlashtirishga, o'quvchilararning bilim doirasini kengaytirishga, ularning tafakkurini va kurzatuvchanligini rivojlantirishga katta yordam beradi. O'quvchilarining tevarak-atrofdagi hodisa va predmetlarni idrok qilishlari natijasida ularda obyektiv borliq haqida to'g'ri tasavvur hosil bo'ladı. Logopedik mashg'ulotlarda ko'rgazmali qurollardan toydalanish hosil qilingan bilim va malakalarning mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

Ta'llim-tarbiyada individual yondashuv- har bir shaxsning aqliy, madaniy saviyasi va bilim darajasi, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda u bilan muomala-munosabatda bo'lish sovet pedagogikasining tamoyilidir.

Taqlid qilish - biror shaxsning xatti-harakatini ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda takrorlash. Maxsus ta'llim-tarbiya jarayonida keng yo'llanuvchi ish usullaridan birini tashkil qiladi. Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ta'llim jarayonida pedagogga taqlid qilishlari asosida ma'lum ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

Taqlid qilish o'zgalarning xatti-harakatlarini ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash. Taqlid qilishning fiziologik asosiy shartli va shartsiz reflekslardir. Bolalar nutqi kattalarning nutqiga taqlid qilgan holda taraqqiy etib boradi.

Abbreviatura (ital)-qisqartma so'zlar.

Abzats (nem)-xat boshi.

Abstrakt ot (lot.)-mavhum ot.

Avtor gapi - muallif gapi.

Adabiy til-umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. Adabiy tilning ikki shakli bor: 1) yozma shakli. 2) og'zaki shakli.

Alfavit - alifbo (yunon alifbosidagi birinchi ikki harfnинг nomi: alpha va beta).

Antonim (yun.)-o'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklari.

Argo (frans.)-yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifa (masalan, talabalar, sportchilar, o'g'rilar)ning o'ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug'aviy birlklardan iborat yasama tili.

Arxaizm (yun.)-ma'lum davr uchun eskiringan, iste'moldan chiqa boshlagan til birligi (so'z, frazeologizm va b.).

Affiks (lot.)-qo'shimcha.

Assimilyatsiya – qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilib o'ziga moslashtirishidir.

Progressiv assimilyatsiya – aytdi aytти, yurakga-yurakka.

Regressiv assimilyatsiya – yigitcha yigichcha, tuzsiz-tussiz. Bog'lama fe'l bo'lmanan so'zni fe'lga xos ma'no va vazifaga moslovchi yordamchi fe'l.

Nutq tovushi – o'pkadan kelayotgan havoning nutq organiga urilishidan hosil bo'lgan tebranish.

Olinma so'z - o'zlashma so'z.

Singarmonizm – unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg'unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi.

Tavsifiy fonetika – nutq tovushlari, ularning xususiyati va xarakteri qayd etiladi. Fonetikaning sillabika, akustika, intonasiya, tovush o'zgarishi va uning qonuniyatları haqida ma'lumot beriladigan sohasi.

Tarixiy fonetika – nutq tovushlari taraqqiyoti o'zgarishi bilan bog'langan hodisalar, qonuniyatlar beriladi. Tilga xos fonetik jarayonlar tarixiy yodgorliklar orqali yoritiladi.

Trifstonglar – tarkibi uch tovushdan iborat. Masalan: [av..]

Transkripsiya – tovush va harf orasida nomutanosiblik bor bo'lgan tillarda ushbu yozuv muhim ahamiyat kasb etadi, undan o'qish-o'qtish ishlarida keng foydalaniladi.

Qiyosiy fonetika – qardosh tillar uchun umumiyl hodisa va qonuniyatlarning holati, qo'llanish miqdorlari, o'ziga xosligi qiyos qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I Normativ huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2018 yil. 55 bet
2. O'zbekiston Respublikasi – “Ta'llim to'g'risida”gi va – “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi Qonuni- T.: 2020 yil 23-sentabr
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogiron shaxslar huquqlari” to'g'risidagi Konvensiyasi 2006.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar

mahkamasining qarorlari

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha “Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'llim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-2909-son 2017 yil
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta'llim ehtiyojlari bo'lган bolalarga ta'llim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4860-son qaror 2020 yil

II.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

7. “Bilimli avlod - buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi, 2018-yil 8-dekabr.
8. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi Toshkent - «O'zbekiston» - 2016

9. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” - Toshkent: «O'zbekiston», 2017.

III Maxsus adabiyotlar:

10. A.Nurmonov,B.Yo'ldoshev “Tilshunoslik va tabiiy fanlar”. “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. –T.: 2001,
11. A.Hojiev. Tilshunoslik terminlарining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2002,
12. Jamolxonov H.A. “Hozirgi o'zbek adabiy tili”. - T.: “Talqin” nashriyoti. 2005.
13. A.Shomaqsudov, I.Rasulov R.Qo'ng'uров, X.Rustamov “O'zbek tili stilistikasi”. T., “O'qituvchi” 1983 yil
14. U. Tursunov, J.Muxtorov, Sh. Rahmatullaev.. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil
15. R. Yunusov. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruba matnlari (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Toshkent, 2000-yil.
16. Q. Safaev, R. Yunusov Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruba matnlari (Morfologiya). Toshkent. 2000.
17. D. Muhammedova, D. Shodmonqulova, M. Maqsudova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruba matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). T. 2001-yil.
18. R. Ikromova, D. Muhammedova, D. Shodmonqulova, M. Maqsudova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruba matnlari (Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya.). Toshkent. 2001-yil.
19. R.Ikromova D. Muhammedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruba matnlari (Sintaksis). Toshkent. 2001-yil.
20. M.A.Hamroev O'zbek tilidan ma'ruzalar majmasi. T., 2007-yil.
21. Z.T.Xolmanova “Tilshunoslikka kirish” Toshkent. 2007 yil
22. Кодухов В.И. Введение в языкознание .-М.,1987.
23. Козлова М.С.Философия и язык.-М.,1972.
24. Колшанский Г.В. Логика и структура языка.-М.,1965.
25. D.S.Qaxarova “Inkluyuziv ta'lif texnologiyasi” Toshkent. 2014

26. Ю.В.Шумиловская Подготовка будущего учителя к работе с учащимися в условиях инклюзивного образования
27. Юлдашев Ж.Ф., С.А.Усмонов. Педагогик технология асослари. –Т.: Уқитувчи, 2004. 101 б., 7-б.
28. Чиркина Г. В. Методы обследования речи детей: Пособие по диагностике речевых нарушений.-М., 2003г.
29. Шомахмолова Р.Ш. Система коррекционна педагогической работы по развитию русской речи умственно отсталых учащихся 2-3 классов: Автореф.дисс. канд. Пед .наук. М: МГПУ, 1991. 17 стр.
30. Қодирова Ф.У. Бошлангич синф кар ва заиф эшигувчи ўқувчилар нутқини шакллантириш. Номзод дис. Автореф.Т., 2006. 22 б.
31. Цейтлин С.Н. Язык и ребёнок./ С.Н.Цейтлин.-М.: “Владос”, 2000.-240 с.

OZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA ORTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI / MIRCHIO DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. INKLYUZIV VA MAXSUS TA'LIMNING FILOLOGIK ASOSLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	6
1. Inklyuziv va maxsus ta'larning maqsad va vazifalari.....	6
2. Umumiy tilshunoslikdan ma'lumot	16
3. Til va nutq.....	26
4. Fonetika	37
5. O'zbek adabiy tili me'yorlari	42
6. Grafika va orsfografiya	47
7. Leksikologiya	53
8. Frazeologiya va leksikografiya	72
9. Morfemika	80
10. Hujjat turlari va ish yuritish asoslari	86
11. Hujjatlar bilan ishlash.....	91
12. Notiqlik san'ati haqida umumiy ma'lumot	104
13. Nutqning kommunikativ sifatlari	111
Glossariy	120
Foydalaniilgan adabiyotlar ro'yhati	130

F.U.QODIROVA, X.SH.YUNUSOVA

INKLYUZIV VA MAXSUS TA'LIMNING FILOLOGIK ASOSLARI

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 19.08.2022.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'oz. "Times New Roman"
garmiturasi. Hisob-nashr tabog'i. 8,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 108.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

БАДАВИЛЛЯР 100 АДАМДАР
САЛАРДАР БАДАВИЛЛЯР
БАДАВИЛЛЯР

10

10

10

10

10

10

10

10

10

10





ISBN 978-9943-8462-6-4



9 789943 846364